6. Emberson, J. et al., 2018. Stroke thrombolysis in specialized stroke hospitals vs non-specialized hospitals: a registry-based analysis. European stroke journal, 3(3), pp.229-237.

7. Meretoja, A., Keshtkaran, M., Tatlisumak, T., Donnan, G.A. and Churilov, L., 2017. Endovascular therapy for ischemic stroke: save a minute—save a week. Neurology, 88(22), pp.2123-2127.

8. Akhmedov, A., Irgashev, J., and Murodov, A., 2020. Current State of Stroke Service Organization in Uzbekistan. Journal of Neurological Sciences, 419, p.335.

XOTIN-QIZLARGA NISBATAN TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIK MUAMMOLARI

Sadikova Elmira Maratovna

Chirchiq davlat pedagogika universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlarni o’qitish metodikasi (huquq ta’limi) yo‘nalishi I-kurs magistranti

Annotatsiya: *Maqolada xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining namoyon bo‘lish shakllari, jamiyatda ushbu zo‘ravonlikni oldini olish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlar xususida yoritilgan. Tazyiq va zo‘ravonlikni tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari va davlatimiz tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar.*

Tayanch so‘zlar: *Tazyiq va zo‘ravonlik, xotin-qizlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, , iqtisodiy zo‘ravonlik, ruhiy zo‘ravonlik, Xotin qizlarni himoya qilish borasidagi ma’lum normativ huquqiy hujjatlar.*

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan Xotin-qizlarining oilaviy turmush muammolarini bartaraf etishga ko‘maklashish, hayotiy haq-huquqlarini munosib himoya qilish, ularning oiladagi yoki boshqa turdagi zo‘ravonlik qurboniga aylanib qolishlarini oldini olish, hayotini qayta yo‘lga qo‘yishda moddiy va ma’naviy, tibbiy-psixologik yordam berish bo‘yicha samarali ishlar amalga oshirimoqda desak mubolag’a bo‘lmaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Agar ayol, ona baxtli bo‘Isa, oila **baxtli bo‘ladi,** oila baxtli bo‘Isa, butun jamiyat, davlat mustahkam va barqaror bo‘ladi”. Buni asosi sifatida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta’minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish masalalari yuzasidan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz, “Taraqqiyot strategiyasi – 2030” va O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikga erishish Strategiyasi kabi konseptual hujjatlarda

o‘zining to‘liq ifodasini topganligini aytib o‘tishimiz joiz. Shuningdek, Prezidentimiz tarafidan xotin-qizlarning mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish bo‘yicha “Milliy dastur” hayotga tatbiq etilmoqda.

Tazyiq va zo‘ravonlik tushunchalarini quyidagicha ta’riflash mumkin:

Zo‘ravonlik — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazish choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog‘lig‘i, jinsiy daxlsizligi, sha’ni, qadr-qimmati va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g‘ayrihuquqiy harakat yoki harakatsizlikdir.

Tazyiq – sodir etilganligi uchun ma’muriy yoki jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan, xotin-qizlarning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitadigan harakat yoki harakatsizlik, shilqimlik, ta’qib etish.

Bugungi kunda oilada ayollarga nisbatan qo‘llanilgan tazyiqlar va zo‘ravonliklar tufayli ularni asrash va himoya qilish muhim ahamiyat ega bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra,“tazyiq va zo‘ravonlikdan jabr ko‘rganlar – o‘ziga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik sodir etilishi tahdidi ostida bo‘lgan yoki tazyiq va zo‘ravonlik natijasida jabrlangan ayollar”dir deyilgan. Afsuski hozirgi paytda zo‘ravonlikning har xil shakllari bilan tajovuzga uchragan xotin-qizlar oramizda ko‘plab topiladi. Anig’roq aytadigan bo‘lsak, Xotin-qizlarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan og‘irligi turli darajada bo‘lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta’sir o‘tkazish yoki bunday ta’sir o‘tkazishning o‘zga choralarini qo‘llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog‘lig‘i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli;

Xotin-qizlarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan ularning roziligisiz shahvoniy xususiyatga ega harakatlarni sodir etish orqali jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash;

Xotin-qizlarga nisbatan iqtisodiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarga nisbatan turmushda, ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli,

xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakat yoki harakatsizlikdir.

Xotin-qizlarga nisbatan ruhiy zo‘ravonlik - xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar yetkazgan harakat yoki harakatsizlik bo‘lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib oiladagi tazyiq va zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymaslik, jabrlanganlarni esa himoya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda davlat siyosati doirasida vakolatli davlat tashkilotlari, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va shu qatorida keng jamoatchilik o‘z majburiyatlarini ado etishi asosiy o‘rin egallaydi. Davlatimiz tomonidan amalga oshirigan siyosatlarning bir ko‘rinishi sifatida shuni aytishimiz kerakki, so‘nggi yetti yilda O‘zbekistonda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 27 foizdan 35 foizga ko‘tarildi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 32 foizi, Senat a’zolarining 25 foizi ayollardan iborat bo‘lib, bugun har bir mahallamizda ham ularning o‘z vakillari bor. Ishbilarmon xotin-qizlar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan ayollar soni 205 mingdan oshgan. Yuz minglab ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitilib va salkam yarim million nafar singillarimiz ish bilan ta’minlangan. Hozirgi kunda oliygohlarda ta’lim olayotgan talabalarning yarmidan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Bu borada olib borilayotgan Prezidentimizning tizimli chora-tadbirlari xalqaro hamjamiyat tomonidan ham munosib e’tirof etilmoqda. Chunki Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev takror va takror: “Bundan buyon ham **Yangi O‘zbekistonni - ayollari hayotdan rozi bo‘lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirishga ustuvor ahamiyat beriladi**”- deb ta’kidlab kelmoqdalar. Bundan kelib chiqib, mamlakatimiz xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida ularning faolligini oshirish borasida katta natijalarga erishmoqda desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ma’lum normativ hujjatlar asosida xotin-qizlarning tazyiq va zo‘ravonlikka uchrash holatlari va ularning oqibatlarini bartaraf etish hamda bu yo‘nalishda bajarilishi kerak bo‘lgan chora tadbirlar belgilab berilgan. Ushbu normativ hujjatlarga “Xotin qizlarni tazyiq va

zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun, “Xotin- qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek, oilaviymaishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827 sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderi berish ijrosini ta’minlash va monitoringini yuritish to‘g‘risida”gi Nizom kiradi.

Xulosa qilib aytganda, zo‘ravonlik va tazyiq holatlari davlat va jamiyat rivojlanishining turli davrlarida kuzatilgan bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarning negativ bir ko‘rinishi shaklida namoyon bo‘lmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik va tazyiqning ko‘lamini kamaytirish, oldini olish va oqibatlari bilan kurashish maqsadida xalqaro tajriba hamda amaliyotini o‘rganish yuzasidan paydo bo‘lgan kamchiliklar ustida ishlash orqali jamiyatdagi holatni yaxshilash borasida amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish va qo‘llash imkoni paydo bo‘ladi.

Umuman aytganda, davlatimiz xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sog'lig'ini saqlash, kasbga o‘qitish va bandligini ta’minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qo‘llab-quwatlash, gender tenglikni ta’minlash borasidagi islohotlarni tizimli davom ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Hozirgi zamon va yangi O‘zbekiston” SH.M.Mirziyoyev “O‘zbekiston”, 2024.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 iyuldagi “Ijtimoiy reabilitatsiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo‘rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3827-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/3804821

3. “Xotin qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-son Qonuni. https://lex.uz/docs/4494709

4. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-562-son Qonuni. https://lex.uz/docs/4494849

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARGA ESTETIK TARBIYA BERISHNING NAZARIY - PEDAGOGIK ASOSLAR

Abdullayeva Nigora Azamat qizi
Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani
25 sonli Davlat maktabgacha talim
tashkiloti direktor o'rinbosari
E-pochta: m.abdullayeva@gmail.com
https://t.me/abdullayeva0100

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga estetik tarbiya berishning nazariy va pedagogik asoslari yoritiladi. Estetik tarbiyaning mazmuni, uning bola rivojlanishidagi o‘rni hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida amalga oshirilishiga e’tibor qaratiladi. Shuningdek, estetik tarbiyaning san’at, musiqa, adabiyot va tabiat bilan bog‘liq jihatlari tahlil qilinadi hamda uni rivojlantirish bo‘yicha samarali metod va vositalar taklif etiladi.*

Kalit so‘zlar*: Estetik tarbiya, maktabgacha ta’lim, pedagogik asoslar, san’at, musiqa, didaktik yondashuvlar, bolaning rivojlanishi, innovatsion metodlar.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретико-педагогические основы эстетического воспитания детей в дошкольных образовательных организациях. Уделяется внимание содержанию эстетического воспитания, его роли в развитии ребенка и его реализации на основе современных педагогических подходов. В нем также анализируются аспекты эстетического воспитания, связанные с искусством, музыкой, литературой и природой, и предлагаются эффективные методы и инструменты для его развития.*

Ключевые слова: *Эстетическое воспитание, дошкольное образование, педагогические основы, искусство, музыка, дидактические подходы, развитие ребенка, инновационные методы.*

Abstract*: This article discusses the theoretical and pedagogical foundations of aesthetic education for children in preschool educational organizations. Attention is paid to the content of aesthetic education, its role in child development, and its implementation based on modern pedagogical approaches. Also, aspects of aesthetic education related to art, music, literature, and nature are analyzed, and effective methods and tools for its development are proposed.*

Keywords: *Aesthetic education, preschool education, pedagogical foundations, art, music, didactic approaches, child development, innovative methods.*

Kirish

Jahonda har bir mamlakatning milliy, umumbashariy qadriyatlar uyg‘unligidan iborat ma’lumxalq, jamiyat, tarixiy davrga xos ma’naviy-ma’rifiy talablarga javob beradigan infratuzilmasini rivojlantirish, bo‘lajak mutaxassislarni jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga tayyor, fuqarolik pozitsiyaga ega mutaxassislar etib tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan

O’zbekiston xalqi o’z oldiga huquqiy demokratik jamiyat qurish maqsadini qo’ygan. Bu yo’lda birinchi, lekin juda muhim qadamlar qo’yilgan-ki, xalqaro jamiyatda o’z o’rnimizni mustahkamlashga olib keladi. Negaki dunyoning bugungi rivoji shunday bir mavqedaki, hal qiluvchi omil harbiy qudratda emas, balki intellektual salohiyatda, fikrda, aqlda, ilg’or texnologiyalardadir.

Jamiyatni ma’naviy yangilashdan ko’zlangan bosh maqsad – yurt tinchligi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag’rikenglik kabi ko’pdan-ko’p muhim masalalardan iborat.

Pedagogning bolaga o’z shaxsiyati bilan ta’sir ko’rsatishi to’g’risidagi g’oyani o’z davrida maktabgacha ijtimoiy tarbiya tizimining yaratuvchilaridan biri G.A.Arkin rivojlantirgan edi. Maktabgacha yosh davri bolaning estetik didi va badiiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun eng muhim bosqichlardan biridir. Shu boisdan, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida estetik tarbiya berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bolalarning atrof-muhitni idrok etishi, san’atga bo‘lgan qiziqishi va badiiy faoliyatga jalb etilishi ularning ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Insoniyat go'zallikni butun rivojlanish tarixi jarayonida egallaydi va yaratadi. Go'zallik madaniy tarixiy tajribaning bir qismi hisoblanadi. Uning obyektiv mavjudligi estetik tarbiya nazariyasini, estetik tajribani yosh avlodga maqsadga muvofiq va muntazam ravishda berish va shu orqali uni estetik rivojlantirishni ta'minlashning faol usullarini ishlab chiqishga yo'naltiradi. Bunda estetik tarbiya madaniyatni egallashning asosiy vositasi tarbiya va ta’limdir. Estetik tarbiya juda keng tushuncha bo'lib, unga tabiat, mehnat, ijtimoiy hayot, turmush va san'atga estetik munosabatni tarbiyalash kiradi.

Asosiy qism. Estetik tarbiya (nafosat tarbiyasi) - bu bolalarga voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir. Nozik didli bo'lish, go'zallikni fahmlay va qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish, o'z hayotini go'zallik qonunlari asosida qura olish - komil insonning eng zarur fazilatidir. [12]Estetik tarbiya - eng avvalo, har bir kishida badiiy hissiyot tuyg'ularini, badiiy didni tarbiyalashdir. Ilmiy dunyoqarashga asoslangan nafosat, did, his-tuyg'ular va ko'nikmalarning o'sib borishi jarayonida insonning o'zi ham ma’naviy boyib, hayoti yanada sermazmun bo'ladi. Yashayotgan zamoniga nisbatan mehr-muhabbati ortib boradi. Bularning hammasi har bir insonda go'zallikni xunukdan, jirkanchlikdan farq qila bilish qobiliyatini shakllantiradi, uni yanada rivojlantiradi. Estetik tarbiya bugungi kunda shunisi bilan muhimki, didfarosatlilik mehnatda, ishlab chiqarishda, kundalik amaliy faoliyatda - har bir inson uchun hayotiy ehtiyojga aylanib qolgan. Donolardan biri go'zallik axloq-odobning tug'ishgan singlisidir, degan edi. Darhaqiqat, odob va nafosat tarbiyasi o'zaro chambarchas bog'liq holda amalga oshiriladi. Chunki nafosat tarbiyasining natijasi axloq-odobda, chiroyli xatti-harakat, go'zal munosabatda va hayotga, kelajakka, insonlarga, tabiatga muhabbatda ko'rinadi. Xalqimiz «Kamtarlik ham husn» deydi. Mana shu birgina iborada chuqur ma'no bor. Estetik tarbiya orqali yoshlarda kamtarlik xislati tarkib topadi. Bu xislat kishilarning eng go'zal belgisidir. Salbiy xatti-harakatlardan nafratlana bilish tuyg'usini ham estetik tarbiyani paydo qiladi. Bunda badiiy asarlarning roli muhimdir. Masalan: «Zumrad va Qimmat» ertagida Qimmatning xulq-atvori bolalar qalbida nafratni uyg'otadi. Zumradning tevarak-atrofga munosabati, mehnatsevarligi, kamtarligi qalblarda quvonchni paydo qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ayrim yoshlar go'zallikni tor ma'noda tushunadilar. Ya'ni chiroyni ko'pincha husn jamolda deb bilishadi. Bu bir tomonlama tushunchadir. Har tomonlama ma'noda esa chiroy husn-jamol, qalb go'zalligida, ma'noli so'zdadir. Xalqimiz bejizga «Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda» deb aytmagan!

San'at va hayot go'zalligi bilan tanishtirib borish bolaning aqlini, xissini tarbiyalab qoimay, shu bilan bir qatorda uning xayol va tasavvurni ham rivojlantiradi. Bolalarni go'zallikka oshno qilish, ularda hayotiy voqealarni to'g'ri

[12]Ko‘chkinova M. KASBIY ETIKET QOIDALARINING TAKOMILLASHUVIDA PEDAGOGIK MAHORAT VA O ‘QITUVCHI KOMPETENSIYALARINING AHAMIYATI //" Science Shine" International scientific journal. – 2024. – T. 16. – №. 1

tushunish, olijanob his-tuyg'ularni va intilishlarni shakllantirishga yordam beradi. Bolalarda go'zallikni idrok qilishni tarbiyalash orqali ularda boshqa kishilarning kechinmalarini his eta bilish, kishilarning xursandchiliklariga sherik bo'lish, qayg'usini birga baham ko'rish kabi xususiyatlar tarkib toptiriladi. Estetik taraqqiyot shaxsning estetik ongi, munosabati va estetik faoliyatining shakllanishi va takomillashuvida uzoq vaqt ni talab etadigan jarayondir. Shaxsning estetik taraqqiyoti ijtimoiy-tarixiy va estetik tajribani ijodiy o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladi, Bu har xil yo'llar va shakllar orqali amalga oshiriladi. Shaxsning estetik jihatdan rivojlanishida ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lim va tarbiya hal etuvchi rol o'ynaydi. Estetik ehtiyoj - kishi borliqni, badiiy faoliyatni, uning har xil ko'rinishlarida estetik idrok etishga undovchi subyektiv omildir. Estetik ehtiyoj go'zallik to'g'risidagi fanning rivojlanish qonuniyatlarini yanada chuqurroq o'rganishga undaydi. Estetik qiziqish shaxsni san'at asarlarini, tevarak-atrofdagi borliqni estetik idrok etishga va estetik faoliyatga o'ylantiradi. Estetik qiziqish estetik ehtiyojni yuzaga keltiradi. «Estetik tarbiya» tushunchasi bilan bir qatorda «badiiy tarbiya» tushunchasi ham mavjuddir. Badiiy tarbiya san'at asarlari orqali tarbiyalashdir. U shaxsda san'at asarlarining shakl va mazmunini estetik idrok etishni rivojlantirish, badiiy didni shakllantirish va san'atning ma'lum turlari bo'yicha ijodiy faoliyatni, ijrochilik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgandir, Uning natijasi fikrning paydo bo'lishida, uni amaliy faoliyatda qo'llashda, o'z bilim va taassurotlarini ko'ra bilishda, his-tuyg'ulari va fikrlarini samimiyat bilan ifodalashda namoyon bo'ladi.Estetika tabiatdagi, jamiyatdagi moddiy va ma'naviy madaniyat buyumlarida aks etgan, shuningdek, estetik ongning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifasi to'g'risidagi qonuniyatlarni, obyektiv borliqni estetik bilishning muhim usullaridan biri bo'lgan san'atning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Bolalarning estetik rivojlanishi ularning kundalik jo'shqin hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Ilk yoshdagi bolalarni nazarda tutganda, hali ularning estetik tarbiyasi to'g'risida emas, balki ularning hissiy va sensor rivojlanishi to'g'risida o'ylash kerak. Bola yaltiroq bo'yoqdan xursand bo'ladi, bir maromdagi tovush va harakatlardan huzur qiladi. Bola hayotining birinchi yilida ularning sensor-hissiy qabul qiluvchanligi takomillashib boradi. Bu yoshdagi bolada hissiy kechinmalarning shakllanishida kattalar muhim rol o 'y n a y d i. Kattalarning ochiq yuz bilan jo'shqin ohangda gapirishlari bolaga buyumlarning u yoki bu xususiyatlariga ijobiy munosabatda bo'lishlariga yordam beradi. Va, aksincha, kattalarning ogohlantiruvchi ovozi, ular yuzidagi tundlik alomati yoki xo'mrayib qarashlari, jerkib, siltab tashlashlari va hokazolar bolalarda shu buyumga yoki

uning sifatiga salbiy munosabatni shakllantiradi. Bola hayotining ikkinchi yilida uning idroki sekin-asta takomillasha boradi. Bolalar endi faqat borliq xususiyatlarini emas, shu bilan birga san'at asarlaridagi ayrim estetik ifoda vositalarini ham idrok eta boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarda musiqaning quvnoq va g'amgin kuylariga, ularning qattiq va sokin ohangiga, ohista va tezligiga javob ta’siri paydo bo'ladi.

O'rta guruhga kelganda bolalar estetik idrokinnng rivojlanishida muhim o'zgarishlar yuz beradi. Ularning estetik idroki ancha aniq va tabaqalashgan bo'lib qoladi. [13]Ammo shunga qaramay, u qisqa-qisqa bo'lib, bolaning shaxsiy tajribasi va qiziqishiga bog'Iiq bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar badiiy obrazni eng oddiy estetik baholay oladilar, ba'zi bir estetik vositalarni to'g'ri anglaydigan, tasvir mohiyatini tushunadigan bo'lib qoladilar. Bolalarda go'zallikni idrok qilish jarayoni aniq ifodalangan, ta'sirli, faol tusda bo'ladi. Bu ayniqsa, ular qo'g'irchoq teatri, kino, multfilm, telespektakllarni tomosha qilganlarida aniq namoyon bo'ladi. Bolalar asar qahramonlari harakatiga bemalol qo'shilib harakat qiladilar, ularda muayyan vaziyatda o'zini qanday tutishni aytib turadilar, o'zlarini ular bilan birga o'ynayotgandek his etadilar. Bu yoshdagi bolalar tanish bo'lgan san'at asarlarini yangi asarlar bilan solishtiradilar va ba'zi bir xulosalar chiqaradilar. Bolalar she'rni nasrdan, badiiy asarning ba'zi bir janrlarini, tasviriy faoliyat va musiqaning bir xil turlarini (ertakni hikoyadan, marshni raqsdan, allani o'yindan va hokazo) bir-biridan ajrata boshlaydilar. Tasvirda badiiy, musiqa, teatrlashtirish kabi hamma faoliyatlarda qo'yilgan vazifani bajarishda mustaqillik, ijodkorlikka intilish namoyon bo'la boshlaydi. Bolalar o'yinga tushganda, ashula aytganda, sahnalashtirish o'yinlarida obrazlarning ifodali bo'lishiga ongli ravishda intila boshlaydilar. Katta guruhning oxirlariga kelganda ular musiqani, badiiy asarlarni diqqat bilan tinglaydilar, tasviriy san'at asarlarini sinchiklab kuzatadilar, ulardagi ijobiy qahramonlarning xatti-harakatlaridan quvonadilar, yomonlikni qoralaydilar. Bolada musiqaviy va shoirona tinglash qobiliyati rivojlanadi. Ularda ayrim musiqa janrlariga, adabiy va tasviriy san'at asarlariga nisbatan barqaror qiziqish paydo bo'ladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga estetik tarbiya berish ularning tafakkuri, tasavvur doirasi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada ta’kidlangan pedagogik yondashuvlar va metodlar orqali bolalar nafaqat san’atni anglash, balki uni his

[13] Ko‘chkinova M. N., qizi Rahmonova D. I., qizi Rahmonova M. S. BO ‘LAJAK O ‘QITUVCHI KASBIY TAYYORGARLIGIGA DOIR ETIKET QOIDALARINI TARKIB TOPTIRISHDA MULOQOTNING O‘RNI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 14. – C. 778-783.

qilish va ijodiy yondashishga o‘rganadilar. Shunday ekan, estetik tarbiyaga yo‘naltirilgan innovatsion usullarni qo‘llash, ta’lim jarayonida san’at elementlaridan keng foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T. “O‘zbekiston”, 2017 y. – 47-b.

2.Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016 y. 7 dekabr. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 48b.

3.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqi. Xalq so‘zi gazetasi, 2017.16 yanvar, №11

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi 29.12.2020-yil

G`AFUR G`ULOM IJODIDA INSONIYLIK TASVIRI
IMAGE OF HUMANITY IN GAFUR GHULAM'S WORK

Sarvinozxon O`ktamova
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti
3-kurs talabasi
(+998913982454)
Sarvinozuktamova38@gmail.com

Annotatsiya:*Taniqli o`zbek yozuvchisi G`afur G`ulom qalamiga mansub “Yodgor” qissasida yozuvchi o`zining kuchli satirasi va yumori bilan o`sha davrni, o`sha davr odamlarining dunyoqarashini tasvirlagan. Qissa bosh qahramon tomonidan hikoya qilinadi. Asarda Mehri ismli ayol Jo`raga hiyla yo`li bilan farzandini tashlab ketadi. Keyinchalik bolani Yodgor deb atay boshlaydilar. Yodgor-poetik vosita, bu nom orqali yozuvchi o`z oldiga Yodgorning hayotini*

yoritishni maqsad qilmagan ham, aksincha, asarda insoniy kechinmalar haqida hikoya qilinadi.

**Kalit so`zlar:** *G`afur G`ulom, Jo`ra, Saodat, Yodgor, Mehrixon, jaholat, sof sevgi, ona, farzand.*

Annotation:*In the short story named "Yodgor" written by the well-known Uzbek writer Gafur Ghulam, the writer described that era and the worldview of the people of that time with his strong satire and humor. The story is narrated by the main character. In the play, a woman named Mehri tricks Jora into leaving her child. Later they start calling the child Yodgor. Monument-poetic device, the writer did not aim to illuminate the life of Monument through this title, on the contrary, the story tells about human`s psychology.*

Key words: *Gafur Ghulam, Jora, Saodat, Yodgor, Mehrikhon, ignorance, pure love, mother, child.*

Yozuvchi G`afur G`ulom ijodida xalq hayoti, turmushi yaqqol ko`zga tashlanadi. G`afur G`ulomning insoniylikni ulug`lovchi asarlaridan biri “Yodgor” qissasidir. Yozuvchi, asarda o`sha paytdayoq muhabbat erki masalasini ko`tarib chiqib, jaholat inson boshiga og`ir-og`ir kulfatlar olib kelishini ko`rsatib beradi. Hazil-mutoyiba va ertaknamo yo`sinda yozilgan bu qissa zamirida g`amgin hikoya, fojiali taqdir bor. “Yodgor” qissasida xalqimizning or-nomus masalalaridagi qarashlari o`z ifodasini topgan. Asar qahramonlaridan biri bo`lmish Mehri otasining qarshiligi va o`sha davrdagi hukmron mafkura sabab sevgan insoni bilan qovusha olmaydi, o`z oilasi sha’ni yo`lida o`zining jigarbandi, farzandi - Yodgordan voz kechishga majbur bo`ladi. Qissaning bosh qahramoni - Jo`raga bolani hiyla yo`li bilan tashlab ketadi. Natijada esa umri davomida vijdon azobidan qiynalib, farzand qayg`usida kasalmand ahvolga keladi. Yodgor - ramziy nom, poetik vosita. Bu asar orqali yozuvchi uning hayoti va xatti-harakatlarini ko`rsatishni maqsad qilmagan ham. Asosiy maqsad - inson kechinmalari, qahramonlarning ruhiyati, sof muhabbat va mehr-shafqatdir. Darhaqiqat, bosh qahramon Jo`ra o`zi tanimagan bolani o`z farzandi sifatida qabul qiladi, barchaga bu bolani o`zining og`li deb tanishtiradi, Yodgorni ilk bora ko`rgan Jo`raning onasi uni yoqtirmadi. Bolani o`z oilasi nomiga isnod deb bildi. Fig`oni falakka chiqqan ona: “Yettti nomusimni yerga bukding, juvonmarg”, - deb qarg`aydi. Shuningdek, Jo`ra ammasining qizi Saodatga unashtirilgan edi, ammo Jo`raning “o`g`li” haqida eshitgan ammasi unga qizini bermasligini, bunday beboshvoqqa beradigan qizi yo`qligini aytadi. Har ikki onani jig`ibiyron qilib yondirgan ikkinchi narsa –

Jo`raning haqiqatni yashirib, “Go`dakni mening bolam, onasi shu bolani tug`di-yu o`ldi”, deyishi edi. Hatto o`z akasi undan yuz o`giradi, “Bo`ldi. Men bilan bordi-keldi qilmasin. Unaqa ukam yo`q”, deydi. Opasi bolani xushlamaydi, balki onasiga achinganidan, balki sharmandagarchilikdan qutulish maqsadida “bolasini qo`liga tutqazing, xohlagan joyiga olib borib boqtirsin, xudo ko`tarsin, yetim qo`zi asrasang, og`zi-burning moy etar, yetim o`g`lon asrasang, og`zi burning qon etar”, deydi.

Xullas, qarindosh-urug`, mahalla, tanish-bilish oldida qahramonimiz Jo`raning nomi yomonlikka yoyildi, kim ko`rsa ta’na qilib o`tadigan bo`ldi. Shu o`rinda kitobxonda beixtiyor bir savol tug`iladi, axir Jo`ra haqiqatni aytishi mumkin ediku?! Nega aytmadi? Buning uchun uni hech kim ayblamasdi ham, aksincha, maqtov eshitardi. Ammo keyin Yodgorning taqdiri nima bo`lar edi? Jo`ra Yodgorni o`ylab ishlatgan “hiylasi” ish beradi. Keyinchalik hammaning bolaga mehri tushadi. O`ziga umuman begona bo`lgan bolani o`z farzandi sifatida qabul qilgan Saodat timsolida esa biz sof sevgi, vafo, mehr-muhabbat, aql-zakovat kabi fazilatlarni ko`rishimiz mumkin.

Shuningdek asarda inson xarakterining shakllanish jarayoni o`z ifodasini topgan, ya’ni oddiygina chapani, soddagina yigit Jo`raning hayotiga kirib kelgan kutilmagan “mehmon” uni anchagina gap-so`zga qo`yadi. Lekin aynan shu gap-so`zlar qahramonimizni harakatga undadi, 22 yoshli navqiron yigit - Jo`ra harbiy xizmatga chaqiriladi. Aynan gap-so`zlardan qutulish maqsadida u harbiy xizmatga ketadi. Xizmat vaqtida harbiy mashg`ulotlardan tanasi chiniqib, savlatli yigitga aylanadi, bundan tashqari chala qolib ketgan savodini chiqaradi, xizmatga chin yurakdan kirishadi, yuragida Vataniga, do`stlariga bo`lgan muhabbat jo`sh ura boshlaydi. Uning tirishqoqligi komandirlarini befarq qoldirmadi, albatta. Xizmatda yurgan vaqtlarida tushgan suratini onasiga yuborar, onasi esa suratni qo`lidan qo`ymay, “Xudoya shukur, shu tentakkinamga aql kirib, hukumatning saldatboshisi bo`lib ketgan”, - deyar emish. Xizmat muddatining bir yili o`tgach, ta’til olib, uyga qaytgan Jo`ra oila a’zolarining unga bo`lgan munosabatidan mamnun bo`ladi, u bilan arazlashib qolgan aka-opalari, kelinoyisi keladi, o`gli Yodgor ham alpon-talpon qilib yurib qolgan, ko`chaga o`g`lini ko`tarib chiqsa, avvalgiday hech kim uni mazax qilmaydigan bo`ladi. Ammasi ham keladi, gap orasida “Taqdirni buzib bo`larmidi, yigit degan ne ko`ylarga tushmaydi. Tentakkinangiz savlatlikkina yigit bo`lib qaytibdi-ya sallatlikdan, Kuniga deng, aylanay egachi, sovchilar eshigimning turmini buzadi. Hammasiga ham “Yo`q aylanaylar, qizim hali yosh, undan keyin bunining boshi bog`liq”, deb javob beraman. Xolasining o`g`liga

“beshik ketgan” deyman. Buning yigiti Ashxobodda sallatboshi deb maqtanib qo`yaman”[14]. Ammasining bu gaplaridan qahramonimiz Jo`raga shu ma’lum bo`ladiki, har ikki ona ham Saodatni Jo`raga unashtirishga rozi.

Qissada bundan keyin yangi bir ma’no paydo bo`ladi, ya’ni endi hech kim Jo`rani ayblamas, Yodgorga ham barcha yaxshi munosabatda bo`lar edi. Ammo Jo`rada yangi maqsad, yangidan yangi orzular paydo bo`lgandi. Kechagina dunyoning ishqini, zavqini – sayroqi bedana, xrom etik, beqasam to`n, yashil qo`lbola musallasdan iborat, deb yurgan oddiy chapani yigit yuragida Vatanga muhabbat hissi jo`sh ura boshlaydi.

Xizmatni o`tab bo`lgach, Sankt-Peterburgdagi harbiy akademiya qoshidagi tibbiyot fakultetiga tavsiyanomani qo`lga kiritadi. Keyinchalik uning o`tmishi va Yodgor bilan qabul qiladigan ammasining qizi, sevgilisi - Saodat paydo bo`ldi. Saodat obrazi juda ham oqila, dono, mehribon qiz sifatida tasvirlanadi. U Jo`raning farzandi deb o`ylagan Yodgorni o`z farzandi sifatida qabul qiladi, unga mehrini beradi, shu o`rinda Yodgor ham Saodatni o`z onasidek ko`radi, u otasi Jo`raga bejiz “Menga oppoq oyi olib kelasizmi... Saodat opamni aytyapman” demagan edi. Saodat Jo`raga u harbiy ta’lim olayotgan vaqtlardayoq xatlar yoza boshlaydi, shu vaqtdan boshlab Jo`ra va Saodat o`rtasida sevgi qissasi boshlanadi. Saodat timsoli esa vafoli, oqila, mehribon va go`zal qiz sifatida tasvirlanadi. Saodatni ham beixtiyor Yodgorning oyisi kimligi qiziqtirardi va bu haqida Jo`radan so`raydi ham. Jo`ra esa bu haqida to`ydan keyin aytib berishga va’da beradi.

Mehrixon va Jo`raning qayta uchrashuv jarayonini yozuvchi yuksak mahorat bilan tasvirlagan. Tibbiyot fakultetini tamomlagan Jo`ra chegara hududlardan biriga jo`natiladi, u yerda mahalliy aholi orasidan do`stlar orttiradi. O`sha do`stlaridan biri kunlarning birida Jo`rani bir necha yillardan beri tuzalmayotgan, ko`pdan-ko`p tabiblar dardiga shifo topolmayotgan bemorni, ya’ni o`zining betob xotinini ko`rish uchun taklif qiladi. Bemor bilan bo`lgan qisqa suhbatdan shu ma’lum bo`ladiki, uning betobligi boisi farzandsizlik edi. Shu o`rinda ular o`zlarining o`tmishlarini, farzandlari bo`lganini, or-nomusni o`ylab bu farzanddan voz kechishga majbur bo`lganliklari ayon bo`ladi. Aynan shu joydan barcha sirlar oshkor bo`ladi, bosh qahramonimiz - Jo`ra tili bilan aytganda: “Hikoya chuqurlashgani sari bir qorong`ulikdan nurga, shubhadan yaqinga borayotgan kishilarday ko`zimning qorachiqlari kengaymoqda, badanim allaqanday qo`rqinchli uchrashuvdan darak

[14] https://library-tsul.uz/yodgor-ofur-ulom-1983/

berganday jimirlamoqda edi… Meni o`ch bilan shafqat, g`azab bilan marhamatning kurashi o`z komiga tortgan edi.

…Ana Yodgor, haligina emgan ona sutining oxirgi lazzatini tamshanib, mening qo`limda uxlamoqda.

…Ana Yodgor, mening yulduzli shapkamni kiyib o`ynamoqda.

…Ana Yodgor, “menga oppoq oyi olib bering”, deb qistamoqda.

…Ana Yodgor…

Endi Yodgor yo`q. Yodgor - u, birovning o`g`li”.[15]

Shu onda yozuvchi G`afur G`ulom Mehrixonning holatini ham tasvirlab beradi, Mehrixon yarim telba holatda tasvirlanadi. Shu tarzda barcha haqiqatlar ochiladi.

Asar bir romanga tatigulik qissadir. Qissani o`qib, kitobxon sof sevgi, vafo, mehr-muhabbat singari yuksak insoniy fazilatlarni his qiladi. Qissada har bir qahramonning ichki hissiyotlari katta mahorat bilan ochib berilgan, Jo`raning samimiyligi, ochiqko`ngilliligi, Saodat va Jo`ra o`rtasidagi sof sevgini ko`rib, hozir ham shunday insonlar bormikan deb o`ylab qolasan kishi. Jo`raning insoniyligi, taqdir sinovlari oldida bosh egmasligi esa u tomonidan aytilgan ushbu jumlada o`z ifodasini topadi: “Asosan o`ylaganda, “Taqdir” degan so`z kishilarni yaratmaydi, balki kishilar taqdirni yaratadi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G`afur G`ulom. Yodgor. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1983.

2. Nazarov.B. G`afur G`ulom olami. T.: Fan, 2004.

3. G`afur G`ulom zamondoshlari xotirasida. -T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.

Internet web-saytlar:

4. https://library-tsul.uz/yodgor-ofur-ulom-1983/

5. https://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/149

[15] G`afur G`ulom. Yodgor. Toshkent: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 1983

MAHALLADAGI IQTIDORLI VA ISTE`DODLI YOSHLAR BILAN TIZIMLI ISHLASH MASALALARI

Latipov.B.U
G`ijduvon tuman Fayzulla Xo`jayev
mahalla yoshlar yetakchisi

Annotatsiya: *Yangi O‘zbekistonda yangilanayotgan islohotlar davrida yoshlarimizning o‘rni va ahamiyati juda yuqori chunki davlatimizning 60% ga yaqin qismini yoshlar tashkil etayotgan davrda, islohotlarni amalga oshiruvchi asosiy kuch bu yoshlar hisoblanadi. Iqtidori va iste’dodi bor yoshlar yurtimiz ravnaqi, rivoji va yuksalishida o‘z hissalarini qo‘sha oladi. Endigi ishlar aynan shunday iqtidori va iste’dodi bor yoshlarni izlash, aniqlash, ular bilan samarali ishlash uchun Yoshlar ishalari agentligi tashkiloti tashkil etilishi va ushbu tashkilot tashabbusi Prezidentimizning qo‘llab – quvvatlash va yuksak ishonchlari bilan 2022–yil 19-yanvardagi “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g`risidagi 92-son qarorlari bilan respuplikamizning barcha hududlaridagi mahllalarida yoshlar yetakchi lavozimi joriy qilindi. Endigi bu lavozim egalarining vazifasi yuqorida takidlab o‘tilgan mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash va iqtidorli va istedodli yoshlarni aniqlab, ularni yuzga chiqarish hisoblanadi.*

Kalit so`zlar: *Yoshlar ishlari agentligi, mahalla, yoshlar yetakchisi, Yoshlar parlamenti, iqtidorli yosh, Yoshlar daftari, yoshlar balansi, yoshlar siyosati,*

Har qanday davlatning rivoji uning bilimli, zukko, iqtidorli yoshlar jamiyati bilan ham chambarchas bog‘liq ekan, avvalo ana shunday iqtidor egalarining iqtidorini yuzaga chiqarish, ularning yangi yaratuvchanlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ona vataniga sadoqat ruhida kamol topishiga imkon yaratish barcha davlatlarning bosh siyosatidir.

Prezidentimizning hokimyat tepasiga kelgan kunlaridan boshlab yoshlar siyosatiga e’tibor berishlari dastlabki kunlardan bilindiki, “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida”gi qonunni imzolashlarining o’ziyoq davlatimizda yoshlarga bo;lgan e’tibor va yoshlar siyosati masalasi eng yuqori pog’onada ekanligini ko;rishimiz mumkin.

Mavzuning ahamiyati ham shundaki, iqtidorli yoshlarning individual tipologik xususiyatlariga ham psixologik,ham pedagogik ahamiyat qaratilganidir. Maqolada ham iqtidorli yoshlarning tipologik xususiyatlari psixologik amaliyot bilan bog‘lab ifodalangan. Tadqiqot davomida iqtidorning turlariga va uni rivojlantiruvchi tavsiyalarga urg‘u beriladi. Hozirgi kunda yoshlarga bo‘lgan

e`tibor nafaqat yurtimizda, balki jahon davlatlari miqyosida ham qiziqish, talab kuchli, chunki yoshlar endi o‘sib kelayotgan nihol. ularni qay yo‘sinda tarbiyalasang qanday bog`bonlik qilib parvarishlab o‘stirsang shunday katta bo‘ladi va shunday mevasini ko‘ramiz. Yoshlarda mavjud bo‘lgan g`oyaviy bo‘shliq, ularni egallash uchun kurash butun hamjamiyat o‘z g`oyalari, mafkuralarini singdirish uchun axborot kurashi, mafkuraviy kurash, ma`naviy-ma`rifiy kurash avjiga chiqgan. Bugungi kunda O‘zbekistonda yoshlar soni (30 yoshgacha) 10 mln ga yaqin, bu yoshlarning ulushi 57 % ni tashkil qiladi.

Yurtimizda yoshlar manfaatini himoya qiladigan tashkilot mavjud. Bu tashkilot muhtaram prezidentimiz tomonlaridan 2020-yil 30-iyundagi “O’zbekistonda Yoshlar ishlari agentligi faolyatini tashkil etish to`g`risida” gi 4768- son qarorlari orqali Yoshlar ishlari agentligi tashkiloti tuzildi va hozirgi kunga qadar yoshlar uchun hamda ularning manfaatlari uchun ishlab kelmoqda.

So‘nggi yillarda davlat boshqaruvi sohasidagi yosh rahbar kadrlarning o‘rnini belgilash va ularni turli mas’uliyatli lavozimlarga tayinlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunga misol tariqasida Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi “Yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 92-son qarorlari asosida respublika hududidagi 9400 ta mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi va bu bilan ushbu lavozim egalariga keng imkonyatlar yaratib berilib mahalladagi yoshlar mafaatini himoya qilinishi belgilangan bo’lsa, ikkinchi tarafdan yoshlar yetakchilari yaxshi ish faolyatini ko’rsata olsa ular rahbar lavozimlariga ko’tarilishiga imokn berildi va uchinchidan yoshlar yetakchilari lavozimi oraqali 9400 ta yangi ish o’rinlari yaratildi.

Bu kabi yangi mexanizm natijasida davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalar zamonaviy hamda kreativ fikrlaydigan, mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladigan, ‘ayrat-shijoatli yosh kadrlarga ishonib topshirilmoqda. Yoshlar yetakchisi va unga hamkor tashkilotlar bilan aloqani kengaytirish. Tizimli ishlarni tashkil qilish va yoshlar bilan pastga qadar tushib, harbir yoshlar bilan muloqotni kengaytirish. Mahallalardagi iqtidorli va istedodli yoshlarni aniqlash, yuzaga chiqarish va biror yo‘nalishda qiziqishi bor lekin imkoniyati yetishmaydigan yoshlar bilan alohida ishlash.

Ayni muhim o‘zgarishlarni davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “sotsial lift” tushunchasi qog‘ozda emas, amaliy ko‘rsatib berayotganidan dalolatdir. Prezidentimiz tashabbusi va amaliy ko‘magi tufayli mamlakatimizda yoshlar siyosati mutlaqo yangi bosqichga olib chiqilmoqda. Keyingi yillarda yurtimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim yaratildi. O‘g‘il-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, orzu-intilishlari, qobiliyat va

salohiyatini ro‘yobga chiqarish davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishiga aylanib, bu yo‘lda ulkan ishlar bajarilmoqda. Ana shu g‘amxo‘rlik va e’tibordan ruhlanib, yoshlarning ham, o‘z navbatida, Vatan va xalq taqdiriga daxldorlik hisi kuchaymoqda. Zamonaviy, demokratik yangi O‘zbekiston davlatini mustahkamlashda munosib ishtirok etishga intilmoqda. So‘nggi to‘rt yil davomida yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun, davlatimiz rahbarining 7 ta farmoni, 14 ta qarori, 2 ta farmoyishi, Vazirlar Mahkamasining 23 ta qarori va 4 ta farmoyishi imzolangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi, Qonunchilik palatasida Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiya tashkil etildi. Hozirgi kunda bu yo‘nalishdagi ishlar davom ettirilib, Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palataci qoshida “Yoshlar parlament”lari faoliyat ko‘rsatmoqda. Prezidentimizning o‘tgan yil 30 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga binoan Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi qoshida Yoshlar akademiyasi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlar hokimlarining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etildi. 2018 yildan boshlab oliy ta’lim muassasalarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimi o‘rniga yoshlar bilan ishlash bo‘yicha prorektor lavozimi joriy etildi. Ularning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisi bo‘linmalariga yuklandi.

Yoshlar siyosati samaradorligini oshirish maqsadida 182 ta vazirlik, idora va tashkilotda yetakchilar kengashi tashkil etildi. Boshlang‘ich tashkilot yetakchisi lavozimi uchun alohida shtat birligi ajratilib, maqomiga ko‘ra rahbarning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari yoki maslahatchisi lavozimiga tenglashtirildi.

Yosh kadrlarga qaratilgan bunday e’tibor, beqiyos g‘amxo‘rlik va yaratilayotgan shart-sharoitlar yigit-qizlar hayotida yangidan-yangi sahifalar ochilishiga zamin yaratmoqda. Tarix va ijtimoiy hayot tamoyillari shuni ko‘rsatmoqdaki, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va unda yuksak darajadagi hayot, turmush tarzining qaror toptirilishi, avvalo har bir faoliyat ko‘rsatuvchi shaxsdagi o‘ziga xos psixologik saloxiyatning nechog‘liq to‘la-to‘kis namoyon etilayotganligi bilan belgilanadi. Zero, har bir mamlakatning porloq kelajagini odamlardagi ijodiy, intellektual va ma’naviy taraqqiyot yo‘liga xizmat qiluvchi davlat mexanizmisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu boisdan bo‘lsa kerak, hozirgi kunda barcha rivojlangan, rivojlanish yo‘lidan borayotgan mamlakatlar birinchi galda o‘z fuqarolarining ma’naviy, intellektual, jismoniy,

ruhiy barkamolligiga va undan ijtimoiy manfaatlar uchun samarali foydalanish yo‘llarini izlashga jiddiy e’tiborni qaratmoqdalar. Shu nuqtai nazardan, har bir mamlakatda inson va uning faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy- psixologik xizmat tizimining joriy etilishi ayniqsa, aloxida ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda yuz berayotgan ulkan o‘zgarishlar barcha sohalarga, shuningdek, ta’lim jarayoniga xam o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Ta’lim jarayonida shaxsni kamol toptirish shart-sharoitlarini yaratish ta’lim muassasalarida ishlarni to‘g‘ri tashkil etilganligi bevosita psixologik xizmatni to‘g‘ri tashkil etishga xam bog‘liqdir.

Hozirda “Yoshlar daftari” elektron platformasi orqali ko`plab yoshlarga imkonyatlar eshigi ochilmoqda. Bunga misol tariqasida 2022-yil 7-iyundagi “2022-2023 yillarda O’zbekiston Respublikasida yoshlaga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tastiqlash to’g’risida”gi Vazirlar mahkamasining 310-son qarori bilan yoshlar siyosati masalasi yangi bosqichga kirgan bo’lsa, “Yoshlar muammolarini o’rganish va xal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi Vazirlar mahkamasining 312-son qarori orqali qinalgan, og’ir ahvolga tushgan, imkonyati cheklangan yoshlarga yordamlar berish va bu orqali ularning ahvoli yaxshilanib sog’lom muhitga, sog’lom jamiyatga qaytish uchun imkonyatlar eshigi kengaytirilib, bu eshikka eng maqbul kalit sifatida esa mahallada yoshlar yetakchisi etib belgilanib, mahalladagi ushbu toifalardagi yoshlarga yordam berishiga keng imkonyatlar yaratib berildi. Bu esa yoshlarda davlatga bo’lgan ishonchni oshiradi va o’zi va oilasi ahvolini yaxshilash uchun maksimal darajada harakat qilishiga imkon yaratadi.

Ta’lim tizimida psixologik xizmatning tashkil etilishi tarbiyalanuvchyti, o‘quvchining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida uning shaxsi har tomonlama kamol topishi, xam ma’naviy, xam aqliy rivojlanishi, o‘zligini anglashi va qobiliyatlarini namoyon etishi uchun tegishli ta’lim-tarbiyaviy hamda ma’naviy-ruhiy sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Ma’lumki, keyingi yillarda ta’limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarning ustivorligi asosida ta’limning barcha darajalari va bo‘g‘inlarida ta’lim oluvchilarningm ma’naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta’lim olishda, shuningdek, bolalar va yoshlarni ma’naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoattashkilotlari mahallalar , xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi.

Yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantirishning maqsadi:

- yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;

- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek

ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish:

- intellektual ijodiy salohiyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;

-yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini rivojlantiruvchi psixologikpedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Beliglangan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifani belgilab olamiz:

iqtidorli o‘quvchilarni izlash mexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy–uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.

intellektual ijodiy salohiyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o‘rganish.

- yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o‘rganish.

- yoshlarning ma’naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish

manbalarini yaratish.

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini oshirish usullarini ishlab chiqish.

- yoshlarning intellektual ijodiy salohiyatini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganib chiqish;

- fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- ta’lim menejmenti sohasida innavatsion takliflarni o‘rganish va ularni ta’lim tizimiga tadbiq etish;

-bo‘lajak rahbar kadrlarning intellektual salohiyatini oshirish va ko‘maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o‘rganish va me’riy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish. Yoshlarning bo'sh vaqtini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari "yoshlar" yoki "yoshlik" tushunchasi har qanday jamiyatga xos bo'lgan va ma'lum demografik davrlarni qamrab olgan o'ziga xos tushuncha. Hozirgi davr tadqiqotchilari axborotlar jamiyati hisoblangan yangi asrda yoshlarning hamma soha va tarmoqlarda rivojlanib ketganligini inkor etmagan holda, 10 mavjud taraqqiyot o'ziga xos ravishda sosial, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va tabiiyki, ma'naviy muammolarni ham yuzaga keltirayotganligini e'tirof etadilar. O'zbekistonda yoshlarning har tomonlama mukammal bilim olishi, kamol topishi yo'lida keng qamrovli ishlar olib borilayotgan ekan, tabiiyki, bu jabhada bevosita yoshlarning ishtiroki, ularning bo'sh vaqtlarini qay darajada unumli o'tkazayotganligi to'g'risida tadqiqotlar olib borish dolzarb masalardan biri sanaladi. Inkor etishning hojati yo'q, tadqiq etilishi taklif etilayotgan muammo

yuzasidan atroflicha ilmiy izlanishlar o'tkazilgan. Uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda ularni vaqtinchalik ishlarga yoki qo'shimcha kasb o'rgatuvchi to'garaklarga jalb etish katta samara beradi. Bu jarayonda turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan taqdim etilayotgan ijtimoiy loyihalar yoki xizmatlarning o'rni beqiyos bo'lishi turgan gap.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Me’yoriy-huquqiy xujjatalar

1. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.09.2016 yildagi O‘RQ-406-son” “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonun

2.“Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomallashtirish chora-tadbirlari to‘g`risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 92-son qarorlari(01.19.2022)

3.2022-2023-yillarda “o‘zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi o‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 310-son qarori (07.06.2022)

4.“Yoshlar Muammolarini o‘rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 312-Son Qarori (07.06. 2022)

5.2022-yil 20-yanvardagi PQ-96-son qarorlariga muvofiq Ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan yoshlar bilan “Yoshlar daftari”ni yuritish orqali ishlash tizimini yanada takomillashtirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oliy ta’lim tashkilotlari talabalari o‘rtasida intellektual sog‘lom raqobatni shakllantirish, talaba va yoshlarning bilim va salohiyatini yanada oshirish hamda ularni rag‘batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari

6.O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" O‘zbekiston " Toshkent 2012 yil Universiteti.

Collaboration between governments, private organizations, and technology providers is essential for the successful integration of AI in HRM. Public-private partnerships can drive the development and implementation of innovative HR solutions. By leveraging the expertise and resources of global tech firms, Central Asian countries can accelerate the digital transformation of their HR practices and ensure that they remain aligned with international standards.

The establishment of research and innovation hubs dedicated to AI and HRM can catalyze technological advancements in the region. These hubs can foster collaboration between academia, industry, and government, driving the development of localized AI solutions tailored to the specific needs of Central Asian organizations. Additionally, they can serve as centers for experimentation, training, and knowledge sharing.

Given the cultural diversity of Central Asia, it is crucial to adapt AI technologies to the region’s unique socio-economic and organizational contexts. Culturally sensitive AI tools can improve employee engagement, workplace inclusivity, and overall acceptance of technology. This customization will

enhance the effectiveness of AI solutions and ensure their seamless integration into existing HR systems.

To fully understand the implications of AI integration in HRM, longitudinal studies should be conducted to monitor its long-term effects. These studies can provide valuable insights into areas such as employee satisfaction, productivity, organizational growth, and the evolving role of HR professionals. By identifying trends and challenges, such research can inform the continuous improvement of AI-driven HR practices.

The future of HRM in Central Asia lies in the strategic adoption of AI technologies. By focusing on policy development, upskilling, collaboration, and cultural adaptation, the region can overcome its HR challenges and unlock new opportunities for growth. These future directions provide a roadmap for Central Asian organizations to harness the transformative power of AI, ensuring sustainable development and competitiveness in the global economy.

VIII. REFERENCES

1. Cao, G., Duan, Y., Edwards, J. S., & Dwivedi, Y. K. (2021). Understanding managers' attitudes and behavioral intentions towards using artificial intelligence for organizational decision-making. Technovation.

2. Chowdhury, S., Dey, P., Joel-Edgar, S., Bhattacharya, S., Rodriguez-Espindola, O., Abadie, A., & Truong, L. (2023). Unlocking the value of artificial intelligence in human resource management through AI capability framework. Human resource management review, 33(1), 100899.

3. Crompton, H., & Burke, D. (2023). Artificial intelligence in higher education: the state of the field. International Journal of Educational Technology in Higher Education, 20(1), 22.

4. Dabrowski, M. (2023). Thirty years of economic transition in the former Soviet Union: Microeconomic and institutional dimensions. Russian Journal of Economics.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI

Yaxshiliqov Jo’raqul Rahmiddin o’g’li
SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti 2-bosqich talabasi
Tirkashyev Farhod Mahmudovich
Ilmiy rahbar SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti assistenti.

Annotatsiya: *O'zbekistonda turizm sanoati so'nggi yillarda jadal rivojlanishga yuz tutgan bo'lsa-da, turizmning iqtisodiyotdagi ulushi hali ham past darajada qolmoqda. Mamlakatda turizmni rivojlantirishga qaratilgan ko'plab imkoniyatlar mavjud, lekin shu bilan birga turizm sohasidagi ba'zi muammolar ham davom etmoqda. Bular orasida moliyaviy resurslarning yetishmasligi, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, bir xil turistik mahsulotlarning mavjudligi, viza olishdagi to'siqlar va boshqaruv tizimidagi muammolar kabi masalalar alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi. Mamlakatda turizm infratuzilmasini yaxshilash, turistik mahsulotni diversifikatsiya qilish, xalqaro tajriba asosida boshqaruvni takomillashtirish va viza rejimini soddalashtirish orqali sohani yanada rivojlantirish mumkin.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, turizm, rivojlanish, muammolar, infrastruktura, viza rejimi, boshqaruv tizimi, turistik mahsulot, xalqaro tajriba, iqtisodiy salohiyat.*

Abstract: *Although the tourism industry in Uzbekistan has experienced rapid development in recent years, its contribution to the economy remains relatively low. There are numerous opportunities for the development of tourism in the country, but at the same time, several challenges in the tourism sector persist. These include the lack of financial resources, underdeveloped infrastructure, the availability of similar tourist products, visa barriers, and issues in the management system. This paper examines the existing challenges in the development of tourism in Uzbekistan and explores ways to address them. Improving tourism infrastructure, diversifying tourist products, enhancing management based on international experience, and simplifying the visa regime are potential strategies for further developing the sector.*

Keywords; *Uzbekistan, tourism, development, challenges, infrastructure, visa regime, management system, tourist products, international experience, economic potential.*

Аннотация: *Хотя туристическая отрасль Узбекистана в последние годы претерпела быстрые изменения, ее вклад в экономику страны*

остается относительно низким. В стране существует множество возможностей для развития туризма, однако в то же время сохраняются несколько проблем в туристическом секторе. К ним относятся нехватка финансовых ресурсов, слаборазвинутая инфраструктура, однотипные туристические продукты, визовые барьеры и проблемы в системе управления. В данной статье рассматриваются существующие проблемы в развитии туризма в Узбекистане и предлагаются пути их решения. Улучшение туристической инфраструктуры, диверсификация туристических продуктов, совершенствование управления на основе международного опыта и упрощение визового режима являются потенциальными стратегиями для дальнейшего развития сектора.

Ключевые слова: *Узбекистан, туризм, развитие, проблемы, инфраструктура, визовый режим, система управления, туристические продукты, международный опыт, экономический потенциал.*

Kirish

O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi katta imkoniyatlarga ega, ammo hozirgi kunda bir qator muammolar mavjud bo'lib, bu mamlakatning turizm sohasida to'liq salohiyatini amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni hal etish, turizmni yanada rivojlantirish va xalqaro bozorga muvaffaqiyatli kirish uchun bir qancha yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarur. Ushbu maqolada O'zbekistondagi turizmni rivojlantirishdagi asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari aniq va batafsil yoritilgan.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda eng katta muammolardan biri infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Transport tarmoqlari, mehmonxona va turizm uchun zarur xizmatlarning sifati va miqdori turistlar uchun noqulayliklar yaratadi. Kichik shaharlar va tarixiy yodgorliklar joylashgan hududlarda mehmonxona tarmoqlari juda cheklangan, shuningdek, transport tizimi samarali ishlamagan.

O'zbekistonning asosiy turistik hududlarini bir-biriga bog'lash uchun zamonaviy transport tizimlarini yaratish kerak. Avtomobil va temiryo'l yo'llarini ta'mirlash, shuningdek, xalqaro aeroportlarni kengaytirish va yangilash lozim.

Kichik shaharlarda va turistik joylarga mehmonxona va boshqa turistik xizmatlarni tashkil etish uchun investitsiyalarni jalb qilish, yangi zamonaviy mehmonxona komplekslarini qurish zarur.

O'zbekistondagi turistik joylarda mehmonxona xizmati va boshqa turistik xizmatlarning sifatini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur.O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda muammolarni bartaraf etish uchun

bir nechta sohalarda muhim o'zgarishlar amalga oshirilishi zarur. Infratuzilma, marketing, xalqaro aloqalar, xodimlar malakasi va yangi turizm yo'nalishlari bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar O'zbekistonni turizm bozorida ilg'or davlatlarga aylantirishga yordam beradi. Bunda davlatning qat'iy siyosati, xususiy sektor va xalqaro hamkorlikning o'zaro aloqalari muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharxi:

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari mavzusi bo'yicha mavjud adabiyotlar, asosan, mamlakatning turizm sohasining hozirgi holati, imkoniyatlari, infratuzilmasi, va istiqbollari haqida turli tadqiqotlar, maqolalar, hisobotlar va monografiyalarni o'z ichiga oladi. Ushbu adabiyotlar O'zbekiston turizm sohasining o'sishini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha muhim manba bo'lib xizmat qiladi.O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalasiga oid adabiyotlar O'zbekistonning turizm salohiyatini yaxshilash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Adabiyotlarda ko'rsatilgan muammolarni hal etish uchun ishlab chiqilgan strategiyalar va tavsiyalar turizm sohasidagi innovatsiyalarni, xizmat ko'rsatish sifatini, infratuzilmani yaxshilashni va xalqaro aloqalarni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Ushbu asarlar, ayniqsa, turizm sohasida ishlovchi mutaxassislar, davlat organlari va investorlarga muhim yo'nalishlarni ko'rsatib beradi.Turizm ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, joylashtirish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va aholi ijtimoiy muammolarini hal etishda, shuningdek, dam olish, sog‘lomlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mavzuni ko‘pgina qirralari bilan «uzoq xorij» davlatlaridan I.G.Kol, A.Gettner, R.Blanshar, A.Mariotti, V.Unitsiker, Corneliu Iatu, MDH davlatlarida A.YU.Aleksandrova, N.N.Baranskiy, YU.A.Vedenin, S.R.Erdavletov, P.N.Zachinyaev, I.I.Pirojnik, YU.D.Dmitrevskiy, N.S.Mironenko, A.Nizamiev, E.A.Okladnikova, I.T.Tverdoxlebov, N.S.Falkovich va boshqa olimlar izlanishlar olib borgan. Ayni vaqtda, respublikamizda ham turizmning ayrim muammolari bo‘yicha Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, SH.A.Azimov, A.Zokirov, F.Komilova, A.A.Rafiqov, A.Soliev, A.Nigmatov, T.Toshmurodov, B.Husanboev, N.To‘xliev, A.Taksanov, A.Yusupov, R.Xayitboev, N.T.Shamuratova, X.Mamatqulov kabi mutaxassislar shug‘ullangan.

Tadqiqot metodologiyasi:

Ushbu maqolani yozishda tahliliy, empirik, kvantitativ, sistemali va integratsiyalangan yondashuvlar, shuningdek, kompyuter modellari orqali amalga oshiriladigan tadqiqotlar, statistik tahlil va ma'lumotlarni yig‘ish, ijtimoiy-iqtisodiy tahlil, geografik va mintaqaviy tahlil, kross-madaniy tahlil, interdisipliner yondashuv usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar:

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lsa-da, bir qator muammolar ham bor, bu muammolar mamlakatning turizm salohiyatini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu tahlilda O'zbekistondagi asosiy muammolar va ularga qarshi ko'riladigan chora-tadbirlar haqida to'liq va aniq ma'lumotlar taqdim etiladi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda eng katta muammolardan biri bu transport va mehmonxona infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligidir. Mamlakatda ko'plab tarixiy va madaniy yodgorliklar mavjud bo'lsada, bu joylarga tashrif buyurish uchun yetarli darajada qulay transport tizimi yo'q. Shuningdek, turistik joylarga yaqin hududlarda mehmonxona va boshqa turistik xizmatlar infrastrukturasi yetarli emas.

Mamlakatning asosiy turistik hududlarini bir-biriga bog'lash uchun zamonaviy va qulay transport tizimlarini yaratish. Masalan, yangi avtomobil yo'llarini qurish, temiryo'l va avtobus tizimlarini rivojlantirish, samolyot qatnovlarini oshirish zarur.

Yangi zamonaviy mehmonxona komplekslarini qurish, mavjud mehmonxonalarning sifatini oshirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish.

Tarixiy yodgorliklar va tabiiy manzara hududlarida turizm infratuzilmasini kengaytirish, toza suv, elektr energiyasi, axlatni tashish va sanitariya-epidemiologik xizmatlarni yaxshilash.

O'zbekistonning turizm brendi hali to'liq rivojlanmagan. Mamlakatning boy tarixiy va madaniy merosi global miqyosda yaxshi tanilmagan, bu esa turistlarning e'tiborini jalb qilishda qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Turizm marketingi va reklama ishlari ham yetarlicha kuchaytirilmagan.

O'zbekistonda turizmning global brendini yaratish va targ'ib qilish uchun xalqaro marketing kompaniyalarini jalb qilish, mamlakatning tarixiy, madaniy va tabiiy boyliklarini dunyo bo'ylab tanitish.

O'zbekistonning turistik joylari haqida global internet resurslarida, ijtimoiy tarmoqlarda va turizm platformalarida reklama qilish.

O'zbekistonda xalqaro turizm festivallari va ko'rgazmalarini tashkil etish, dunyo bo'ylab turistlarni jalb qilish uchun maxsus tadbirlar o'tkazish.

O'zbekistonga tashrif buyurishni osonlashtirish uchun vizalar tizimi va chegara nazorati soddalashtirilmagan. Ba'zi davlatlardan turistlar uchun vizalarni olish jarayoni murakkab va qimmat bo'lib, bu turistlarning sonini kamayishiga olib keladi. Shuningdek, mamlakatga kirish uchun qo'yilgan cheklovlar va ruxsatnomalar jarayoni ham turistlarni bezovta qiladi.

O'zbekistonning ko'plab davlatlari bilan vizasiz rejimni joriy etish yoki elektron vizalar tizimini kengaytirish. Bu turistlarning tashrifini osonlashtiradi va sayyohlarni ko'proq jalb etishga yordam beradi.

Vizalarni tez va arzon olish imkoniyatlarini taqdim etish, elektron turizm vizalarini joriy qilish.O'zbekistonda turizm sohasida ishlovchi xodimlar soni yetarli, ammo ularning malakasi va xizmat ko'rsatish sifati xalqaro talablar darajasiga yetmagan. Bu, o'z navbatida, turistlarga salbiy taassurot qoldiradi.Turizm sohasidagi xodimlar uchun maxsus o'quv dasturlari va treninglar tashkil etish, xizmat ko'rsatish standartlarini oshirish.Xalqaro turizm sohasida ishlovchi mutaxassislarni jalb qilish va ularning tajribalarini o'ziga moslashtirish.Mehmonxonalarda va boshqa turistik xizmatlarda doimiy sifat nazorati o'rnatish.O'zbekistonda ekoturizm va boshqa yangi turizm yo'nalishlari, masalan, agrar turizm, sog'liqni saqlash turizmi kabi sohalar hali to'liq rivojlanmagan. Mamlakatning tabiiy boyliklari va manzarali hududlari bu turizm turlarini rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega bo'lsada, bu sohada yetarli infratuzilma va xizmatlar mavjud emas.

O'zbekistondagi tabiiy hududlarda ekoturizmni rivojlantirish, milliy bog'lar va tabiatni asrab-avaylash tizimlarini yaratish. Ekologik toza sayohatlar va tabiat bilan yaqindan tanishish imkoniyatlarini turistlarga taqdim etish.

Yangi turizm yo'nalishlarini ishlab chiqish orqli agrar turizm, tibbiy turizm va gastronomik turizm kabi yangi yo'nalishlarni rivojlantirish, bu orqali yangi bozorlarni kashf etish.Turizmni rivojlantirishda iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlikning ta'minlanishi, shuningdek, turizmga qaratilgan siyosatning samarali amalga oshirilishi zarur.Turizm sohasida investitsiyalarni jalb qilish uchun iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash, turizmga aloqador sanoatlar bilan hamkorlikni kengaytirish.Turistlar uchun xavfsizlikni ta'minlash, mamlakatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, kriminal holatlarning oldini olish zarur.

1-Jadval. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari

Muammo	Tavsif	Hal etish yo'llari
1. Infratuzilmaning yetishmasligi	Turizm uchun zarur bo'lgan infratuzilma (yo'llar, aeroportlar, transport tarmog'i) kam rivojlangan.	- Transport va logistika tizimini yaxshilash. - Yangi turistik hududlarda infrastruktura yaratish.
2. Xizmatlar sifati	Mehmonxonalar va xizmatlar	- Xizmat ko'rsatish sohasida

Muammo	Tavsif	Hal etish yo'llari
	sifati ba'zan past bo'ladi, bu esa turistlarning salbiy tajriba olishiga olib keladi.	malaka oshirish. - Turizm xizmatlari sifatini nazorat qilish.
3. Reklama va marketingning sustligi	O'zbekiston turizm salohiyati xalqaro miqyosda yetarlicha reklama qilinmasligi.	- Xalqaro turizm yarmarkalarida ishtirok etish. - Mahalliy va xalqaro reklama kampaniyalarini yo'lga qo'yish.
4. Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish	Tarixiy va madaniy obidalar ba'zan yetarlicha saqlanmaydi va konservatsiya qilinmaydi.	- Madaniy obidalarni saqlash uchun maxsus dasturlar yaratish. - Ekoturizmni rivojlantirish.
5. Huquqiy va iqtisodiy cheklovlar	Turizmni qo'llab-quvvatlash uchun qonuniy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi.	- Turizmga oid qonunlarni takomillashtirish. - Soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlarini joriy etish.
6. Ijtimoiy muammolar	Mahalliy aholining turizmga bo'lgan salbiy qarashlari va ularning turizmga ijobiy munosabatda bo'lmasligi.	- Aholi o'rtasida turizmning foydalari haqida madaniy ma'rifiy ishlar olib borish. - Mahalliy aholini turizmga jalb qilish.
7. Mahalliy va xalqaro hamkorlikning sustligi	Xalqaro turistik tashkilotlar va mahalliy tashkilotlar o'rtasida hamkorlik yetarlicha rivojlanmagan.	- Xalqaro turistik tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish. - O'zaro tajriba almashish va seminarlar tashkil etish.
8. Turist xavfsizligi	Ba'zi hududlarda xavfsizlik masalalari, turizm xavfsizligi uchun zarur infratuzilma yetishmasligi.	- Maxsus xavfsizlik choralarini ko'rish. - Politsiya va xavfsizlik tizimlarini rivojlantirish.
9. Ekologik muammolar	Ekologik barqarorlikka e'tibor yetarli darajada qaratilmagan, tabiatni ifloslantirish holatlari mavjud.	- Ekoturizmni rivojlantirish va tabiatni muhofaza qilish dasturlarini amalga oshirish.

Ushbu jadvalda O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari keltirilgan. Har bir masalani tizimli ravishda hal etish uchun davlat va jamiyat o'rtasida samarali hamkorlik talab etiladi.

Xulosa:

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va tabiiy go'zalliklari bilan jahon turizmida o'z o'rnini topish uchun katta imkoniyatlarga ega. Biroq, turizmni rivojlantirishda bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolar quyidagi asosiy yo'nalishlarda ifodalangan:

Infratuzilmaning etishmasligi: Turizmning samarali rivojlanishi uchun zarur bo'lgan transport va kommunikatsiya infratuzilmasi rivojlanmagan. Bu esa turistlarning komfortli va qulay sayohat qilish imkoniyatini cheklaydi.

Xizmatlar sifati: Mehmonxonalar va turistik xizmatlar ba'zan xalqaro standartlarga javob bermaydi, bu esa turistlarning salbiy fikrlarini keltirib chiqaradi.

Reklama va marketingning sustligi: O'zbekistonning turistik salohiyatining yetarli darajada reklama qilinmasligi xalqaro miqyosda turistlar oqimini jalb qilishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish: Tarixiy va madaniy obidalar ba'zan noto'g'ri saqlanadi yoki saqlash uchun etarlicha resurslar ajratilmaydi.

Ijtimoiy va iqtisodiy cheklovlar: Turizmni rivojlantirish uchun yetarlicha huquqiy baza yo'qligi, soliq imtiyozlari va moliyaviy ko'maklarning etishmasligi sektorning o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Xavfsizlik masalalari: Turistlarning xavfsizligi masalalari, ayniqsa ayrim hududlarda muhim ahamiyatga ega. Xavfsiz turizm muhitini yaratish muhim.

Ekologik muammolar: Turizmning ekologik salbiy ta'sirlari, ayniqsa tabiatni ifloslantirish va tabiiy resurslarning noto'g'ri ekspluatatsiyasi bilan bog'liq muammolar mavjud.

Takliflar:

Infratuzilmani yaxshilash:

Transport tarmoqlarini modernizatsiya qilish, aeroportlar va temir yo'llarni kengaytirish va yangilash.

Kichik va o'rta shaharlarga qulay transport yo'llarini yaratish, avtobuslar va taksi xizmatlarini yaxshilash.

Turistik hududlarga yo'l harakati xavfsizligini oshirish, turistlar uchun qulay yo'llar va xizmatlarni taqdim etish.

Xizmatlar sifatini oshirish:

Mehmonxona va turistik xizmat ko'rsatish sohasida xalqaro standartlarga moslashtirish va xodimlarni malakasini oshirish.

Turistlarga yuqori sifatli xizmatlarni taqdim etish uchun mehmonxona tarmog'ini kengaytirish va diversifikatsiya qilish.

Turizm sohasi uchun malakali menejerlar va mutaxassislarni tayyorlash.

Reklama va marketingni kuchaytirish:

O'zbekistonning turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib qilish uchun yirik turizm yarmarkalarida ishtirok etish.

Onlayn platformalar orqali turizmni reklama qilish, o'zbekistonlik va xalqaro turizm agentliklari bilan hamkorlik o'rnatish.

O'zbekistonning turistik resurslarini targ'ib qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda faoliyatni kuchaytirish.

Madaniy merosni saqlash va rivojlantirish:

Tarixiy va madaniy obidalarni konservatsiya qilish va saqlash uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish.

Madaniy merosni turizmga moslashtirish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash va mahalliy aholi bilan hamkorlikda obidalarni saqlash.

Ekoturizmni rivojlantirish orqali tabiiy resurslarni saqlab qolish va ekologik barqarorlikni ta'minlash.

Huquqiy va iqtisodiy muammolarni hal etish:

Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari va subsidiya dasturlarini joriy etish.

Yangi turizm qonunlari va normativ hujjatlarni ishlab chiqish, turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan hukumat siyosatini mustahkamlash.

Turizmni rivojlantirish uchun ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash, xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish.

Xavfsizlikni ta'minlash:

Xavfsizlikni ta'minlash uchun maxsus tizimlar yaratish, turistlar uchun xavfsizlik ko'rsatmalarini ishlab chiqish.

Mahalliy politsiya va xavfsizlik tizimlarini turizm hududlarida yaxshilash va maxsus xavfsizlik choralarini ko'rish.

Turistlar bilan ishlov berish bo'yicha maxsus kurslar va seminarlar tashkil etish.

Ekologik turizmni rivojlantirish:

Ekoturizmni rivojlantirish uchun tabiatni muhofaza qilish dasturlarini amalga oshirish.

Turizm sohasidagi ekologik ta'sirlarni kamaytirish, resurslardan oqilona foydalanish va barqaror turizmni rivojlantirish.

Mahalliy aholini ekologik muammolar haqida ma'rifatlash va turizmning ekologik foydalarini targ'ib qilish.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning turizm sohasini rivojlantirish uchun bir nechta asosiy sohalarda islohotlar va yaxshilanishlar amalga oshirilishi kerak. Agar yuqorida keltirilgan takliflar tizimli ravishda amalga oshirilsa, O'zbekiston jahon turizmida yetakchi o'rinlardan birini egallashi mumkin. Bunda davlat, xususiy sektor va jamiyat o'rtasida samarali hamkorlik muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil

istiqbollariga bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so‘zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-yanvardagi «Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-104-sonli Qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-fevraldagi «Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-75-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-apreldagi «Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-232-sonli Qarori.

5.Tirkashyev, F. (2023). Intellektual mulkni boshqarish jarayonlarni o ‘rganishning nazariy muammolari.

6.Tirkashev, F., & Musurmonov, N. (2024). Global iqtisodiy rivojlanish sharoitida yashil iqtisodiyot muammolari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

7.Tirkashev, F., & Toshpulatova, K. (2024). “Yashil” iqtisodiyot: konsepsiyaning shakllanishi va asosiy kategoriyalari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

8.Tirkashev, F., & Zarmaxmatov, N. (2024). Raqamli iqtisodiyotning zamonamizdagi bugungi o ‘rni. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

9.Tirkashev, F., & Xo‘jaqulov, I. (2024). Jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdo munosabatlari. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

10.Tirkashev, F., & Raxmatullayev, S. (2024). Davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishda klasterlarning ahamiyati. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

11.Xamdamova, N., Tirkashev, F., Sayfullayev, A., & Erkinov, S. (2024). Chorvachilikning mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyati va uning rivojlanishi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, *2*(1).

SAYTLAR

1.www.lex.uz

2.www.stat.uz

3.www.tour.uz

4.www.UNWTO/report/2018

JALOLIDDIN MANGUBERDI -SO’NGGI QAHRAMON

Sanakulova Nilufar Aktamkulovna
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Samarqand filiali. Tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

Jaloliddin Manguberdi-O’zbek xalqining milliy qahramoni,mo’g’ullarga qarshi mardonavor kurash olib brogan sarkarda va davlat arbobi. U Xorazmshohlar davlatining so’nggi hukumdori.Mo’g’ullar istilosiga qarshi mardonavor kurashgan jasur jangchi. Uning vatanparvarligi bilan faxrlansak arziydi.

Jaloliddin Manguberdi 1198-yilda Xorazmda tug’ilgan bo’lib,uning otasi-Xorazm shohi Alouddin Muhammad II,onasi esa qipchoq malikasi Oychechak bo’lgan. Jaloliddin harbiy muhitda ulg’aygani sababli bolaligidanoq harbiy bilmlarni puxta egallaydi. G’azna viloyati Jaloliddinning qaramog’ida bo’lishiga qaramay,otasi og’lini o’zini oldida ushlab turadi. Shunga qaramay yosh Jaloliddin dushmanlar bilan tinimsiz janglar bo’lib turadigan chegaraga chiqishga harakat qiladi.

1219-yili Chingizxon boshchiligidagi mo’g’ullar Xorazmshohlar davlatiga hujum qildi.Jiddiy xastalangan Alouddin Muhammad II mo’g’ullar hujumini qaytara olmay,mamlakatni tashlab ketishga majbur bo’ladi va Kasbiyga qochadi. Uchta o’g’lini to’playdi,Jaloliddinning beliga o’z shamshirini osib,uni taxt vorisi etib tayinlaydi va 1220-yilda Kasbiy dengizi sohillarida vafot etdi. Muhammadning o’limidan so’ng Jaloliddin taxtga o’tiradi.

Jaloliddin Manguberdi esa otasidan farqli ravishda qochishni emas,kurashni tanlaydi.U o’z atrofiga uch yuz kishidan iborat sodiq turkman yigitlarini to’playdi va mo’g;ullarga qarshi kurash boshlaydi.Bu jangda u o’zining harbiy strategiyasini va taktik mahoratini namoyish etib yeti yuz kishilik mo’g’ul qo’shinini osonlikcha yengadi.

Biroq,Parvon jangidan so’ng Chingizxonning o’zi Jaloliddinga qarshi yurish qiladi. Hal qiluvchi jang 1221-yilning 9-dekabr kuni Sind daryosi bo’yida ro’y beradi. Ushbu jangda Jaloliddin qattiq mag’lubiyatga uchradi,biroq u mo’g’ullar qo’liga tushmaslik uchun o’z haramini daryoga cho’ktirishni amr etadi.So’ngra,asir tushmaslik uchun tulpori bilan o’zini Sind daryosiga tashlaydi va daryodan suzib o’tishga muvaffaq bo’ladi.Chingizxon uning bu jasoratiga qiyil qolib,o’g’illariga:”Otadan shunday o’g’il tug’ilsa edi!” deya ta’kidlagan.

Jaloliddin Manguberdi Sind daryosidan o’tib,Hindistonga yo’l oldi. Bu yerda o’z qo’shinini tiklab,yana bir bor Xorazmni ozod etish uchun harakat boshladi.U 1224-yilda Eron va Iroq hududlariga qaytib kelib,yangi yurishlarni boshladi.1228-yili u Ozarbayjon va Kavkaz hududlarini egalladi va mo’g’ullarga

qarshi yangi ittifoqlar tuzishga harakat qildi.1230-yilda Saljuqiylar bilan bo’lgan jangda zaiflashib qoldi. Mo’g’ullar esa bu vaziyatdan foydalanib, unga yana hujum qildi.Mo’g’ullar bilan bo’lgan jangda Jaloliddin qattiq yaralanadi.Nihoyat,1231-yilda JaloliddinManguberdi Kurdiston tog’larida mahalliy qabilalar tomonidan o’ldirildi.

Jaloliddin Manguberdi o’z hayotini vatan himoyasi va ozodligi yo’lida fido qilgan mard sarkarda edi.U mo’g’ullar istilosiga qarshi hech qanday yordam olmagan holda kurashdi va so’nggi nafasigacga taslim bo’lmadi.

Bugungi kunda Jaloliddin Manguberdi o’zbek xalqining milliy qahramoni sifatida e’tirof etiladi.Uning nomi shon-sharaf bilan tilga olinadi,xotirasiga haykallar o’rnatilgan va u haqida tarixiy asarlar yozilgan. Jaloliddin Manguberdi- jasorat va mardlik timsoli uning hayoti va jasorati kelajak avlodlar uchun ibrat bo’lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Qayumov A.”Jaloliddin Manguberdi”-Toshkent,”O’zbekiston”,1999.

2.Aminov Z.”Xorazmshohlar tarixi”-Toshkent,2005.

3.Xayrulla Ismatullayev.”Jaloliddin Manguberdi-milliy qahramon”-Toshkent,2017.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA CHET TILLARINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Sayidova Gulchiroy Nekboyevna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Turizm fakulteti Maktabgacha va boshlang‘ich
ta’limda xorijiy til (ingliz tili) yo‘nalishi 23-2 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Tulyaganova Nargiza Farxadovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xususan, raqamli qurilmalarning dars jarayonlaridagi ahamiyati va o‘quvchilarning bilim olishidagi o‘rni haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ta’lim, pedagogik texnologiya, raqamli qurilma, dars, metod, ingliz tili, innovatsion yondashuv, ta’lim samaradorligi*.

Bugungi rivojlanib borayotgan dunyo hamjamiyatida til o‘rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy jamiyatda chet tillarini bilish turli

sohalardagi mutaxassisliklarda ish ko‘lamining sifat va miqdor jihatidan o‘sishiga sabab bo‘lmoqda. Chet ellik olimlar, soha mutaxassislari bilan hamkorlik ishlari, hamda tajribalar almashish jarayonlarida chet tillari, xususan, ingliz tilini bilishning ahamiyati katta. Hozirda, mamlakatimizda chet tillari maktabgacha ta’lim, maktab, kollej, litsey va oliy ta’lim muassasalarida o‘rgatilmoqda. Chet tillarini bilgan o‘quvchi yoshlar uchun esa turli imkoniyatlar, shart-sharoitlar yaratilgan. Misol uchun milliy yoki boshqa turdagi til sertifikatiga ega bo‘lgan o‘quvchi yoshlarga ma’lum miqdorda pul mablag‘lari o‘quv muassasalari yoki davlat tomonidan ajratilib berilmoqda. Undan tashqari turli darajadagi til bilimiga ega bo‘lmoqchi bo‘lgan o‘quvchi yoshlar uchun turli o‘quv materiallari va zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlangan o‘quv xonalari tizimli ravishda, bosqichma-bosqich tashkillashtirilib berilmoqda. Shuningdek, malakati chet tili o‘qituvchilari axborot texnologiyalari, hamda zamonaviy o‘qitish metodlaridan foydalangan holda o‘quvchilarning yangi bilimlarini egallashlari uchun yordam berishyapti[1].

O‘rta umumta’lim maktablarida chet tillarini o‘qitish majburiy o‘quv predmetlari qatoridan o‘rin olgan va bolalarning bilim olish darajalariga binoan bosqichma bosqich o‘rgatiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda yosh va shaxs xususiyatlari, xotira, diqqat, idroki hisobga olingan holda darslar tashkillashtiriladi. Yosh bolalarning ko‘rish va eshitish xotiralari yaxshi rivojlanganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularga ko‘rgazmali qurollar, video darsliklar bilan yangi narsalarni tushuntirish va o‘rgatish ancha muncha osonligini ko‘ramiz. Bunday hollarda esa bizga zamonaviy texnologiyalarning ko‘magi katta. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanib, o‘quv-metodik adabiyotlar tizimini yaratish va o‘quv jarayonlarida qo‘llash zamon talabiga aylanib qolgan. Butun dunyoda elektron axborot ta’lim resurslarini yaratish va undan foydalanish ommalashib ketdi. Sababi bunday ma’lumotlardan foydalanish qog‘ozli ma’lumotlarga qaraganda bir qancha qulayliklar va afzalliklarga ega:

1. Butun ma’lumotlar ichidan kerakli qismini tez topib olish;
2. Lozim bo‘lganda uni tez tahrirlash va yangilash;
3. Internet orqali ma’lumotlarni boshqalar bilan almashish;
4. Elektron kutubxona yaratish;
5. Soha mutaxassislari bilan masofadan turib bemalol fikr almasha olish.

Yuqoridagi qulayliklarni hisobga olgan holda[3], 2021 – yil 6- may kuni o‘tkazilgan videoselektrda mamlakatimiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti keldi. Biz raqobatdosh

davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, kollej, litsey va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”, degan ta’kidlari sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Shundan so‘ng chet tili darslarining o‘tilishi jarayonida kerak bo‘ladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, innovatsion va interfaol usullardan, shuningdek, axborot kommunikativ vositalaridan foydalanish urfga aylandi. Ushbu talablarga mos ravishda o‘quv xonalari tashkillashtirildi.

Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘quvchilari texnologiyalar bilan birga ulg‘ayishyapti. Ular erta bolalik davridan boshlab eng so‘nggi qurilmalarning qanday ishlashini o‘rganib kelishyapti. Natijada, ular uchun raqamli qurilmalar bilan ishlash juda qulay. Shuning uchun dars o‘tish jarayonida o‘qituvchilar bolalarning qiziqishlarini orttirish uchun texnologiyalardan foydalanishlari maqsadga muofiq. Turli texnologiyalarni ta’lim sohasiga olib kirilganligiga hali ko‘p vaqt bo‘lganligiga qaramay, ularning samaradorligi ko‘zga yaqqol tashlanib turibdi. Bugungi kunda boshlang‘ich sinflarni raqamli texnologiyalar bilan ta’minlash ishlari ta’lim sohasida olib borilayotgan tajribalarning asosiy qismi hisoblanadi[2]. “Explorance” jurnalining ma’lumotlariga ko‘ra, innovatsion texnologiyalar zamonaviy sinflarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bunda zamonaviy texnologiyalar o‘quvchi yoshlarga raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini va eng ilg‘or texnologiyalar bilan ishlash malakasini oshirishga imkon beradi. Shuningdek, boshlang‘ich sinf muhitida texnologiyalardan foydalanish nihoyatda foydali bo‘lishi mumkin deb ta’kidlangan. Raqamli vositalarni boshlang‘ich sinflarga tadbiq etishning ba’zi afzalliklari haqida ham eslatib o‘tilgan.

1. O‘quvchilarga texnologiya va raqamli savodxonlik ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam berish
2. O‘quvchilarga yangi mavzular va tushunchalar bilan shug‘ullanishning qiziqarli usullarini taqdim etish
3. O‘quvchilar taraqqiyotini yanada shaffofroq tarzda kuzatish
4. Ota – onalar vas inf hamjamiyatini kuchaytirish uchun sinfda sodir bo‘ladigan tadbirlar, voqea – hodisalarni hujjatlashtirish

Bugungi kunda texnologik vositalardan foydalanish chet tilini o‘rganishning o‘qish, tinglab tushunish va gapirish bosqichlarida qo‘l keladi. Dars mavzusiga oid multimedia, animatsiya, grafika, diafilm va videofilmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo‘lishiga ko‘mak beradi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘quvchisiga biron bir mavzu video darslik orqali tushuntirilsa, o‘sha mavzuni kitob yoki qog‘ozli ma’lumotlar bilan tushuntirilganligidan ancha

tez va oson o‘rganib, yodlab oladi. Bolaning ko‘rib, eshitib eslab qolish qobiliyatining ustunligini ushbu misolda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Globallashuv jarayonida hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Internet hayotimizning har bir jabhasini egallab olgan desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunonchi, chet tilini o‘rgatish va o‘rganish jarayonlarida internetdan unumli foydalanish eng samarali usul bo‘lishi mumkin. Internetda til o‘rganish bo‘yicha juda katta ma’lumotlar bazasi mavjud bo‘lib, ular har bir bosqich va hattoki yosh xususiyatlariga mos ravishda ham tuzilgan. Faqatgina to‘g‘ri va ishonchli ma’lumot topib ularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga taqdim eta olish o‘qituvchining pedagogik mahorati va malakasiga bog‘liq. Turli usullarni birlashtirib o‘qituvchi muayyan ta’lim dasturini tuzish imkoniyatiga ega. Bunda o‘qitishning bir nechta metodlaridan, xususan raqamli texnologiyalardan foydalanishi samarali natija beradi. [4]O‘qituvchilar ta’lim sohasi uchun yaratilgan quyidagi ilovalardan foydalangan holda, dars mobaynida interaktiv va qiziqarli usullarni taqdim etishlari mumkin:

- Quiz va Kahoot. Viktorina va baholashlar uchun;
- Google Classroom. Topshiriqlar va aloqalarni boshqarish uchun;
- ClassDojo. O‘quvchilarning xulq-atvorini tekshirish va motivatsiya berish uchun.

Ushbu dasturlar o‘qituvchiga o‘quvchilarni nazorat qilish, baholash va barcha o‘quvchilarni dars jarayoniga jalb qilishga ko‘maklashadi. Bunday ta’limiy dasturlar o‘quvchilarning o‘z ustlarida ishlashiga turtki bo‘ladi va muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

Bugungi kunda innovatsion ta’lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud. Ulardan darslarda mavzuni yoritishda keng foydalanilsa, darsning samaradorligi bir necha barobar ortadi va o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishlarining ortishiga ham yordam beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga chet tillarini o‘qitishda turli rolli, harakatli o‘yinlardan foydalanib dars o‘tish ham til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarining ortishida sabab bo‘ladi. Chet tilini o‘rgatishda innovatsion texnologiyalar bilan bir qatorda grafik organayzerlardan foydalanib, mavzuga oid yangi so‘zlarni, grammatik qoidalarni tushuntirib berish maqsadga muofiq. Grafik organayzerlar orqali tushuntirib berilsa, yodda saqlab qolish ham oson bo‘ladi. Ta’limda pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati o‘quvchilarni qiziqtirib o‘qitish va bilimlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga yordam berishdir. Eng so‘nggi zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlangan sinf xonalarida ta’lim olgan o‘quvchilarning jahon talablariga mos kadrlar bo‘lib yetishish imkoniyatlari ortadi. Chunki, innovatsion texnologiyalar chet tillarini o‘qitish jarayonini sezilarli darajada boyitadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishim kerakki, innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasidagi ahamiyati juda katta. Raqamli qurilmalar yordamida o‘qitish va o‘rganish qog‘ozli ma’lumotlar bilan ishlashdan anchagina samaraliroq. Bunda tayyor ma’limotlar bazasidan foydalangan holda dars o‘tish o‘qituvchiga ancha yengilliklar va qulayliklar beradi. Shuningdek, o‘qituvchilar boshqa qo‘shimcha pedagogik yondashuvlar va usullardan foydalanishga o‘z ustlarida ko‘proq shug‘ullanishlari uchun ham yetarlicha vaqtga ega bo‘ladilar. Raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning jahon standartlariga mos kadrlar bo‘lib yetishishiga turtki bo‘ladi va ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatlariga ham ta’sir qiladi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Xodjayeva, M. Qahhorova “Chet tilini o‘qitish metodikasi”. Fan va texnika nashriyoti. Toshkent. 2013
2. “Innovations in Education Integrating Technology in Elementary Education program”//www. ucumberlands. edu
3. “Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish metodologiyasining ahamiyati”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent. 2021.
4. “Integrating Technology in Elementary Education”//www.ucumberlands.edu

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO‘JALIGINI ZAMONAVIY SUV TEJAYDIGAN TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

Baymirzayev Baxodirjon Ulug'bek o'g'li
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va Tadbirkorlik Oliy maktabi magistratura tinglovchisi 2-kurs MBA-22-B01 guruh

Annotatsiya: *Maqolada bir qancha global muammolar asnosida respublikamiz hududidagi daryolar sathining kamayishi, sug 'oriladigan yerlarda suv tanqisligining kuzatilishi sababli qishloq xo'jaligini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun tomchilatib, yomg'irlatib va diskretli sug'orishlarni aniq keltirilganprognozik faktlar asosida o 'rganilgan. Respublikamiz hududida o 'rganishlar natijasida 430000 ga yerdan 210739 ga yer hududini tomchilatib sug'orish zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalari*

ishida eng maqbul usuli ekanligi aniqlangan, bu taxminan 50% ni tashkil qiladi va Respublikamiz hududida tomchilatib sug'orishni keng miqyosda joriy etilishi kerak ekanligini dalolat beradi.

Kalit so'zlar: *tomchilatib, yomg 'irlatib, zamonaviy suv tejaydigan texnologiya, suv, sug'orish, qishloq xo'jaligi.*

Kirish

Dunyo davlatlarida texnika-texnologiyalaming rivojlangan sari uning ortidan kattagina mashtabdagi global muammolarni ham o'zi bilan hamroh qilib kelmoqda. Maslan, yirik ishlab chiqarish metallurgik, kimyo-sanoati va oddiy avtomobillardan chiqadigan gazlar ortidan global isish tufayli tog'li regionlarda muzliklarning chegarasining erish natijasida qisqarishi, ular hajmining kamayishi yaqin 20 yilda daryolar oqimi, hususan, respublikamiz hududidan oqib o'tuvchi daryolar, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonga quyiladigan suvlarning 30-40% ga qisqarishi mumkin bo'lib, mintaqaga jiddiy muammolar tug'dirishi, qurg'oqchilik yillarda Amudaryoning quyi qismida suv minyeralizatsiyasining o'rtacha yillik miqdori 1,5-2 martaga ortishi mumkin.

XX asir oxiriga kelib O'zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, maksimal haroratning o'sish sur'ati yiliga 0,20-0,23 darajaga, minimal esa minus 0,3-0,4 darajani tashkil qildi. Shunga asoslangan holda, 20 yildan keyin respublikamiz vohalarida o'rtacha yillik harorat 2-4 darajaga va vodiy hamda janubiy qismda esa 1-2 darajaga ortadi.

Iqlim o'zgarishi natijasida suv yuzalaridan suvning bug'lanish ko'rsatkichi 1617% gacha, o'simliklar transpiratsiyasi va sug'orish me'yorlarining ortishi tufayli suvning 20-25% dan ko'prog'i sarflanishiga olib keladi. Bu esa suvning tiklanmay iste'mol qilinishini o'rta hisobda 18-20% ga ortishiga olib keladi. Bu, shubhasiz, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining keyingi o'sishini qiyinlashtiradi.

Maqolaning kirsh qismida keltirilgan global muammolarni asnosida Respublikamiz Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PQ-4919-son qabul qilingan qarorlarida keltirilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanib hozirgi kunda iqtisodiy jihatdan maqbul bo'lgan suvni tejaydigan texnologiyani o'rganib

raqamlar asosida tahlil qilamiz va asoslaymiz. Respublikamizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga alohida e'tibor qaratildi, hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotganligi natijasida 2020-yilning o'zida qo'shimcha 133 ming gektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. Biroq, tobora kuchayib borayotgan suv taqchilligi hamda suv resurslariga bo'lgan ehtiyoj o'sib borayotgani qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish samaradorligini keskin oshirishni talab etmoqda. Shu boyizdan Respublikamiz Prezidentining 2020 yil 11 dekabrda PQ-4919-son qarori qishloq xo'jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish

mexanizmlarining samaradorligini oshirish, sug'oriladigan maydonlar suv bilan barqaror ta'minlanishiga erishish maqsadida, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda sug'orishning zamonaviy texnologiyalar tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlarini hamda emi lazerli uskuna yordamida tekislagan holda diskretli sug'orish usulini joriy qilish sur'atini besh barobarga oshirish, ya'ni 2021-2022 yillar oralig'ida 230 ming gektar maydonda mazkur texnologiyalarni joriy qilish hamda sug'oriladigan 200 ming gektar maydonlarni lazerli uskuna yordamida tekislash orqali suvdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha reja ishlab chiqilgan. So'nggi yillarda yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suv xo'jaligi ob'ektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, global iqlim o'zgarishi, aholi sonining va iqtisodiyot tarmoqlarining o'sishi, ularning suvga bo'lgan talabi yil sayin oshib borishi tufayli suv resurslarining taqchilligi yildan-yilga kuchayib bormoqda. Foydalanilgan o'rtacha yillik suv miqdori 51 — 53 mlrd kub metrni, jumladan, 97,2 foizi daryo va soylardan,1,9 foizi kollektor tarmoqlaridan, 0,9 foizi esa yer ostidan foydalanib, ajratilgan suv olish limitiga nisbatan 20 foizga qisqargan.

Respublikada 2020 — 2030 yillarda aholini va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv bilan barqaror ta'minlash, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, suv xo'jaligiga bozor tamoyillari va mexanizmlarini hamda

raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, suv xo'jaligi ob'ektlarining ishonchli ishlashini ta'minlash hamda yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan kontseptsiyani ishlab chiqilishi aynan suv xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasidir.

Ayniqsa bugungi suv tanqisligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilishni yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag'batlantirish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalb qilish masalalarini amalga oshirish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Ma'lumki, iqlim o'zgarishi O'zbekistonda suv taqchilligini yanada keskinlashtirishini, 2000, 2008, 2011, 2014 va 2018 yillardagi kabi qurg'oqchilikning davomiyligi va davriyligi ko'payishiga olib kelishini hamda iqtisodiyotning suv resurslariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda jiddiy qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Keyingi 15 yil ichida aholi jon boshiga suv ta'minoti 3 048 kub metrdan 1 589 kub metrga qisqardi. Shu bilan birgalikda, respublikada aholi soni yiliga o'rtacha 650 — 700 ming nafarga oshib, 2030 yilga borib 39 mln nafarga yetishi, ularning sifatli suvga bo'lgan talabi 2,3 mlrd kub metrdan 2,7 — 3,0 mlrd kub metrga (18 — 20 foiz) yetishi kutilmoqda.

Shu nuqtai nazardan suvtejamkor texnologiyalardan foydalanishda xorijiy tajribalarning ahamiyatli jihatlarini ayrim davlatlar misolida ko'rib chiqamiz va uni mamlakatimizning sug'oriladigan yerlarida foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar beramiz.

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish borasida Turkiya tajribasi alohida ahamiyatga molikdir. Xususan, Turkiyaning o'rtacha yillik suv resurslari 180-190 milliard kubometrni, yer osti suvlari esa 10-15 milliard kubometrni, jami suv resurslari esa 200 milliard kubometrni tashkil qilsa-da, uning faqatgina 30-35 mlrd. m3 (15 foizi) ishlatiladi. Shundan oqova suv resurslari 25-26 mlrd. m3 va yer osti suvlari resurslar 5-6 mlrd. m3.

Turkiya iqlimi qishloq xo'jaligi uchun juda ko'p qulayliklar yaratadi va bu barcha turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Ammo qishloq xo'jaligi tarmog'i yaxshi rivojlanmagan, masalan, katta imkoniyatlar mavjud bo'lgan sharoitda asosiy qishloq ho'jaligi ekini bo'lgan g'allaning o'rtacha hosildorligi 21 tsentnerni tashkil qiladi va aholi jon boshiga yetishtiriladigan go'sht miqdori o'rtacha 18 kg tashkil qiladi.

Xitoy davlatining haydaladigan yer maydoni 100 mln. gektar bo'lib, shundan 50 mln. gektari sug'oriladigan yerlar hisoblanadi. Yillik yog'ingarchilik miqdori o'rtacha 1200 mm.ni tashkil qiladi yoki har gektar yerga 12 ming kubometr suv zahirasi to'g'ri keladi. Bu yerda sug'orish ishlari uchun bir yilda o'rtacha 400 mlrd. kubometr suv ishlatilib, o'rtacha bir gektar maydonga 7,1 ming kubometr suv zaxirasi to'g'ri keladi. Xitoydagi yirik suv xo'jaligi tizimlaridan biri Xuanxe daryosi asosida faoliyat yurituvchi majmuadir. Majmuaning uzunligi 252 kilometr bo'lib, u 460 ta suv inshootlari, 13 ta dyukerni o'z ichga oladi. Bu yerda suv daryodan 40 metr balandlikka ko'tarib beriladi. Bugungi kunda Xitoy suv xo'jaligi vazirligi suvdan foydalanish borasida katta huquqlarga ega bo'lib, mamlakatda suv xo'jaligi bo'yicha alohida militsiya tizimi ham tashkil qilingan va bu suvdan foydalanish jarayonini nazorat qiladi. Amerika Qo'shma Shtatlarida 1960 yillarning boshida Richard Xapin tomonidan "Shudringli shlang" nomi (boshqa nomi "spagetti quvuri") bilan tomizgichli lenta ishlab chiqildi va uning birinchi namunasi 1964 yilda amaliyotga joriy qilindi. Bunday shlanglar asosan daraxtlarni va issiqxonalarda yetishtiriladigan gullarni sug'orish uchun keng joriy qilindi.

Tomchilatib sug'orish tizimlaridan foydalanish 1980 yildan keyin ayniqsa kuchaydi va 2000 yilga kelib dunyo miqyosida tomchilatib sug'orish tizimlari joriy qilingan ekin maydonlari 3,2 mln. gektardan ortib ketdi. AQShning Xavay orollarida qiyalik maydonlarda shakarqamish yetishtirishda egatdan sug'orish usulini qo'llash mumkin bo'lmaganligi bois fermerlar yomg'irlatib sug'orishdan foydalanishgan va katta qiyinchiliklarga duch kelishgan. Tomchilatib sug'orish

yaxshi samara berishi aniqlangandan so'ng esa Xavaydagi 11 shakarqamish plantatsiyasi 1986 yilda to'laligicha tomchilatib sug'orishga o'tkazilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy davlatlarda sug'orish texnologiyasini takomillashtirishga katta ahamiyat berilgan. Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning har bir melioratsiya va suv xo'jaligi bo'yicha o'z tarixiy an'analariga, suv resurslariga bo'lgan ehtiyojiga, iqtisodiyotning rivojlanish yo'liga, sug'orish tarixiga egadir va ular bir - biridan farq qiladi. Suvdan foydalanish yo'nalishlari ularda, asosan, davlatning taraqqiyot darajasiga qarab belgilangan.

Mamlakatimizda, suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilish, bunda davlat tomonidan yaratilayotgan qulayliklardan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- ❖ suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish, suvdan foydalanish va suv iste'moli hisobini yuritishda «Smart Water» («Aqlli suv») va shu kabi raqamli texnologiyalarni joriy qilish;
4. Ortiqboy, S. S., & Makhsudali, J. (2022). A Desire Sung in a Pattern. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN.

5.O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil.

6 . "Ilm yo'li" variativ dasturi. Toshkent "Sano-standart" 2020 yil.

7. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakk^" Nashriyoti Toshkent - 2019

8. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.

КОММУНИКАЦИЯ КАК НЕОТЪЕМЛЕМАЯ ЧАСТЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Раупова Нодира Абдирахим Кизи
Студентка Шахрисабзкого государственного педагогического института

Аннотация: *Данная статья посвящена роли коммуникации как неотъемлемой части педагогической деятельности учителя. В работе рассматриваются основные аспекты взаимодействия между учителем и учениками, анализируются методы эффективной коммуникации в образовательном процессе и их влияние на качество обучения. Особое внимание уделяется психологическим и социальным аспектам общения, а также современным подходам к развитию коммуникативных навыков учителя. Исследование основано на анализе научной литературы и практических наблюдений.*

Ключевые слова: *коммуникация, педагогическая деятельность, учитель, ученик, образовательный процесс, взаимодействие, коммуникативные навыки.*

Введение

Современное образование требует от учителя не только глубоких знаний предмета, но и высокого уровня коммуникативных навыков. Коммуникация является основой педагогической деятельности, так как именно через общение происходит передача знаний, формирование ценностей и развитие личности ученика. Эффективная коммуникация способствует созданию благоприятной образовательной среды, повышению мотивации учащихся и улучшению качества обучения. Цель данной статьи – рассмотреть роль коммуникации в педагогической деятельности учителя, проанализировать методы ее совершенствования и предложить практические рекомендации для улучшения взаимодействия между учителем и учениками.

Обзор литературы

Вопросы коммуникации в образовании активно изучаются многими исследователями. Так, Л.С. Выготский подчеркивал важность социального взаимодействия в процессе обучения, считая его ключевым фактором развития мышления и речи ребенка. А.В. Петровский и М.И. Рожков рассматривают педагогическое общение как сложный процесс,

включающий вербальные и невербальные компоненты. Современные авторы, такие как И.А. Зимняя и Е.И. Пассов, акцентируют внимание на необходимости развития коммуникативной компетентности учителя в условиях меняющегося общества. Анализ литературы показывает, что коммуникация в педагогике – это многогранный феномен, требующий комплексного подхода к его изучению.

Методология исследования

В ходе исследования использовались следующие методы:

1. **Теоретический анализ** научной литературы для выявления основных аспектов коммуникации в педагогической деятельности.
2. **Наблюдение** за взаимодействием учителей и учеников в учебном процессе.
3. **Опрос** учителей и учащихся для выявления их мнений о роли коммуникации в обучении.
4. **Сравнительный анализ** различных подходов к развитию коммуникативных навыков учителя.

Анализ и результаты

Коммуникация является неотъемлемой частью педагогической деятельности учителя, поскольку именно через общение происходит передача знаний, формирование ценностей, развитие личности ученика и организация образовательного процесса. Эффективная коммуникация способствует созданию благоприятной атмосферы в классе, повышению мотивации учащихся и достижению высоких образовательных результатов. В данной части работы мы подробно рассмотрим функции коммуникации в педагогической деятельности, принципы ее построения, трудности, с которыми сталкиваются учителя, а также пути их преодоления.

Функции коммуникации в педагогической деятельности

Коммуникация в образовательном процессе выполняет несколько ключевых функций, каждая из которых играет важную роль в успешности обучения и воспитания.

1. **Образовательная функция**

Образовательная функция коммуникации заключается в передаче знаний, умений и навыков от учителя к ученику. Это основная цель учебного процесса, и именно через эффективное общение учитель может донести сложные концепции до учащихся, сделать материал доступным и понятным. Например, использование метафор, аналогий или наглядных примеров помогает ученикам лучше усвоить информацию. Однако важно помнить, что образовательная функция не ограничивается только передачей

информации – она также включает обратную связь, которая позволяет учителю оценить, насколько хорошо ученики поняли материал.

2. **Развивающая функция**

Коммуникация стимулирует познавательную активность учащихся и способствует развитию их творческого мышления. Учитель, задавая открытые вопросы, организуя дискуссии или групповые проекты, побуждает учеников к размышлению, анализу и самостоятельному поиску решений. Развивающая функция особенно важна в современном мире, где критическое мышление и способность адаптироваться к новым условиям становятся ключевыми компетенциями. Например, интерактивные методы обучения, такие как ролевые игры или проблемное обучение, активно развивают интеллектуальные и социальные навыки учащихся.

3. **Воспитательная функция**

Через коммуникацию учитель формирует у учеников систему ценностей, норм и правил поведения. Это происходит как на уровне словесного воздействия (например, объяснение важности честности, ответственности), так и на уровне невербального поведения (например, демонстрация уважения к мнению других). Воспитательная функция коммуникации особенно важна в начальной школе, когда дети активно перенимают модели поведения от взрослых. Однако и в старших классах учитель остается значимым авторитетом, влияющим на формирование личности ученика.

4. **Организационная функция**

Коммуникация играет ключевую роль в организации учебного процесса. Учитель управляет деятельностью класса, координирует действия учащихся, распределяет задачи и контролирует их выполнение. Организационная функция особенно важна в условиях коллективной работы, например, при проведении групповых проектов или исследований. Кроме того, через коммуникацию учитель обеспечивает соблюдение дисциплины и поддерживает порядок в классе.

Принципы эффективной коммуникации

Для того чтобы коммуникация была продуктивной, необходимо соблюдать определенные принципы. Эти принципы помогают учителю установить доверительные отношения с учениками и создать благоприятную атмосферу для обучения.

1. **Открытость**

Учитель должен быть доступным для диалога, готовым выслушать учеников и ответить на их вопросы. Открытость способствует формированию доверия между учителем и учениками, что особенно важно для создания комфортной образовательной среды. Например, если учитель

регулярно проводит беседы с учениками, обсуждает их успехи и трудности, это помогает детям чувствовать себя более уверенными и заинтересованными в обучении.

2. **Уважение**

Уважение к индивидуальности каждого ученика – один из ключевых принципов эффективной коммуникации. Учитель должен признавать право учеников на собственное мнение, даже если оно отличается от общепринятого. Например, при проведении дискуссий важно дать возможность каждому ученику высказаться, не прерывая его и не осуждая его точку зрения.

3. **Эмпатия**

Эмпатия – это способность понимать чувства и переживания другого человека. Учитель, проявляющий эмпатию, может лучше понять потребности и трудности учеников, что помогает ему корректировать подход к обучению. Например, если ученик испытывает стресс из-за предстоящего экзамена, учитель может предложить дополнительную поддержку или советы по подготовке.

4. **Четкость**

Четкость формулировок и отсутствие двусмысленности в общении – важный принцип, который помогает избежать недоразумений. Учитель должен ясно объяснять задания, правила и цели урока. Например, использование простых и понятных инструкций при выполнении заданий помогает ученикам лучше ориентироваться в материале.

Трудности в коммуникации и пути их преодоления

Несмотря на важность коммуникации, учителя часто сталкиваются с различными трудностями в этом процессе. Рассмотрим основные из них:

1. **Недостаточная подготовка в области психологии общения**

Многие учителя не имеют достаточной подготовки в области психологии общения, что затрудняет их работу с учениками. Например, они могут не знать, как правильно реагировать на конфликты или как мотивировать учеников. Для преодоления этой проблемы необходимо включать курсы по психологии общения в программы профессиональной подготовки учителей.

2. **Отсутствие навыков работы с конфликтными ситуациями**

Конфликты между учениками или между учеником и учителем – частое явление в образовательной среде. Однако не все учителя умеют эффективно разрешать такие ситуации. Например, вместо конструктивного диалога учитель может применять наказания, что только усугубляет конфликт. Для решения этой проблемы можно организовать тренинги по управлению конфликтами и медиации.

3. **Проблемы в восприятии невербальных сигналов**

Невербальная коммуникация (жесты, мимика, интонация) играет важную роль в общении, но не все учителя умеют правильно интерпретировать эти сигналы. Например, учитель может не заметить, что ученик испытывает стресс или дискомфорт, если не обращает внимания на его мимику или позу. Для развития навыков восприятия невербальных сигналов можно использовать практические занятия и наблюдения.

Пути совершенствования коммуникативных навыков учителя

Для преодоления вышеперечисленных трудностей необходимо постоянно работать над развитием коммуникативных навыков учителя. Вот несколько рекомендаций:

1. **Участие в тренингах и мастер-классах**

Тренинги по развитию коммуникативных навыков помогают учителям освоить новые техники общения, научиться работать с конфликтами и лучше понимать психологию учеников.

2. **Изучение психологических техник общения**

Учителя могут самостоятельно изучать литературу по психологии общения, чтобы расширить свои знания и навыки.

3. **Постоянное самосовершенствование**

Учитель должен стремиться к постоянному развитию, анализируя свои ошибки и находя способы их исправления. Например, можно записывать уроки на видео и просматривать их, чтобы оценить свою коммуникацию с учениками.

4. **Использование современных технологий**

Современные технологии, такие как онлайн-платформы и мобильные приложения, предоставляют новые возможности для коммуникации. Например, учитель может использовать чаты или форумы для общения с учениками вне урока.

5. **Создание условий для обратной связи**

Важно создавать условия для обратной связи между учителем и учениками. Например, можно проводить анкетирование или организовывать групповые обсуждения, чтобы узнать мнение учеников о качестве общения.

Заключение

Коммуникация – это фундаментальный аспект педагогической деятельности, который влияет на все стороны образовательного процесса. Эффективная коммуникация способствует передаче знаний, развитию личности ученика и созданию благоприятной атмосферы в классе. Однако для достижения высоких результатов учителям необходимо постоянно работать над совершенствованием своих коммуникативных навыков.

Реализация предложенных рекомендаций поможет улучшить качество взаимодействия в образовательной среде и создать условия для гармоничного развития всех участников учебного процесса.

Предложения

На основе проведенного анализа можно предложить следующие рекомендации для улучшения коммуникации в педагогической деятельности:

1. Включение курсов по развитию коммуникативных навыков в программы профессиональной подготовки учителей.
2. Организация регулярных тренингов и мастер-классов для действующих педагогов.
3. Создание условий для обратной связи между учителями и учениками, например, через анкетирование или групповые обсуждения.
4. Использование современных технологий (например, онлайн-платформ) для расширения возможностей коммуникации.
5. Поощрение творческого подхода к организации учебного процесса, включая интерактивные методы обучения.

Заключение: Коммуникация является неотъемлемой частью педагогической деятельности учителя, играя ключевую роль в успешности образовательного процесса. Эффективное общение способствует формированию доверительных отношений между учителем и учениками, повышению мотивации к обучению и развитию личности ребенка. Однако для достижения высоких результатов необходима постоянная работа над совершенствованием коммуникативных навыков. Реализация предложенных рекомендаций позволит повысить качество взаимодействия в образовательной среде и создать условия для гармоничного развития всех участников учебного процесса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Выготский, Л.С. Психология развития ребенка / Л.С. Выготский. – М.: Педагогика, 1984.
2. Зимняя, И.А. Педагогическая психология / И.А. Зимняя. – М.: Логос, 2001.
3. Петровский, А.В., Рожков, М.И. Психология общения / А.В. Петровский, М.И. Рожков. – М.: Академия, 2003.
4. Пассов, Е.И. Коммуникативные технологии в обучении / Е.И. Пассов. – М.: Высшая школа, 1997.

BURG‘ULASH JARAYONLARI UCHUN ERITMALAR TAYYORLASH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI.

Asrorova Fotima Anvar qizi
Magistrant, Navoiy Davlat Universiteti
Sultonov Shavkatjon
k.f.d (DSc) professor, Navoiy Davlat Universiteti

Annotatsiya. *Burg’ulash jarayoni- neft qazib chiqarishda muhim bosqich hisoblanadi. burg’ulash eritmalari yuqori samara beruvchi va tazovuzkor qatlamlarga bardosh beruvchi komponent sifatida qo’llanila boshladi. Garchi, burg’ulash jarayonlari muhim bosqich bo’lsada, ularni yanada rivojlantirish haqida to’liq ma’lumotga ega emasmiz. Ushbu maqolada burg’ulash jarayonlari uchun xossa xususiyatlari yuqori bo’lgan eritmalar tayyorlashning bir qancha xususiyatlarini ko’rib chiqamiz. Biz burg’ulash jarayonlarini ma’lumotlar to’plagan holda atroflicha o’rganib chiqdik va ushbu ma’lumotlarga asoslangan holda eritmalar tayyorlashni tajribada sinab ko’rdik. Bundan tashqari, burg’ulash jarayonlari uchun samara beradigan yuqori mustahkamlikka ega eritmalar tayyorladik va xususiyatlarini ko’rib chiqdik. Biz yaratayotgan burg’ulash eritmalari ichida gil kukunlari va mahalliy xom ashyolar qo’shib tayyorlangan eritmalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari va elastik, plastik xossalari yuqori ekanligini aniqladik. Olingan natijalar asosida burg’ulash jarayonlari uchun foydali eritmalar tayyorlash masalalarini ko’rib chiqdik. Ushbu tadqiqotimiz burg’ulash jarayonlarining samarasini oshirish va unda qo’llaniladigan eritmalarning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot tashqi tajovuzkor qatlamlarning ta’siriga chidamliligi haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so’zlar. *burg’ulash. komponent. elastiklik. tajovuzkor qatlamlar. gil kukunlari. xom ashyo.*

Аннотация. *Процесс бурения является важной стадией добычи нефти. Растворы для буровых рассеяний стали использоваться в качестве компонента, который использует высокую эффективность и растрескивание. Хотя процессы бурения являются важными этапами, мы не имеем полностью знания их дальнейшего развития. В этой статье мы рассмотрим несколько особенностей подготовки решений с высокими функциями для буровых процессов. Мы подробно изучили процессы бурения, собирая информацию и проверили подготовку решений на основе этой информации. Кроме того, мы подготовили и рассмотрели свойства высотных процессов бурения. В бурных решениях, которые мы создаем, мы*

определили физические и химические свойства подошвы, приготовленных глиняным порошком, а местное сырье, высокие. Основываясь на полученных результатах, мы рассмотрели проблемы подготовки полезных решений для процессов бурения. Это исследование объясняет важность решений, которые повышают эффективность процессов бурения. В то же время это исследование предоставляет информацию о сопротивлении внешних агрессивных слоев.

Ключевые слова. *бурение. Компонент. эластичность. агрессивные слои. Глиняный порошок. Сырье.*

Abstract. *The drilling process is a significant stage in oil production. Drill solutions began to be used as a component that uses high efficiency and cracking. Although the drilling processes are important stages, we have no fully knowing their further development. In this article, we will consider several features of the preparation of solutions with high features for drilling processes. We have examined the drilling processes in detail, collecting information and tested the preparation of solutions based on this information. In addition, we prepared and reviewed the properties of high-rise to drilling processes. .In the drilling solutions we create, we have identified the physical and chemical properties of the soles prepared by clay powder and local raw materials are high. Based on the results obtained, we have considered the issues of preparation of beneficial solutions for drilling processes. This study explains the importance of the solutions that improve the effectiveness of drilling processes. At the same time, this study provides information on the resistance of external aggressive layers.*

Keywords. *drilling. Component. elasticity. aggressive layers. Clay powder. Raw materials .*

Kirish

Burg’ulash qazilma boyliklari qazib chiqarishda toza mahsulot olish imkonini beradi va yuqori mustahkamlikka ega eritmalarni qo’llanishim uchun muhim jarayonga aylandi. Bundan tashqari, Shu bilan birga burg'ilash suyuqliklari yoki loylar neftni burg'ilash operatsiyalarida muhim ahamiyatga ega bo'lib, burg'ilash uchini sovutish, so'qmoqlarni olib tashlash va qatlam bosimini nazorat qilish kabi bir nechta funksiyalarni bajaradi. (J.Fink. 2020). Shu sabali yer osti qazilma boyliklarini qazib chiqarish tobora qulay bo’lib bormoqda, chunki burg’ulash jarayonlari uchun tayyorlangan eritmalar yuqori xossaga ega. Tadqiqotlar davomida ushbu jarayon bilan individual va jamoaviy ishlovchi soha vakillari paydo bo’ldi. Burg’ulash suyuqligi xususiyatlari (2023) , Burg'ulash operatsiyalaridagi texnologik yangiliklar (Teodoriu, Bello 2021), burg’ulash

suyuqliklarida qattiq moddalarning cho’kindiga tushishi (2018 N.Santos, F.M.Fagundes,) burg'ulash parametrlarining ish qismi va asbob materiallariga ta'siri (B.Kumar 2020). Burg’ulash jarayonlari va burg’ulash suyuqligi kabi tushunchalar endi yangilik emas, yuqorida keltirilgan atamalarning barchasi uning bir qismini o’z ichiga oladi. Burg'ulash - turli materiallarda dumaloq teshiklarni yaratish uchun ishlatiladigan metall kesish jarayoni (Kulvinder Garg va boshq., 2017). Ushbu hujjat burg'ulash operatsiyasini, shu jumladan an'anaviy va CNC fleverlarini, shuningdek burg'ulash parametrlari ishning asariga va asbob materiallariga qanday ta'sir qiladi. (B.Kumar 2020). Ushbu hujjat burg'ulash operatsiyasi uchun kiritish va javob berish jarayonlari parametrlari, bu aylanuvchi kesish asbobidan foydalanib qattiq ob'ektda teshiklarni kesish jarayoni (Sathiyaraj Chinnasamy, M Ramachandran, Prabakaran Nanjundan, Malarvizhi Mani 2022). Tabiiyki, burg’ulash jarayonlari yaratilganidan beri o’zining yuqori xususiyatga ega eritmalari shakllantirildi. Shuning uchun burg’ulash eritmalarini tayyorlov jarayonlari, uni burg’ulashda qo’llanilishi, xossalari va texnologik oqibatlari haqida yangidan yangi tushunchalarni berishi mumkin bo’lgan qimmatli tadqiqot obyektlari bo’lib o’rganishni taqozo etadi. Burg’ulash jarayonlari uchun yaratilingan burg’ulash eritmalari yuqori samara beruvchi, tajovuzkor qatlamlarga bardosh bera oladigan komponent hisoblanadi. Chuqur va o’ta chuqur burg’ulash jarayonida burg’ulash suyuqligi texnologiyasi quyidagi murakkabliklarga duch kelishi mumkin (SUN Jinsheng , JIANG Guancheng 2023). Sintetik asosli burg’ulash suyuqliklari an’anaviy mineral moy yoki dizel moyi o’rniga doimiy faza sifatida biologik parchalanadigan sintetik baz moyini qabul qiladi va shu bilan atrof-muhit ifloslanishini kamaytiradi. Sintetik asosli burg’ulash suyuqliklari yaxshi moylash, ko’tarish quvvati va qulashga qarshi ko’rsatdi va reologiyani doimiy optimallashtirish orqali murakkab qatlamlarda burg’ulash ehtiyojlarini qondirish mumkin. (Balaga DK, MONDAL J, TATKE va boshq 2023). Burg’ulash jarayonlari uchun xossa xususiyati yuqori bo’lgan eritmalarni qay tarzda tayyorlsh mumkin. Biz tadqiqotimizga burg’ulash jarayoni va unda ishlatiladigan burg’ulash eritmalarining xususiyatlarini nazariy jihatdan o’rganib ushbu bilimlarga tayangan holda amaliy tajribalar olib borish jarayonlari orqali yondashdik. Nazariy ma’lumotlar asosida olib borilgan tajribalar burg’ulash jarayonida qazib olinadigan neft mahsulotlarining tozalik darajasi va tajovuzkor qatlamlarga bardosh bera oladigan burg’ulash suyuqligi tayyorlashga yordam beradi. Shuningdek, ushbu tadqiqot burg’ulash jarayonlarida vujudga keladigan muammolarni bartaraf etadigan eritmalar tayyorlash imkonini beradi. Bundan tashqari, olingan burg’ulash suyuqligi burg’ulash eritmalarining xossa-xususiyatlarini yanada takomillashtirishga samarali vosita bo’lib xizmat qiladi. Maqolaning qismlari quyidagicha;

Birinchidan, burg’ulash jarayoni tushunchasi va qazish jarayonida burg’ulash eritmalarining roli xususidagi adabiyotlarni ko’rib chiqish bilan tushuntiriladi.

Ikkinchidan, tavsiya etilayotgan tadqiqot loyihasi, nazariy ma’lumotlarni yig’ib borish va tahlil qilish bilan tushuntiriladi. Shu bilan birga biz olingan natijalar asosida xulosalar chiqaramiz va xulosalarimizning keyingi tadqiqotlarga qo’shadigan hissasi haqida tushunchalarga ega bo’lamiz. Olingan barcha natijalarni o’zaro muhokama qilamiz.

Burg’ulash jarayonida tog’ jinslarini yemirish mexanik va boshqa usullarda amalga oshiriladi. Mexanik burg’ulash zarbali, zarba-arqonli, zarbali-aylanma va aylanma usullarda bajariladi. Lekin, neft va gaz quduqlarini qurishda faqat burg’ulashning aylanma usullaridan foydalaniladi. Shuning uchun aylanma burg’ulash usul turlari to’g’risida qisqacha ma’lumotlar beramiz. Aylanmali burg’ulashda tog’ jinslari dolotoga berilgan yuk va aylantiruvchi momentlarning bir vaqtdagi ta’siridan yemiriladi. Bunda yuk ta’sirida doloto tishi tog’ jinsiga botadi, aylantiruvchi moment ta’sirida esa tog’ jinslari maydalanadi. Burg’ulash jarayonida maydalangan tog’ jinsi zarrachalari yer yuziga yuvish suyuqligi oqimi, gaz yoki havo haydash yo’li bilan olib chiqiladi. Aylanma burg’ulashning asosiy xususiyatlaridan biri quduq tubidagi dolotoning ishlash jarayonida quduqni suv yoki maxsus tayyorlangan yuvish suyuqliklari bilan yengil yuvish hisoblanadi.

Yuvish eritmalarining vazifalari va ularning xossalari. Murakkab geologik sharoitlarda quduqlarni burg’ulash uchun talab etiladigan burg’ulash eritmalari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Quduq tubini emirilgan tog‘ jinslaridan to‘liq tozalash va ularni er yuzasiga chiqarish;
2. Quduq devorining o‘pirilishiga qarshi bosimda mustahkam va zich gilli qatlam tashkil etish;
3. YUvish jarayoni to‘xtatilgandan keyin emirilgan tog‘ jinsi zarrachalarini quduq tubiga cho‘ktirmasdan muallaq holatda saqlab turish;
4. Doloto, quduq tubi dvigatellari (turbobur, elektrobur), burg‘ilash quvurlari birikmasini hamda ularning qismlarini sovutish va moylash;
5. Quduq devorlaridagi tog‘ jinslarining kamroq yuvilishini ta’minlash;
6. Qatlamdan neft, gaz va suvlarning quduqqa kirib ketmasligini ta’minlash;
7. Quduq tubi oldi zonasidagi mahsuldor qatlamlarning kollektorlik xossalarini saqlash;
8. Yer usti manbalaridan quduq tubiga energiya uzatish;
9. Burg‘ilash jarayonida yuzaga keladigan yuqori haroratlarni sovutish;

Quduqlarni burg‘ilash jarayonida yuvish eritmalari gidravlik berk konturda muntazam ravishda aylanib turadi. Quduqda yuvish eritmalarining bunday aylanishi uchta sxema bo‘yicha asoslanadi.

1. Quduqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuvish – bunda yuvish eritmasi nasos yordamida burg‘ilash snaryadi orqali quduq tubiga uzatiladi. Keyin yuvish eritmasi burg‘ilash snaryadi va quduq devorlari orasidagi halqasimon muhit bo‘yicha er yuzasiga chiqadi (11.1, a-rasm).
2. Quduqlarni teskari yuvish – bunda quduqqa yuvish eritmasi burg‘ilash snaryadi va quduq devori oralig‘idagi halqasimon muhit orqali uzatiladi. Keyin yuvish eritmalari burg‘ilash quvurlari birikmasining ichki muhiti bo‘yicha tashqariga chiqariladi.

Teskari yuvish quduq tubini tozalashda yuvish eritmasining kam sarflanishi va kernni butunlay chiqishini ta’minlaydi. Teskari yuvish jarayonida quduq og‘zining yaxshi germetiklanishi talab etiladi.



Quduqlarni yuvishning sxemasi.

a-quduqlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri yuvish; b-quduqlarni teskari yuvish.

1-nasos; 2-haydash shlangi; 3-burg‘ilash quvurlari birikmasi;

4-jins emiruvchi asbob; 5-tarnov; 6-tindirgich; 7-qabul qiluvchi idish;

8-quduq og‘zini germetiklashtiruvchi.

3. Quduq tubi oldi yuvishi - asosan yer osti suvi yoki quduqqa uzatiladigan yuvish eritmasi kernning yaxshi (to‘liq va butunligicha) chiqishini ta’minlashga mo‘ljallangan.

Burg’ulash jarayonlarida eng ko’p qo’llaniladigan va samara beradigan eritmalar gilli eritmalar hisoblanadi. Gilli eritmalar asosan quduq devorida hosil bo’ladigan g’ovaklarni yopishga va burg’ulangan yer osti boyliklarini eritma ichida muallaq holatda turishi uchun xizmat qiladi. Gilli eritmalar chiqindi mahsulotlar ya’ni mahalliy xom ashyo bilan boyitib tayyorlansa suvni o’zida juda yaxshi saqlaydi. Qovushqoqligi, plastikligi va elastik xossasi yanada ortadi. Chunki mahalliy xom ashyo qo’shib tayyorlangan gilli yuvish eritmalari uzoq muddat tajovuzkor qatlamlarga bardosh bera oladi va toza neft mahsulotlari qazib chiqarish uchun samara beradi. Bundan tashqari, Navoiyazotdan chiqadigan chiqindi mahsulotlari qo’shib ham burg’ulash eritmalari tayyorlash mumkin. Bunda eritmaning plastik

viaskostligi va dinamik xossasi ortadi. Plastik deganda yopishqoqlik xususiyati paydo bo’ladi, dinamik xossasi deganda tajovuzkor qatlamlarni o’zida saqlab turadi. Buning natijasida esa neft qazish jarayonida yuzaga keladigan muammolarning oldi olinadi. Uzoq muddat talab qilinmaydi. Gilli eritmalarning ham bir qancha xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz. Gilli eritmalarning asosan qovushqoqligi eritma tayyorlash uchun zarur materiallarning sifatiga hamda gil zarrachalarining o’lchamiga bog’liq. Gil zarrachalarining o’lchami qanchalik mayda bo’lsa, u shuncha ko’p eritmada turadi va qovushqoqligi ortadi. Yuqori qovushqoqlikka ega burg’ulash eritmalarini bentonit gil kukuni va yumshoq suv qo’shib tayyorlash mumkin. Eritmalarning qovushqoqligi asosan burg’ulash jarayonida gil kukunlari bilan boyishi, gazlar bilan to’yinishi va tuzlar ta’sirida ko’payadi. Yer osti suvlari ta’sirida eritmaning qovushqoqligi pasayishi kuzatiladi. Yuqori haroratga chidamli suvga asoslangan burg’ulash suyuqliklari yuqori haroratda past barqarorlikni namoyish etadi. Burg’ulash suyuqliklaridagi polimerlar va boshqa qo’shimchalar termal degradatsiyaga uchrashi, burg’ulash suyuqliklarining ishlashiga to’sqinlik qilishi va burg’ulash suyuqliklarining bir xilligi va barqarorligiga ta’sir qiladigan burg’ulash suyuqliklaridagi komponentlarning fazaviy ajralishini keltirib chiqarishi mumkin. Yuqori haroratda burg’ulash suyuqlilarining viskozitenasini nazorat qilish qiyin-ehtimol juda yuqori yoki juda past, burg’ulash samaradorligi va quduq barqarorligiga to’sqinlik qiladi.

Xulosa. Burg’ulash jarayonlari uchun eritmalar tayyorlash masalalari bo’yicha tadqiqotlarni umulashtirgan holda shuni aytib o’tish kerakki, ushbu eritmalarni tayyorlash yer osti qazilma boyliklarini qazib chiqarishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada toza neft mahsulotlari olish samaradorligi oshadi. Mahalliy xom ashyolar asosida tayyorlangan burg’ulash eritmalari valyuta zaxiralarini tejash imkonini beradi. Yig’ilgan ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, biz burg’ulash jarayonlari uchun eritmalarni tayyorlashda gil kukunlari, chiqindi xom ashyo mahsulotlaridan kerakli miqdorda va zarur shart sharoitlarda olsak, yer osti qazilma boyliklarini qazib chiqarishda yuqori samaradorlikka erishamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Drilling muds J.Fink 2021 Petroleum Engineer's Guide to Oil Field Chemicals and Fluids.
2. Drilling operation. B. Suresh Kumar N. Baskar . K. Rajaguru. https://doi.org/10.1016/j.matpr.2019.08.160.

3. An Outlook of Drilling Technologies and Innovations: Present Status and Future Trends. C. Teodoriu, O. Bello. Published in Energies 26 July 2021. Engineering, Environmental Science.
4. Study on the stability of a shear-thinning suspension used in oil well drilling. F. M. Fagundes, N. Santos, +1 author F. O. Arouca. Published 2018. Engineering, Environmental Science, Materials Science. Oil & Gas Science and Technology.
5. Asrorova F.A, t.f.d. PhD, prof v.b Sultonov.Sh.A. Quduq devori mustahkamligini oshiruvchi sirt faol eritmalarning xossalarini o’rganish. “Перспективные исследования по медицинской химии, биохимии и физики в области медицины”, которая состоится 17-18-мая 2024-года.
6. SUN Jinsheng, JIANG Guancheng.
7. The state and trend of drilling and liquidation fluid: "blood" of drilling projects. The forecast of Science and Technology 2023. 2(2): 62-74.
8. BALAGA DK, MONDAL J, TATKE V .. Degriance as adhesionic is obstrucital and low-based drilling fluid systems of synthetic acrxial polymers. Geo-CANGING SCIENCE AND MANAGENCY, 2023. 222: 211453.
9. Internet saytlari.

http://www.elibrary.ru/menu_info.asp
http://www.elibrary.ru/journ_main.asp?code=520100
http://www.rusmet.ru

BOSHLANG’ICH TA'LIMGA ZAMONAVIY INNOVATSIYALARNI JORIY ETISH

Sayraxmatova Oqila Fazliddinovna
Navoiy innovatsiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi
Boshlanǵich ta'lim yònalishi
1-kurs 4-guruh talabasi.
Ilmiy rahbar:Sa'dullayeva Umida Fayzullayevna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang’ich ta'limga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish hamda uning samarali tomonlari to’g’risida so’z boradi. Shuningdek boshlang’ich sinflarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish orqali, ta’lim sifatini oshirish, o’quv-tarbiya jarayonini*

modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o’rganish, o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo’yicha chuqur mulohazalar yuritilgan.

Kalit so’zlar: *Boshlang’ich ta’lim, zamonaviy innovatsiyalar, ta’lim sifati, modernizatsiyalash, raqamli texnologiyalar, STEAM ta’limi , o‘yinlashtirish, Innovatsion pedagogik yondashuvlar, xorijiy tajriba.*

Abstract: *This article discusses the introduction of modern innovations in primary education and its effective aspects. Also, in-depth considerations are made on improving the quality of education, modernizing the educational process, studying foreign experiences, and developing the professional competence of teachers through the use of innovative educational technologies in primary grades.*

Keywords: *Primary education, modern innovations, quality of education, modernization, digital technologies, STEAM education, gamification, Innovative pedagogical approaches, foreign experience.*

Аннотация: *В статье рассматривается внедрение современных инноваций в начальное образование и его эффективные аспекты. Также состоялись подробные обсуждения вопросов повышения качества образования в начальной школе за счет использования инновационных образовательных технологий, модернизации образовательного процесса, изучения зарубежного опыта, развития профессиональной компетентности учителей.*

Ключевые слова: *Начальное образование, современные инновации, качество образования, модернизация, цифровые технологии, STEAM-образование, геймификация, инновационные педагогические подходы, зарубежный опыт.*

Kirish

Ta’lim jarayonida ilg’or pedagogik texnologiyalarni faol qo’llash, ta’lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O’quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o’stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O’qituvchi darsda boshqaruvchi o’quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog’i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko’p qirrali samara keltiradi. Boshlang’ich ta’lim umumta’lim maktablarining bosh bo’g’ini bo’lgani sababli ana shu jarayonda o’quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko’proq e’tibor berish lozim. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarining mas’uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina

qadam qo’ygan o’quvchilarni maktab hayotiga ko’niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo’l ochib beradilar. Bolalarning o’qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang’ich sinf o’qituvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko’rsatadi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o’tkazish metodlariga ko’ra o’quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo’ladi. O’quvchilarning o’quv materiallarini o’zlashtirishga bo’lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo’zg’otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo’lib, bu o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro ichki yaqinlashuvidir**.**

Respublikamiz ta’lim tizimini zamonaviy darajada takomillashtirish yo’nalishida amalga oshirilayotgan keng ko’lamli ishlardan ko’zda tutilgan asosiy maqsad – yosh avlodga ta’lim-tarbiya berish sifati va samaradorligini oshirish, ularni o’z yurtining sodiq farzandi etib tarbiyalash va mustahkam bilim egallashlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda yangi chuqur bilimlar talab etuvchi texnologiyalarning rivojlanishi sharoitlarida mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, kasbiy mahorat cho’qqilarini egallashga qodir va kasbiy moslashuvchanlik hislatlariga ega bo’lgan chuqur bilimli, yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash orqali ta’lim-tarbiya jarayoni sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan. Bu esa o’z navbatida o’quv jarayonini ilm-fanning zamonaviy yutuqlariga tayangan holda tashkil etishni, zamonaviy o’qitish texnologiyalaridan samarali foydalanishni talab etadi.

Bugungi kunda boshlang’ich sinflarda innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ta’lim sifatini oshirish, o’quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, xorijiy tajribalarni o’rganish, o’qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo’yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli boshlang’ich sinf o’qish darslarida innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo’naltirish hamda pedagogik mahoratini shakllantirish, ta’lim samaradorligini oshirish, modulli o’qitish texnologiyasini qo’llash muammolarini o’rganish nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion ta’lim texnologiyalari – bu butun o’qitish va bilimlarni o’zlashtirish jarayonining o’z oldiga ta’lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo’yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, qo’llash va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo’l ochish ta’limni takomillashtirishda innovatsion ta’lim texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning eng asosiy talablaridan biridir.

O’quvchining ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang’ich sinflarda o’qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayoniga mohirona tadbiq eta olishi, ta’limning yangi-yangi yo’l va usullarini izlashi, ilg’or pedagogik tajribalardan ijodiy foydalana olishi juda muhimdir. SHuning uchun ham bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini kelgusi faoliyatga tayyorlashda, innovatsion pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etishga tayyorlash ta’lim oldiga qo’yilgan muhim talablardan biridir. CHunki innovatsion ta’lim texnologiyalari birinchidan, o’quvchilarni bilim, ko’nikma va malakalarni oson va qiziqib o’rganishlari uchun imkoniyat yaratsa, ikkinchidan, o’qituvchining ham professional o’sishiga, ham ma’naviy rivojlanishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish, zamonaviy innovatsiyalar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish va bolalarning ta’lim jarayoniga qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Quyida ushbu sohadagi asosiy innovatsion yondashuvlar haqida ma’lumot beriladi: 1) Raqamli texnologiyalarni joriy etish, misol uchun: Elektron darsliklar va platformalar – O‘quvchilarga interaktiv darsliklar va onlayn ta’lim resurslaridan foydalanish imkonini beradi. AQSh, Yevropa va Osiyo davlatlarida qo‘llanilayotgan "Smart Board" (aqlli doska) texnologiyasi yordamida o‘qitish samaradorligi oshadi. Shuningdek sun’iy intellekt asosida individual ta’lim dasturlari – har bir o‘quvchining qobiliyatiga mos ravishda bilim berish tizimlari. 2) STEAM ta’limi (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) tamoyiliga asoslangan darslar orqali bolalarda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodiy yondashuv shakllantiriladi. Robototexnika va dasturlash asoslari – maktab o‘quvchilarini texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlaydi. 3) O‘yinlashtirish (Gamification) o‘yin elementlari orqali o‘qitish – o‘quvchilarning faolligini oshiradi va dars jarayonini qiziqarli qiladi. Masalan, Kahoot!, ClassDojo kabi platformalar yordamida testlar va baholash tizimi yanada interaktiv bo‘ladi. 4) Innovatsion pedagogik yondashuvlar, Flipped Classroom (Aksincha sinf) – o‘quvchilar uyda mavzuni o‘rganib, sinfda amaliy mashg‘ulotlar bajaradi. Bundan tashqari Projekt metodikasi – o‘quvchilarning mustaqil izlanish va tadqiqot olib borish qobiliyatini rivojlantiradi. 5) Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR) VR va AR texnologiyalar o‘quvchilarni tarixiy joylarga "sayohat" qildirishi yoki murakkab tushunchalarni vizual tasvirlash orqali tushunishni osonlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda Boshlang‘ich ta’limga zamonaviy innovatsiyalarni joriy etish o‘quvchilarning qobiliyatlarini kengaytirish, ularning bilim olish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois o‘qituvchilar doimiy ravishda yangi texnologiyalarni o‘zlashtirib borishlari va dars jarayonida

innovatsion usullardan foydalanishlari lozim. O’qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg’a undovchi, bunyodkorlikka rag’batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo’ladi hamda u ta’lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o’qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to’la tushungan holda o’z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta’lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o’z navbatida ta’lim tizimining rivojini ta’minlaydi.

Shuningdek o’sib kelayotgan yosh avlodda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish, sog’lom va barkamol naslni tarbiyalab etishtirish murabbiylarning muhim burchidir. CHunki mustaqil fikrlovchi o’quvchilargina kelajakda har tomonlama yetuk, barkamol insonlar bo’lib yetishib, mustaqil respublikamizni ilg’or jahon davlatlari qatoriga olib chiqadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta’lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo’llanma)- Qarshi: 2011.

2. D.Kasimova. “Maktabgacha ta’limda pedagogik texnologiyalar” moduli bo’yicha ma’ruza matni. Toshkent, 2017 yil, 34-b.

3. M.Yu.Yuldasheva. Boshlang’ich ta’limni o’qitish metodikasi moduli bo’yicha O’UM. Toshkent, 2018 yil, 203-b

4. Nabijonova, F. (2022). Boshlangich sinflarda didaktik oyinlarning ahamiyati: Nabijonova Feruza. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006)

5. Tolipov O,,., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. -T.:Fan 2006

6. Babayeva D. Nutq o’stirish nazariyasi va metodikasi. TDPU. 2018.

7. https://cyberleninka.ru/article/n/boshlang-ich-ta-limda-innovatsion-texn

8. https://www.learnworlds.com/

9. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectivenss. International Journal of Inclusive and Sustainable Education. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

10. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. International journal of inclusive and sustainable education. Vol. 2. No 2. 2023. -p. 68-70.

QILMISHNING JINOIYLIGINI ISTISNO QILUVCHI HOLATLAR SIFATIDA KAM AHAMIYATLI QILMISHLAR

Dauletbaeva Aynur Baxramovna,
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi
E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi va o‘ziga xos tomonlari o‘rganilgan,va bu boradagi huquqshunos olimlarning fikrlari tahlil etilgan. Shuningdek, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar bilan bog‘liq kam ahamiyatli qilmishlar haqida kengroq to‘xtalib o‘tilgan. Jinoyat qonuni normalarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar:*jinoyat, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar, kam ahamiyatli qilmishlar, ijtimoiy xavflilik, juda oz miqdor.*

МЕЛКИЕ ПРАВОНАРУШЕНИЯ КАК ИСКЛЮЧЕНИЕ ИЗ ПРЕСТУПНОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ

Даулетбаева Айнур Бахрамовна
Студент Каракалпакского государственного университета имени Бердаха
E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Аннотация: *В данной статье рассматривается понятие обстоятельств, исключающих преступность деяния, его специфические аспекты, а также анализируются мнения ученых-юристов по этому поводу. Также подробно рассматриваются мелкие деяния, связанные с обстоятельствами, исключающими преступность деяния. Даны соответствующие предложения и рекомендации по дальнейшему совершенствованию норм уголовного законодательства.*

Ключевые слова: *преступление, обстоятельства, исключающие преступность деяния, мелкие деяния, общественная опасность, очень малая сумма.*

MINOR OFFENSES AS EXCEPTIONS TO THE CRIMINALITY OF THE OFFENSE

Dauletbaeva Aynur Bakhramovna
Student of State University named after Berdakh

E-mail:dawletbaevaaynur0@gmail.com

Annotation: *This article examines the concept of circumstances excluding the criminality of an act and its specific aspects, and analyzes the opinions of legal scholars in this regard. It also elaborates on minor acts related to the circumstances that exclude the criminality of the act. Appropriate proposals and recommendations for further improvement of the norms of the criminal law are given.*

Key words: *crime, circumstances excluding the criminality oh the act, minor acts, social danger, very small amount.*

Mamlakatimizda sodir qilinayotgan jinoyatlarni bartaraf qilishga doir o‘ziga xos tizim va normativ-huquqiy hujjatlar yaratilib, uni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirishga ahamiyat berilayotganligi natijasida davlat va jamiyatni har xil huquqbuzarliklar va jinoyatlardan muhofaza qilish masalalariga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilish, sabab va maqsadlarini e’tiborga olish va shu nuqtai nazardan, "jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklar viktimligining oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish va uning samaradorligini oshirish" sud-huquq sohasini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari qatorida belgilanib, bu sohani tadqiq qilish qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda sodir etiladigan jinoyatlar uchun jazo tayinlashda jabrlanuvchi, ijtimoiy xavfli qilmishni sodir qilgan shaxsning xulq-atvorini ushbu jinoyatlar profilaktikasini rivojlantirish va uni o‘rganishning muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatmoqda.

Jinoyat-jinoyat qonunida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli qilmish(harakat yoki harakatsizlik). Muayyan qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi har bir davlatda o‘zining ijtimoiy tizimi, fuqarolarning turmush tarzi, o‘ziga xos xususiyatlari, urf-odatlari, an’analariga muvofiq xalqaro huquq me’yorlari e’tiborga olingan holda hal etiladi.

Qilmish jinoyat ekanligini aniqlash uchun quyidagi umumiy belgilar inobatga olinadi:

1. qilmishning ijtimoiy xavfliligi;
2. aybning mavjudligi;
3. jazoga sazovorligi;

4. huquqqa xilofliligi

Har qanday jinoiy qilmishda mazkur belgilarning barchasi birdaniga mavjud bo‘lishi shart, ulardan biri mavjud bo‘lmasa, qilmishni jinoyat emas deb hisoblashga asos topiladi[1].

Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar sodir qilinganligi uchun jinoyat deb topilmasdan, jazo va javobgarlikni istisno qiluvchi holatlarga aytilib, yuridik adabiyotlarda qanday qilmishlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar turiga kirishi kerakligi haqida olimlar turli xil fikrlarini bildirganlar. Ko‘plab mualliflar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasini tushuntirar ekan, bu inson xulq-atvori bilan bog‘liq harakatlar ekanligini ta’kidlaydilar. Ya’ni, faqat qonuniy xatti-harakatlar qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holat deb hisoblanishi lozimligi ta’kidlanadi.

M.Rustambayevning fikricha, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar qonunga zid hisoblanmaydi, chunki aynan shu holatlar davlat va mulk egasiga o‘z mulkini tasarruf etish va o‘zini hamda mulkini turli tajovuzlardan himoya qilish imkonini beradi. Albatta, fikr o‘rinli sanalib, qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarning qonunchilik tizimiga kiritilishining mohiyati ham aynan shu sanaladi[2].

Yana bir olimlardan biri R.Kabulov qilmishning jinoyiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan: “Inson ayrim hollarda tashqi tomondan u yoki bu jinoyatga o‘xshash harakatlar sodir etishi mumkin, ammo bu zararli oqibat keltirib chiqaruvchi harakatlarni u ziyon yetkazishi aniq bo‘lgan xavf-xatarni bartaraf etish, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishning oldini olish uchun, bunday qilmish sodir etgan shaxsni ushlash, buyruqni yoki o‘z majburiyatlarini bajarish vaqtida, shuningdek, kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilikka asoslanish orqali yo‘l qo‘yishi mumkin. Qonunda belgilangan aniq shartlarga rioya qilib zarar yetkazilgan bo‘lsa, bu kabi harakatlar jinoyat sifatida ko‘rib chiqilmaydi.

Shu jumladan, chet ellik huquqshunos olimlar R.R.Shakurov va Yu.V.Goliklarning ham bu haqida fikr bildirgan bo‘lib, unga ko‘ra o‘z harakatlarini qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlarda sodir etgan shaxslarni rag‘batlantirish usulini qo‘llash haqidagi bir qancha takliflar berib o‘tgan[3].

Yana bir chet ellik tadqiqotchi Yu.V.Baulin ham bu to‘g‘risida o‘z fikrini bergan.Uning ta'riflashicha qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar qatoriga jabrlanuvchining roziligi, sport bilan shug‘ullanish, ota-ona hukmining o‘tkazilishi, xizmat burchini bajarish, tibbiy aralashuvni va inson sog‘lig‘i yoki

hayotiga zarar yetkazish bilan bog‘liq ayrim boshqa holatlarni kiritish haqidagi takliflarni berib o‘tgan[4].

O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat Kodeksida ham qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar tushunchasiga yana bir ta'rif berilgan.

Qilmishda ushbu Kodeksda nazarda tutilgan alomatlar rasmiy jihatdan mavjud bo‘lsa-da, lekin u ijtimoiy xavfli, g‘ayriqonuniy yoki aybli bo‘lmasa, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar deb topiladi. Quyidagi holatlar, ya’ni

- kam ahamiyatli qilmishlar;
- zaruriy mudofaa;
- oxirgi zarurat;
- ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlash chog‘ida zarar yetkazish;
- buyruqni yoki boshqacha tarzdagi vazifani bajarish;
- kasb yoki xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan asosli tavakkalchilik;
- jismoniy yoki ruhiy majburlash yoxud qórqitish natijasida qilmish sodir etish jinoyatni istisno qiluvchi holatlar deb topiladi[5].

Yuqorida biz jinoyat tushunchasiga ta'rif berganimizda qilmishda jinoyat belgilari bo‘lmasa bu qilmishlar jinoyat hisoblanmasligini ta'kidlagan edik, ya’ni, qilmish ijtimoiy xavfli bo‘lishi, huquqqa xilof bo‘lishi, qilmishda ayb bo‘lishi kerak edi. Lekin, qilmishning jinoiyligini istisno qiladigan holatlar ichida kam ahamiyatli qilmish boshqa holatlardan farq qiladi, uning farqi shundaki, kam ahamiyatli qilmishlarda jinoyat belgilaridan huquqqa xiloflilik va ayb mavjud bo‘ladi, faqatgina bu qilmish ijtimoiy xavfli bo‘lmaydi, ya’ni, uning sodir etgan harakati shaxsga, davlatga, jamiyat yoki biror tashkilotga jiddiy zarar yetkazmaydi va og‘ir oqibatlarga olib kelmaydi, shuning uchun ham jinoyat qonuni bu qilmishni kam ahamiyatli deb topadi va uning jinoiyligini istisno qiladi.

Garchi ushbu Kodeksda jinoyat sifatida nazarda tutilgan qilmishning alomatlari mavjud bo‘lsa-da, ózining kam ahamiyatliligi tufayli ijtimoiy xavfli bo‘lmagan harakat yoki harakatsizlik jinoyat deb topilmaydi.

Huquq amaliyotchilari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 36-moddasidagi normaning juda kam qo‘llanilishi ushbu moddadagi normaning kerakligi haqida shubhalar tug‘ilishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlagan huquqshunoslardan biri V.V. Maltsev shunday deydi “kam ahmiyatli qilmishlar jinoyat kodeksiga hech qanday ijobiy sifatni olib

kelmaydi,chunki uning o‘zi jinoyat tushunchasi bilan hech qanday aloqaga ega emas”.

Ushbu fikrlarga hamfikr bo‘lgan olimlardan biri A.P. Kozlov esa kam ahamiyatli qilmish institutidan umuman voz kechish kerakligini, u amaliyotda jinoyat qonunini suiste`mol qilishga olib kelishini va kam ahamiyatli qilmishlarga boshqa usullarda ta`sir ko‘rsatish mumkinligini ta`kidlagan. Qilmishning kam ahamiyatliligini aniqlashda keltirilgan zarar miqdori muhim ahamiyatga ega bo‘ladi, aynan yetkazilgan zarar biror shaxsning hayotiga yoki sog‘lig‘iga qay darajada ta’sir qilganligi inobatga olinadi, yoki biror shaxsning mulkiga qancha miqdorda ziyon yetkazilganligi aniqlanadi, masalan bir shaxsni bir yoki ikki tarsaki urish, aslini olib qaraganda bu jinoyat, bu qilmishda jinoyat belgilari ham bor, lekin bu qilmish o‘sha jabrlanuvchining sog‘lig‘iga hech qanday jiddiy ziyon yetkazmaydi, shuningdek bu qilmishda ijtimoiy xavflilik ham yo‘q, shuning uchun jinoyat qonuni bu qilmishni jinoyat deb topmaydi.

Chet el davlatlari bilan solishtirganda masalan, Rossiya Federatsiyasining ma`muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga mufoviq oz miqdorda talon-taroj qilish ma`muriy huquqbuzarlik deb e`tirof etilgan. Agarda o‘sha qilmish Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksining 158-moddasi ya'ni, og‘rilik, 160-moddasi[5] ya'ni, o‘zlashtirish yoki rastrata tarkibiga kirmasa.

Ózbekiston Respublikasi qonunchiligida oz miqdorda talon taroj qilish Ma'muriy javovgarlik tóǵrisidagi kodeksning 61-moddasida keltirilgan bo‘lib, mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxona, muassasa, tashkilotlarning mol-mulkini o‘g‘irlash, o‘zlashtirish, rastrata qilish, mansab lavozimini suiiste’mol qilish yoki firibgarlik yo‘li bilan oz miqdorda talon-toroj qilish —bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi[6]. Bu javobgarlik faqat yuridik shaxslarga qo‘llaniladi.

Rossiya Federatsiyasi qonunchiligini o‘rganish davomida oz miqdorda talon-taroj (2500 rulbgacha) qilish va miqdor bilan bog‘liq bo‘lgan qilmishlarni sud ayblov hukmini bekor qilib asosga kam ahamiyatli qilmish deb topgan holatlar aniqlangan va bu qilmishlarni har doim ham kam ahamiyatli deb topish uchun to‘la asoslangan deb aytolmaymiz chunki kam ahamiyatli qilmish faqat qonunni qo‘llovchi subektlar qólidagina ósha individual vaziyatga nisbatan baholash vositasi bólib xizmat qiladi xolos.

Qaysidir qilmishni kam ahamiyatli deb topish uchun asosiy me`zon bu huquqni muhofaza qiluvchi organlaring huquqiy savodxanligini ya`ni bilimlarini kam ahamiyatli qilmishni baholashda hisobga olinishi lozim bo‘lgan kompleks holatlarni ya`ni qilmishning obyektiv va subyektiv belgilari,shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo‘lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararning mavjudligi, vaqti, joyi, qasdning kam ahamiyatli

ekanligi, motiv va maqsadning kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo‘ljallanganligi kabilarni o‘zida mujassamlashtirishi lozim. Rossiya Federatsiyasi qonunchiligidagi 2500 rublgacha bo‘lgan oz miqdordagi talon-taroj qilishlarni jinoyat sifatida qidirishdan voz kechish faoliyati o‘z navbatida kissavurlik, guruh bo‘lib va uy o‘g‘riliklari kabi qilmishlarga qarshi jinoiy-huquqiy mexanizm ta`sirini susaytiradi.Keyinchalik, bu holatlar esa ushbu miqdorni asosiy me`zon qilib javobgarlik va jazodan ozod qilish holatlari ham kuzatiladi.Bu esa qilmish oqibatida jabr ko‘rganlarning asosli havotirini vujudga keltiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ,qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar mustaqil jinoiy-huquqiy institut bo‘lib, bu institut qanday qilmishlar jinoyat emasligini aniqlaydi va inson, jamiyat va davlat manfaatlari ustun turishini isbotlaydi.Qo‘shimcha sifatida shuni ta'kidlab ótmoqchimizki, insonga, jamiyatga va davlatga ijtimoiy xavfli bo‘lmagan qilmishni kam ahamiyatli deb topishdan oldin qounchiligimizda muayyan bir o‘lchov me`zonini kiritish lozim.Ushbu me`zon har bir shaxsning mehnatga ish haqiga ya'ni uning daromadiga qarab belgilanishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi chunki har qanday summaning har kimda qadri turlicha bo‘lishi mumkin agar bitta summa miqdori barchaga tatbiq qilinsa unda JKning 5 va 8-moddalari ya'ni fuqarolarning qonun oldida tengligi va odillik prinsiplari buziladi. Shuningdek, kam ahamiyatli qilmishning omillarini – ijtimoiy xavfga ega bo‘lmagan ahamiyatsiz (juda oz) miqdorda zararning mavjudligi, vaqti, joyi, qasdning kam ahamiyatli ekanligi, motiv va maqsadning kam ahamiyatli qilmish sodir etishga mo‘ljallanganligi kabilarni qilmishning kam ahamiyatliligini aniqlashda hal qiluvchi me`zon sifatida e`tiborga olish lozim.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF–4947-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 yil, 6-son, 70-modda. (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PD-4947 of February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan" // Collection of Legislation of the Republic of Uzbekistan, 2017, No. 6, Article 70.)

2.Rustamboyev M. Jinoyat huquqi. Darslik.Umumiy qism. Toshkent: “ILM-ZIYO” –2005. –B. 227. (Rustamboev M. Criminal law. Textbook. General section. Tashkent: “ILM-ZIYO” -2005. -P. 227)

3.Голик Ю.В. Воплощение метода поощрения в нормах уголовного права //Актуалные вопросы государства и права на современном этапе: Материалы конференции. –Томск:, 1982. –Б. 143.(Golik Yu.V. The embodiment of the method of encouragement in the norms of criminal law // Topical issues of state and law at the present stage: Conference proceedings. - Tomsk :, 1982 .--P. 143.)

4. Баулин Ю.В. Обстоятелства, исключающие преступност деяния. Автореферат диссертации. М.: 2015. –Б. 42.(Baulin Yu.V. Circumstances precluding the criminality of the act. Abstract of the thesis. M .: 2015 .--P. 42.)

5.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.Umumiy qism. Уголовный Кодекс Республики Узбекистан. Общая часть.Criminal code of Republic of Uzbekistan.Common part.

6.O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeks. Кодекс административной ответственности Республики Узбекистан. Code of adminstrative responsibility of the Republic of Uzbekistan.

MAKTABGACHA TA’LIM BOLALARIDA (3-5 yosh) JISMONIY MASHQ BAJARISHNING AHAMIYATI

Nizomov Behzod Raximjonovich
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
“Jismoniy madaniyat va sport” kafedrasi
assistenti
+998901032424 *bnizomov24@gmail.com*
O‘zbekiston Finlandiya pedagogika instituti
“Pedagogika va jismoniy madaniyat fakulteti
“Jismoniy madaniyat ta’lim yo’nalishi III- kurs talabasi,
“Fan sportga va sog’lom hayot sari” ilmiy to’garagi
a’zosi:
Qurvonqulov Xudoyberdi Qurvonqul o’g’li
+998990626239 *qurbonqulovxudoyberdi817@gmail.com*

Annotatsiya: *Maqola maktabgacha ta’lim (3-5 yosh) bolalarida jismoniy mashqlar bajarishning ahamiyati tahlil qiladi. Jismoniy faoliyat yosh sportchilarning kuch, chidamlilik va psixologik fazilatlarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashi. Shuningdek, mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish, ovqatlanish va dam olish muvozanatini ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit soz’lar: *maktabgacha ta’lim, jismoniy tarbiya, sport, bolalar sporti, harakat, jismoniy mashqlar, mashg’ulot, uyqu, sportchilarning rivojlanishi, chidamlilik, sog‘lom hayot tarzi.*

Boalarni jismoniy tarbiyalash va rivojlantirish, qolaversa, sport bilan shug’ullantirish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlar bir-biri bilan izchil bog’liqdir. Bolalarda yangi harakat turlarini (masalan, yurish, yugurish sakrash, tirmashib chiqish, uloqtirish va muvozanat saqlash va hokazo), shuningdek, hayot uchun zarur bo’lgan ko’nikma va malakalarini takomillashtirish, harakat qobiliyatlarini rivojlantirish darajasi bilan belgilanadi.

Shu bilan birga harakat qobiliyatlarini rivojlantirish uchun bolalar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarning yanada keng doirasini rivojlantirish va ularda nafaqat barqaror, balki moslashuvchan vosita ko’nikmalarini shakllantirish kata ahamiyatga ega. Bolalar harakatlari turlari qanchalik ko’p bo’lsa, ularning harakat faolligini har xil shakllarda namoyon etish imkoniyati shunchalik yuqori bo’ladi. Shu bilan birga, jismoniy mashqlar jarayonida bolaning individual qobiliyatlari ham shakllanadi.

Alloh taoloning bandalariga bergan behisob ne’matlari ichida eng ulug’u bu-sihat-salomatlikdir. Bu bebaho ne’matning qadri nechog’li ulug’ ekani haqida Payg’ambarimiz Muhammad sallallohu alayhi va sallam bunday marhamat qilganlar: “Ikki buyuk ne’mat bor, ko’p odamlar ular borasida aldanib, chuv tushib qoladilar. Ular: sihhat-salomatlik va bo’sh vaqtdir” *(Umom Buxoriy rivoyati*).[1]

[1] “Соглом турмуш тарзи ислом дини нигохида” Хомиджон Ишматбеков [ва бошк.]. Тошкент 2021

Bolalar sportida nima uchun mashqlar va mashg'ulotlar muhim?

Raqobatbardosh yosh sportchi uchun haftasiga kamida 20 soatga erishish turli sabablarga ko‘ra yosh raqobatdosh sportchi uchun muhim boshlanish nuqtasidir. Jismoniy ko‘rsatkichlar va uning turli tomonlari kuch, tezlik, chidamlilik va harakatchanlik o‘smirlik davrida mashg'ulot sifati, shuningdek, katta hajmdagi mashqlar orqali rivojlanadi. Ayniqsa, asosiy chidamlilik katta hajmdagi mashqlar natijasida deyarli o‘z-o‘zidan rivojlanadigan xususiyatdir.

Katta hajmdagi harakat odatda o‘zi bilan juda ko‘p turli xil harakat ko‘rsatkichlarini ham olib keladi va shuning uchun asosiy vosita mahoratini va keyingi sport mahoratini o‘rgatish uchun keng va mustahkam poydevor yaratiladi. Miqdor bo‘yicha yetarli ta'lim ham kuchli poydevor yaratadi.

Kundalik harakat va mashg'ulotlar yosh sportchini jismoniy va faol hayot tarziga o‘rgatadi. Jismoniy va faol hayot tarzini qabul qilishni 15 yoshdan keyin

boshlash ancha qiyin. Katta hajmdagi jismoniy mashqlar va mashg‘ulotlar yosh sportchining jasurlik, matonat kabi psixologik fazilatlarini ham mustahkamlaydi.

Jismoniy mashqlar va mashg'ulotlarning yetarli miqdori sportchining rivojlanib borishiga muhim asos bo‘lib, bu yosh sportchining keyingi faoliyatida ko‘plab muhim narsalarga bilvosita ta'sir qiladi. Mashg'ulotning chidamliligi yaxshilangani sayin, chidamlilik va bitta mashqda yuqori sifatli ko‘rsatkichlar soni ortadi. Mashqlarning davomiyligi ham jismoniy faoliyat jarayonida uzaytirilishi mumkin yoki mashqlar haftada tez-tez bajarilishi mumkin.

Raqobatbardosh yosh sportchi o‘z karerasining dastlabki bosqichlarida, agar haftalik mashqlar miqdoriga, masalan, besh soat yetishmayotgan bo‘lsa, sifatning kichik tafsilotlariga e'tibor qaratish befoyda. Jismoniy mashqlar va mashg'ulotlar miqdori o‘z vaqtida tavsiyalar darajasiga ko‘tarilishi kerak va shundan keyingina mashg'ulotlar sifatini yanada oshirishga e'tibor qaratish lozim.

Bolalarning haftalik taqvimiga soat qo‘shish odatda o‘z-o‘zidan yo‘naltirilgan harakat va mashqlarni qo‘shish orqali eng oson hisoblanadi. Maktabga yurish yoki mashq qilish uchun velosipedda yurish yoki harakatli o‘yinlarini qo‘shish haftalik to‘plangan soatlarga yaxshi qo‘shimcha bo’la oladi. Oila bilan qo‘shimcha chang'i sporti yoki piyoda yurish, yugurish hamda suzish havzasi yoki chang'i yonbag'iriga bir nechta qo‘shimcha tashriflar ko‘proq ijobiy tomonga xizmat qilishi mumkin.

Yakka holatda bajariladigan mashqlar 60-120 daqiqa davom etadigan "Asosiy mashqlar" sifatida, balki 10-40 daqiqa davom etadigan kichikroq "Mini-mashqlar" sifatida ham amalga oshirilishi mumkin. “Mini-mashqlar” tarkibiga sportga oid mashqlardan tashqari jismoniy mashqlar bilan yugurish, cho‘zish, turli koordinatsiya va ritm mashqlari, yugurishda mashqlar, sakrash, mushaklarni tayyorlash mashqlari va fitnes to‘pini uloqtirish kiradi. Bularning barchasi turli sport turlari bo‘yicha yosh sportchilar uchun yaxshi umumiy mashqlardir. Mini-mashg'ulotlarni uyning yaqinida, shuningdek, boshqariladigan mashqlar bo‘lgan kunlarda amalga oshirish oson.

Yo‘naltirilgan mashg'ulotlarni qo‘shish mashqlar va mashg'ulotlar soatlarini ko‘paytirishning bir usuli hisoblanadi. Biroq, bu sayohat, jadvallar bo‘yicha qiyinchiliklar va ko‘p hollarda qo‘shimcha xarajatlarni talab qiladi.

O‘z guruhingiz yoki jamoangiz uchun boshqariladigan qo‘shimcha mashqlardan tashqari, ko‘plab klublarda qo‘shimcha va ixtiyoriy qo‘shimcha yoki qo‘shma mashqlar sifatida boshqariladigan mashqlar taklif etiladi.

Haftada bir yoki ikki marta boshqa sport turlari bo‘yicha qo‘shimcha mashg'ulotlar haftalik mashg'ulot miqdoriga psixologik va jismoniy jihatdan mos keladigan qo‘shimcha kuch olib kelishi mumkin.

Amalda, qo‘shimcha soatlar uchun ov qilish dam olish kunlari va bayramlarda jismoniy tarbiya va sport bilan shug’ullanish ham yaxshi natija beradi, qo‘shimcha soatlarni tashkil qilish osonroq, hech bo‘lmaganda taqvim nuqtai nazaridan. Bundan tashqari, turli fasllarda mashqlar va mashg'ulot soatlarining yetishmasligi farq qilishi mumkin.

8-9 soat uxlash, 3 soat sport bilan shug'ullanish va 5-7 marta sog'lom ovqatlanish! Sport bilan shug’ullanish, qolavera atrof muhitga e’tiborli bo’lish lozim, iloji boricha, hatto dam olish kunlarida ham muntazam ravishda jismoniy tarbiya va sport bulan shug’ullanish bolalarning jismonan sog’lom bo’lishligiga xizmat qiladi.

Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish har doim yetarli miqdordagi xilma-xil jismoniy mashqlar va harakatni talab qiladi. Istalgan rivojlanishni amalga oshirish va ortiqcha yuklanish, jarohatlar va kasalliklardan qochish uchun mashg'ulot va dam olish bir-biri bilan muvozanatda bo‘lishi kerak. Organimni tiklanishi va rivojlanishi nuqtai nazaridan, uyqu miqdori va muntazam uyqu ritmi mutlaqo zarurdir. Qayta tiklovchi omillar, shuningdek, muhim qism sifatida, sog'lom ovqatlanishga odatlanish lozim.

Jismoniy rivojlanishning asosiy sharti - ta'lim, jismoniy faoliayt, ovqatlanish va dam olish - bir-biri bilan muvozanatda bo‘lishidir.

Uyquga bo‘lgan ehtiyoj har bir kishida farq qiladi, lekin boshlang'ich maktab o‘quvchilari kuniga o‘n soat, o‘smirlar esa taxminan to‘qqiz soat uxlashlari kerak. Ko‘pincha bolalar va yoshlar, masalan, kompyuterda o‘ynash yoki televizor ko‘rish tufayli kechqurun uxlashda kechiktiriladi, bu esa tungi uyquni juda qisqa qiladi. Ertasi kuni charchoq konsentratsiyaning yetishmasligi, asabiylashish va o‘rganishdagi qiyinchiliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Charchoq sport ish faoliyatini ham yomonlashtiradi va jarohatlar xavfini oshiradi. Kechqurun, siz oldindan yaxshi tinchlanishingiz va har kecha uyqudan oldin bir xil rejimga rioya qilishingiz kerak, bu esa uxlashni osonlashtiradi.

Yetarli miqdordagi mashg'ulotlar va mashqlarga qanday erishish mumkin?

Mashqlar va mashg'ulotlarni haftalik taqvimga qo‘shish dastlab qiyin, ba'zan esa imkonsiz bo‘lib tuyulishi mumkin. Siz soatlarni ehtiyotkorlik bilan oshirib, maqsad sari bosqichma-bosqich ko‘paytirishingiz kerak. Qo‘shimcha soatlarda ov qilish amalda uch xil usulda amalga oshirilishi mumkin: mustaqil harakatni oshirish, mustaqil mashqlarni oshirish va boshqariladigan mashqlarni oshirish kabilar.

Xulosa: Maqolada yosh sportchilar uchun muntazam va yetarli miqdordagi jismoniy faoliyat nafaqat ularning jismoniy ko‘rsatkichlarini rivojlantirishi, balki psixologik fazilatlarini mustahkamlashi qolaversa sport jarohatlaridan saqlanishga yordam beradi. Ushbu maqolada sport mahoratini shakllantirishda asosiy

jismoniy sifatlar va jismoniy mahoratini rivojlantirish zarurligi alohida qayd etilgan. Bundan tashqari, uyqu, ovqatlanish va dam olish muvozanatini ta’minlash, shuningdek, mashqlarni to‘g‘ri rejalashtirish yosh sportchilar rivojlanishining muhim omillari sifatida ko‘rsatilgan. Sportchilarning sog‘lom hayot tarzini shakllantirish jarayonini ertaroq boshlash ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga katta hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

1. А.А.Абдуллаев “ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ НАЗАРИЯСИ ВА МЕТОДИКАСИ” II-жилд Тошкент-2018
2. R.S.Salomov “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati” Toshkent-2014
3. Ф.Жуманова, С.Авазова, Г,Жобборова, У.Хуснетдинов “Умумий педагогика асослари” Укув-услубий кулланма Тошкент-2021
4. B.T.HAYDAROV, G.X.XOLBOYEVA, I.SH.XAMRAQULOVA, D.O’. NAZAROVA, Z.S.MUXTOROVA “BOLALAR JISMONIY TARBIYASI” Usluniy qo’llanma. Samarqand-2022
5. Amirov A.S, Nizomov B.R, Musurmonov H.T “Boshlang’ich sinflarda sport sog’lomlashtirish ishlarini tashkil etish” uslubiy qo‘llanma. Samarqand-2023

DEVELOPING WRITING SKILLS IN FOREIGN LANGUAGE LEARNERS WITH TEACHING METHODS

Axmadjonova Marhabo Maxmudjon qizi
Student, Chirchik state pedagogical university
axmarhabo04@gmail.com
Scientific supervisor: Mukhabbat Anatolevna Yusupova
Head of Linguistics and English Teaching Methodology Department
PhD, Associate Professor Faculty of Tourism, Chirchik state pedagogical university
m.yusupova@cspi.uz

Abstract: *This focus has been a response to the occasional excesses of a process approach to writing instruction. An emphasis on a process approach often disregards the importance of written form and, in effect, takes power away from learners, particularly those from different language or culture backgrounds. For the L2 student, many writing conventions will remain a mystery unless teachers are able to bring these forms and patterns of language use to conscious awareness. Emphasizing the process to the exclusion of the product neglects direct instruction in certain text features, yet students are still evaluated by their control of these features.*

Key words: *approach, L2 student, learners, culture backgrounds, instruction, features, exclusion, patterns.*

INTRODUCTION

In response to these concerns, I developed an ESL instructional unit that cycles content material through different writing tasks, combining writing process approaches, and integrating language skills activities with specific content material and direct instruction on different genre forms. This combines a functional approach to language with the current emphasis on content-centered instruction. I wanted to see if it was possible to increase content knowledge while giving students practice with school-valued ways of writing. The lessons are based on two concepts. The first involves scaffolding or apprenticeship. The teacher occupies a central role in the scaffolding process and must be familiar with the learning situation, the material that is being presented, and the specific features associated with the writing students are going to produce, and must be able to guide students to help them accomplish the goal. Students practice with models to accomplish a task. As the students gain greater control, the teacher’s

role diminishes. Students are expected to progress from the role of active observers to autonomous learners.

LITERATURE REVIEW AND METHODOLOGY

The development of writing skills in foreign language learners has been the subject of extensive research. The term process writing has been bandied about for quite a while in ESL classrooms. It is no more than a writing process approach to teaching writing. The idea behind it is not really to dissociate writing entirely from the written product and to merely lead students through the various stages of the writing process but ‘to construct process-oriented writing instruction that will affect performance’. To have an effective performance-oriented teaching programme would mean that we need to systematically teach students problem-solving skills connected with the writing process that will enable them to realise specific goals at each stage of the composing process. Thus, process writing in the classroom may be construed as a programme of instruction which provides students with a series of planned learning experiences to help them understand the nature of writing at every point. Process writing as a classroom activity incorporates the four basic writing stages – planning, drafting (writing), revising (redrafting) and editing. Process writing in the classroom is highly structured as it necessitates the orderly teaching of process skills, and thus it may not, at least initially, give way to a free variation of writing stages cited earlier. Teachers often plan appropriate classroom activities that support the learning of specific writing skills at every stage. The planned learning experiences for students may be described as follows.Writing capibilities can be enhanced through modelling, brainstorming, assigning pre-writing exercises, developing frameworks and also encouraging re-writing exercises and continuous practise. Encourage learners to practise through variety of creative writing exercises like diaries, journaling,roll a story, story boarding, fornal letters and emails and etc. These practises will help to enhance the overall learning experience in the classroom.

The stage (5-9 classes) at school must provide more intensive development of writing skills in different situations of communication. Topics and capacity o f writing messages is broaden; the quality of produced text in the written form is improved. The content of writing teaching within this stage differs in its informativeness and is built on the authentic material. The samples of an epistolaiy type as letters, cards, articles from newspapers and magazines are used for developing teenagers’ writing skills:

a) to give the information about him/herself, family, school, city/town, interests and hobby;

b)to write a short commentaiy/letter in newspaper or journal with the norms and conventions of native speakers;

c)to write personal data in questionnaire and registration document;

d) to do note-taking (plan, copy out the key words, speech patterns) to use it for production of the text.

In the 5th grades English workbooks, we can identify various types of emails or letters based on writing activities,for instance:

Activity 1. Make notes about you and your town

Activity 2. Write an email to your town to a pen pal.



As depicted in Activity 1, you should point out the full of information about yourself,for example: name, birthday, where you are from. Then you can note your town name and country.

In the Activity 2, you write an email about your town to a pen pal. In this activity, you should describe or demonstrate your email. Email will be reflected this phrases: Dear… your friend’s name and countinue your gaps. At the end of the activity you should describe your best friends then your name. Usually email divided into 2 types. Its include: formal and informal. Formal emails use standard and address those you don’t know well. Moreover, beginner or elementary level pupils does not have a formal writing system. Informal emails are easier than formal and are used to address someone you know well.When you want to write to your pen pal or your best friend you may use informal email. It will be simple and understandable for bestie.It is very exciting and useful exercises for pupils, especially, to increase writing emails and letters, for the reason that, in the second stage, in the upper grades, pupils learn how to write formal letters, essays and other writing skills.

In fact, planning or pre-writing is also appropriate these kind of writing tasks. It is also support pupils to note the functions. You can realize the full of information about planning (pre-writing), group brainstorming, clustering, drafting and editing activities.

Planning (Pre-Writing). Pre-writing is any activity in the classroom that encourages students to write. It stimulates thoughts for getting started. In fact, it moves students away from having to face a blank page toward generating tentative ideas and gathering information for writing. The following activities provide the learning experiences for students at this stage:

Group Brainstorming. Group members spew out ideas about the topic. Spontaneity is important here. There are no right or wrong answers. Students may cover familiar ground first and then move off to more abstract or wild territories.

Clustering. Students form words related to a stimulus supplied by the teacher. The words are circled and then linked by lines to show discernible clusters. Clustering is a simple yet powerful strategy: “Its visual character seems to stimulate the flow of association and is particularly good for students who know what they want to say but just can’t say it”.

Drafting. Once sufficient ideas are gathered at the planning stage, the first attempt at writing – that is, drafting – may proceed quickly. At the drafting stage, the writers are focused on the fluency of writing and are not preoccupied with grammatical accuracy or the neatness of the draft. One dimension of good writing is the writer’s ability to visualise an audience.

Although writing in the classroom is almost always for the teacher, the students may also be encouraged to write for different audiences, among whom are peers, other classmates, pen-friends and family members. A conscious sense of audience can dictate a certain style to be used. Students should also have in

mind a central idea that they want to communicate to the audience in order to give direction to their writing.

Revising. When students revise, they review their texts on the basis of the feedback given in the responding stage. They reexamine what was written to see how effectively they have communicated their meanings to the reader. Revising is not merely checking for language errors (i.e.,editing). It is done to improve global content and the organisation of ideas so that the writer’s intent is made clearer to the reader.

Editing. At this stage, students are engaged in tidying up their texts as they prepare the final draft for evaluation by the teacher. They edit their own or their peer’s work for grammar, spelling, punctuation, diction, sentence structure and accuracy of supportive textual material such as quotations, examples and the like. Formal editing is deferred till this phase in order that its application not disrupt the free flow of ideas during the drafting and revising stages.

A simple checklist might be issued to students to alert them to some of the common surface errors found in students’ writing. For instance:

- Have you used your verbs in the correct tense?
-Is the verb forms correct?
-Have you checked for subject–verb agreement?
- Have you used the correct prepositions?
-Have you left out the articles where they are required?
-Have you used all your pronouns correctly?

The students are, however, not always expected to know where and how to correct every error, but editing to the best of their ability should be done as a matter of course, prior to submitting their work for evaluation each time. Editing within process writing is meaningful because students can see the connection between such an exercise and their own writing in that correction is not done for its own sake but as part of the process of making communication as clear and unambiguous as possible to an audience.

RESULTS AND DISCUSSION

The results of my study indicate that this approach may offer ESL students valuable practice in various school-valued ways of writing while they learn content material and work through steps in the writing process. The role of genre in content writing instruction should emerge naturally from the material. Caution should be exercised not to turn genre instruction into a formulaic type of instruction in which students are simply instructed to manipulate certain features. Rather, students must learn to respond to the informational and organizational demands of various settings. Instruction needs to provide a scaffolding so that

students can progress toward more academically valued ways of writing, learn content material, and have a better chance to experience success in school.

The focus on the writer has led to the process approach which lays stress on the activities which move students from the generalization of ideas and collection of data to the production of texts (more publication). The process approach is the dynamic, creative, unpredictable and non-liner writing. It emphasizes the writing process over the product, which is recognized as recursive process (the stages are recursive or non-liner) that encourages student to explore topics through writing.

This approach is more beneficial for advanced students, because it belongs to the creative writing and demands complicated mental operations and activities as thinking, revising and editing. The process of creation o f a written product follows getting ideas, getting started, writing drafts and revising. That’s why, during creation of the written product the following stages are organized: 1) prewriting; 2) composition/drafting; 3) revising; 4) editing.

"Writing is characterized by the tree-phase structure: 1) inducement-motivation, 2) analytical-syntactical and 2) operation. Under the first phase the motive appears as an intention to communicate. The author’ s message has an intention to inform somebody.

In the second phase an utterance is formed and pronounced: the necessary words for producing the utterance are selected, within a set of sentences, subjective area of indicators is distributed, the predicate or a key part of the idea organization between sentences is defined.

The third phase of writing is decoding of the idea/message with the help of graphical symbols. In the ELT the writing is the goal and means of teaching and learning. The goal of teaching writing is to teach production of written texts which students can write in the mother tongue. To produce the written text students should master mechanics of writing. That’s why, in domestic methodology the two types of writing are distinguished: 1) mechanics of writing (handwriting, spelling, punctuation); 2) process of expressing ideas in a graphical form. Writing is meant as acquiring graphical and orthographical systems of EL by students for fixation speech and language material to remember it and support acquiring oral speech. Modern approaches to teaching writing recognize its dual purpose: as a means (a support skill) and as an end (communicative skill).

Focus group discussions revealed that students appreciated the structured approach of the process writing method, which allowed them to focus on each stage of writing without feeling overwhelmed. Many participants noted that they became more confident in their abilities to revise and edit their work. Students in the genre-based group expressed that understanding different writing styles helped them tailor their writing to specific audiences and purposes. Meanwhile,

those in the collaborative writing group highlighted the benefits of peer feedback and support in reducing anxiety associated with writing.

I used several types of pre- and post-assessment measures to determine changes in student writing, content knowledge, and attitudes. All reflected a positive change. Through a focus on language use and the genre demands of different ways to organize information, students also mastered content material while gaining greater skill with various school-valued ways of writing.

Conclusion: Developing writing is a significant skill in our globalized world. The teaching of writing has assumed much greater importance in recent years with the arrival of new forms of rapid written communication. Writing is fundamentally different from other four skills, not only because it is visual as contrasted with oral/aural,or productive as contrasted with receptive, but also because of how it is produced and the way it communicates. Most people acquire the spoken language intuitively, whereas the written form is normally taught and learned in school. Literate people are more respected, in general, than the illiterate. Writing gives learners the opportunity to try out the language with plenty of thinking time. Writing allows learners to practice new structures in an extended context. Writing can provide more variety in class work. Moreover, writing process is based on grammar and lexis, punctuation.We have seen that writing cannot normally be ’picked up’ but has to be systematically taught. This means that we actually need to devote a lot of attention to teaching it, even though it is actually used by most people far less than the other skills.

REFERENCES

1. Bereiter, C., & Scardamalia, M. (1987). *The psychology of written composition.* Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.

2. D’Aoust, C. (1986). Teaching writing as a process. In *Practical ideas for teaching writing as a process*. Sacramento: California State Department of Education.

3. J.J.Jalolov.(2015). “Fan va texnologiya nashriyoti”. 336b. ISBN 97-9943-990-74-6. Page 198

4. Jamol Jalolov.(2012). Foreign Language Teaching Methodology. “O’qituvchi” NMIU, 290b

5. Langer, J. (1986). *Children reading and writing: Structures and strategies*. Norwood, NJ: Ablex.

6. Lynne Marie Robertson.(2021). Cambridge University Press. University Printing House. -Page 9

OVQAT HAZM QILISHI SISTEMASI ANATOMIYASI, FIZIOLOGIYASI, PATOLOGIYASI VA DAVOLASH USULLARI

Jaloliddinova Zulfiyaxon Ulug‘bek qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Tabiiy fanlar” fakulteti
Biologiya yo’nalishi 3-kurs 22/3-guruh talabasi
Atabayeva D.T
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Biologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
atabayeva1982@mail.ru

Annotatiya: *Hozirgi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida hazm kasalliklari, xususan semizlik, infarkt va qandli diabet JSST ning muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda. Texnologiyalar rivojlangani sari kamharakatlilik ham ko‘paymoqda. Bu esa o‘z navbatida, nafaqat hazm yurak qon-tomir, ayirish sistemalari kasalliklarini keltirib chiqarmoqda.*

Kalit so’zlar: *semizlik, ovqat hazm qilish, oshqozon, ingichka ichak, yo‘g‘on ichak, gastrit, enterit, botulizm.*

Аннотация: *В настоящее время расстройства пищеварения, особенно ожирение, сердечные приступы и диабет, остаются одной из основных проблем ВОЗ во многих странах мира. По мере развития технологий растет и малоподвижность. А это, в свою очередь, вызывает заболевания не только пищеварительной, но и сердечно-сосудистой, пищеварительной систем.*

Ключевые слова: *ожирение, пищеварение, Желудок, толстая кишка, толстая кишка, гастрит, энтерит, ботулизм.*

Annotation: *Nowadays, in many countries of the world, digestive diseases, in particular obesity, heart attack and diabetes mellitus, remain one of the important problems of the WHO. With the development of technologies, there is also an increase in versatility. This, in turn, is not only causing diseases of the digestive cardiovascular, subtraction systems.*

Keywords: *obesity, digestion, stomach, larynx, colon, gastritis, enteritis, botulism.*

KIRISH

Ovqat hazm qilish murakkab fiziologik jarayon bo‘lib, bunda ovqat fizik va kimyoviy o'zgarishlar natijasida mayda zarrachalarga parchalanib, oshqozon va ichak bo‘shlig‘idan qon hamda limfa tomirlariga so‘riladi.

Ovqat og‘iz bo‘shlig‘ida tishlar yordamida, oshqozonda va ichaklarning mayatniksimon hamda peristaltik harakati natijasida maydalanishi **fizik o‘zgarish** deb ataladi. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘, uglevodlarning fermentlar ta’sirida parchalanishi **kimyoviy o‘zgarish** deb ataladi.

Insonda ovqat hazm qilish sistemasi quyidagilardan iborat: og‘iz bo‘shlig‘i; hiqildoq; qizilo‘ngach; oshqozon; ingichka ichak; yo‘g‘on ichak; jigar; o‘t pufagi; me’da osti bezi.

Ovqat birinchi navbatda organizmda **og‘iz bo‘shlig‘i** orqali kirib mexanik parchalanishga uchraydi. So‘lak bezlari yordamida esa kimyoviy parchalanadi.

Halqum - burun va og‘iz bo‘shlig‘ining davomi bo‘lib, vazifasi ovqatni og‘iz bo‘shlig‘idan qizilo‘ngachga, havoni burun bo‘shlig‘idan hiqildoqqa o‘tkazishdan iborat.

Qizilo‘ngach – vazifasi ovqatni tomoqdan oshqozonga o‘tkazishdan iborat.

Oshqozon (me’da) – oshqozonda 14 millionga yaqin hazm bezlari bor: pepsin, lipaza, HCl va boshqalar. Pepsin – ovqat tarkibidagi oqsillarni, lipaza esa yog‘larni parchalaydi. HCl ning vazifasi pepsinning faolligini oshirishdan iborat. 1 kecha-kunduzda 3 litrga yaqin me’da shirasi ajralib chiqar ekan.

Me’dada ovqatlar 3-8 soatgacha hazm bo‘ladi.

Ingichka ichak – ingichka ichakning mayatniksimon harakati yordamida ovqat ichak bilan aralashadi. Peristatik harakati yordamida ovqat moddalari ichak bo‘shlig‘i bo‘ylab yuqoridan pastga tomon siljishni ta’minlaydi.

Yo‘g‘on ichak - ingichka ichakning davomi bo‘lib, 6 qismdan iborat bo‘ladi. Yo‘g‘on ichakda asosan suv, mineral tuzlar so‘riladi, K vitamini sintezlanadi. Bu yerda ovqat qoldig‘i quyilib, axlat ko‘rinishida to‘g‘ri ichak orqali tashqariga chiqariladi.

Me’da-ichak kasalliklari

Hazm kasalliklari ichki kasalliklar orasida muhim o‘rin egallaydi. Bu holat mazkur kasalliklarning ayniqsa, yosh mehnatga qobiliyatli aholi orasida keng tarqalishi bilan bog‘liq. Hazm tizimiga doimo tashqi muhit omillari, ovqatlanish tartibi va tabiati o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yangi endoskop va ultratovush tekshiruvlari usullari paydo bo‘lishi hamda xastalikni oldini olish va davolashdagi yutuqlar natijasida gastroenterologiya oxirgi 30 yil ichida juda tez rivojlandi.

Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklariga quyidagilar kiradi:

1-Noto‘g‘ri ovqatlanish: haddan tashqari yog‘li, qovurilgan, achchiq yoki shirin ovqatlarni ko‘p iste’mol qilish oshqozon va ichaklarga zarar yetkazadi.

2-Zararli odatlar: tamaki chekish va alkogol mahsulotlarini iste’mol qilish, doimiy stress ham hazm qilishga salbiy ta’sir qiladi.

3-Bakteriya va infeksiyalar: bakteriyalar, viruslar va zamburug‘lar oshqozon-ichak tizimiga kirib, shilliq qavatlarni yallig‘laydi.

4-Genetik moyillik: ba’zi kasalliklar irsiy omillarga ham bog‘liq (masalan, semizlik)

Og‘iz bo‘shlig‘i – oshqozon-ichak tizimining bunda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar oshqozon-ichak kasalliklarining birlamchi belgisi bo‘lishi mumkin. Hozirgacha eng keng tarqalgan og‘iz kasalligi bu og‘iz bo‘shlig‘ida to‘lanuvchi tuz, ya’ni blyashka kasalligidir. Bundan tashqari yana gingvint, periodontit, tish kariesi kabi kasalliklar ham og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklariga kiradi.

Qizilo‘ngach kasalliklariga qizilo‘ngachga ta’sir qiluvchi omillarni o‘z ichiga oladi. Qizilo‘ngach kasalliklariga quyidagilar kiradi:

1-Gastroezofagial reflyuks – kislotali me’da suyuqligi qizilo‘ngach orqasiga oqib o‘tadigan holat. Bu kasallik surunkali shakllarda qizilo’ngachning epiteliy qavatining o’zgarishiga olib keladi.

2-Ezofagit – qizilo‘ngachning yallig‘lanish kasalligi. Surunkali kasalliklarga qizilo‘ng‘ach to‘ri kabi tug‘ma kasalliklar, shuningdek, qizilo‘ng‘ach harakatining buzilishi, shu jumladan, axalaziya (qizilo‘ng‘achning pastki qismidagi mushaklarning bo‘shashmasligi, oziq-ovqatning oshqozonga o‘tishiga to‘sqinlik qiladigan holat), qizilo‘ng‘achning tarqoq spazmi va strukturasi kiradi.

Qizilo‘ng‘ach kasalligi tomoq og‘rig‘i, qon qusish, yutish qiyinlashuvi yoki qayt qilishga olib keladi. Surunkali yoki tug‘ma kasalliklar yutish, endoskopiya va biopsiya yordamida, reflyuks kabi o‘tkir kasalliklar esa faqat simptomlar va tibbiy tarix asosida tekshiriladi yoki tashxis qo‘yiladi.

Qizilo‘ngach saratoni qizilo‘ngachda paydo bo‘ladigan saratondir. Odatda, qizilo‘ngach saratoni qizilo‘ngachning ichki qismini qoplaydigan hujayralarda paydo bo‘ladi. Bu kasallikka erkaklar ayollarga qaraganda ko‘proq chalinishadi.

Qizilo‘ngach saratonining aniq sababi hali ham ma’lum emas. Kasallik hujayralar DNKidagi mutatsiyalar tufayli yuzaga keladi, bu hujayralarning anormal ko‘payishiga olib keladi. Ortiqcha hujayralar o‘simta hosil qiladi, o‘sadi va davolanmasa, boshqa organlarga tarqaladi.

Qizilo‘ngach saratonining aniq sabablari hali ma’lum emas. Kasallik hujayralar DNK sidagi mutatsiyalar tufayli yuzaga keladi, bu hujayralarning noteng bo‘linishiga olib keladi. Ortiqcha hujayralar o‘simta hosil qiladi, o‘sadi va davolanmasa, boshqa organlarga tarqaladi.

Kasallikning paydo bo‘lishiga semirib ketish, axalaziya, yomon turmush tarzi, doimiy ravishda issiq ichimliklar ichish, radiatsiya va shunga o‘xshash belgilar sabab bo‘ladi.

Qizilo‘ngach saratonining quyidagi turilari mavjud:

1-Skuamoz hujayrali karsinoma – saratonning bu turi qizilo‘ngachning ichki qoplamini tashkil etuvchi ingichka hujayralarda rivojlanadi. Ular qizilo‘ngach shilliq qavatining istalgan joyida paydo bo‘lishi mumkin.

2-Adenokarsinoma – qizilo‘ngachda asosan suyuqlik ishlab chiqarish uchun mas’ul bo‘lgan bez hujayralarida rivojlanadi. Ushbu turdagi saraton ko‘pincha qizilo‘ngachning oshqozonga yaqin qismida paydo bo‘ladi.

Bundan tashqari yana kichik hujayrali karsinoma, melanoma, limfonoma, va boshqa turlari mavjud.

Qizilo‘ngach saratonining umumiy belgilari quyidagilardan iborat: yutishda noqulaylik, qiyinchilik va og‘riq, ovozning xirillashi, surunkali qattiq yo‘tal, vazn yo‘qotish, oshqozonda kislotaning ko‘payishi, ko‘krak qafasidagi og‘riq, qusish kabilar.

Kasallikni davolash usuli ko‘p jihatdan hujayra turiga bog‘liq boladi, ammo shikorlar tomonidan tavsiya etilgan eng keng tarqalagan davolash usullari bor, bular:

1-Jarrohlik aralashuvi - ba’zi operatsiyalar saraton o‘simtasini olib tashlashga qaratilgan bo‘lsada, jarrohlikning boshqa shakllari saratonning kelib chiqishi va tarqalishiga qarab qizilo‘ngach yoki oshqozonning yuqori qismini olib tashlashi mumkin.

2-Kimyoterapiya – u tanadagi saraton hujayralarini yo‘q qilishga qaratilgan va faol saraton hujayralarining tarqalishini oldini oladi. Bu usul samarali bo‘lsa ham soch to‘kilishi, ko‘ngil aynishi, kabi yondosh ta’sirlar bilan birga kelishi mumkin.

3-Radiatsiya bilan davolash – davolashning bu shakli simptomlarni ham yengillashtirishi mumkin. Biroq, radiatsiya ta’sirida og‘riq, yutish qiyinligi, terining kuyishi kabi alomatlarga olib keladi.

4-Immuno-davolash – saraton kasalligini davolashning yangi turi bo‘lib, unda organizmning immun tizimini o‘z-o‘zidan saron bilan kurashishiga yordam beradi.

Ovqat hazm qilish kasalliklarining keng tarqalganlaridan yana biri bu gastritdir.

Gastrit – bu oshqozon shilliq qavatining yallig‘lanishidir. Kasallikda oshqozon o‘zining normal vazifasini bajara olmaydi: taomlar yaxshi hazm bo‘lmaydi, buning natijasida holsizlik va kamquvvatlik yuzaga keladi. Kasallik davomida qorin bo‘shlig‘ida og‘riq, shuningdek, ko‘ngil aynishi, ich qotishi va ishtahaning pasayishi kuzatiladi. Gastritning rivojlanishining quyidagi sabablari mavjud:

1-Helicobacter pylori bakteriyasi – kasallikni 85% holatda shu bakteriyalar paydo qiladi. Uzoq vaqtgacha olim va shifokorlar bu bakteriyani mavjudligni bilishmagan. Bu kasallikni bakteriyalar rivojlantirishini 2005-yilda Barri Marshall kashf etgan. Bu bakteriya odamdan odamga ko‘proq maishiy yo‘llar bilan o‘tadi.

2-Tartibsiz ovqatlanish

3-Alkogol

4-Dorilar – bemorlarning taxminan 20% ida kasallik shamollashga qarshi preparatlar, antibiotiklar, insulin, glyukokortikoid gormonlar va va shunga o‘xshash vositalarni uzoq vaqt noto‘g‘ri qo‘llash natijasida sodir bo‘ladi.

5-Gijjalar

So‘nggi ilmiy kashfiyotlar sharofati bilan bugunga kelib gastrit muvafaqqiyatli davolanib kelinmoqda. Biroq, ba’zi odamlar agar kasallik ko‘p bezovta qilmasa, tashxisga e’tibor bermaslik mumkin, deb hisoblashadi. Ammo bunday yondashuv xavfli: oshqozon faoliyati buzilishi o‘z vaqtida davolanmasa, u yaraga aylanishi mumkin, Bundan tashqari bu yillar oralig‘ida paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan saratonga olib keladi.

Kasallikni davolashning oson yo‘li erta bosqichlardayoq gastroenterolog ko‘rigiga borishdir.

Xulosa: Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari ko‘plab sabablar tufayli kelib chiqadi va har bir kasallikning o‘ziga xos davolash usullari mavjud. Profilaktika va to‘g‘ri ovqatlanish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik va psixologik barqarorlik ovqat hazm qilish tizimining salomatligini ta’minlashda asosiy o‘rin tutadi. Agar kasallik alomatlari paydo bo‘lsa, o‘z vaqtida shifokor bilan maslahatlashish kasallikning surunkali shakllariga aylanishining oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. L. N. Egamberdiyeva, I. A. Allanazarova, D. T. Atabayeva – “Odam anatomiyasi va fiziologiyasi” o’quv-qo’llanma, Chirchiq, 2024-yil

2. “An overview on oral manifestations of gastrointestinal diseases“ (inglizcha). Italian Journal of Dental Medicine (31-dekabr 2018-yil).

3. Davidson's principles and practice of medicine., Illustrated by Robert Britton., 21st Nicki R. Colledge: , Edinburgh: Churchill Livingstone/Elsevier, 2010. ISBN 978-0-7020-3085-7.

4. „Esophagus Disorders“. Medline Plus. U.S. National Library of Medicine. Qaraldi: 23-dekabr 2013-yil.

5. F. I. Kamarov, V. G. Kukes, A. S. Smentyov – “Ichki kasalliklar”, Tibbiyot nashroyoti, Moskva 1981-yil.

6. R. A. Ramazonova, Yu. G. Syomina – “Tibbiyot hamshiralari o’quv-qo’llanmasi”, O’qituvchi nashriyoti

7. S. N. Bobojonov – “Ichki kasalliklar”, Abu Ali i0bn Sinonashriyoti, Toshkent 2003-yil

8. O’. P. Sharopov – “Ichki kasalliklar”, Abu Ali ibn Sino nashriyoti, Toshkent 1994-yil

METILASETAT ISHLAB CHIQARISH JARAYONIDA KATALIZATORLARDAN FOYDALANISH VA ULARNING SAMARDORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

Xatamova Muxabbat Sattarovna
k.f.n., Kimyo kafedrasi professor v.b., Navoiy davlat universiteti
Omanov Behruzjon Shuhrat o‘g‘li
t.f.(PhD), Kimyo kafedrasi dotsenti, Navoiy davlat universiteti
Vafoqulov Komiljon Mustafoqul o‘g‘li
Magistr, Navoiy davlat universiteti

Annotatsiya. *Murakkab efirlar – organik erituvchilar ishlab chiqarishda muhim birikmalar hisoblanadi. Murakkab efirlarga mansub bo‘lgan metilasetat ishlab chiqarishda yangi katalizatorlar samardor vosita sifatida qo‘llanila boshladi. Garchi, katalizatorlar metilasetat ishlab chiqarish jarayonida samarador bo‘lsada uning sifatini yanada mustahkamlash, xususiyatlarini oshirish haqida to‘liq ma’lumotga ega emasmiz. Ushbu maqolada yuqori sifatli organik erituvchi sifatida keng qo‘llaniluvchi metilasetat ishlab chiqarishda ishlatiladigan katalizatorlarning bir qancha xususiyatlarini ko‘rib chiqamiz. Biz yangicha katalizatorlaning xossa xususiyatlarini ma’lumotlar to‘plab atroflicha o‘rganib chiqdik va ushbu ma’lumotlar asosida tajribalar olib bordik. Bundan tashqari, metilasetatning sifatini yanada mustahkamlash borasida atroflicha ma’lumotlar o‘rgandik. Biz tavsiya qilayotgan yangi katalizatorlar metilasetat ishlab chiqarish jarayonida yuqori natija berishini aniqladik. Olingan natijalar asosida, olingan mahsulotning tan narxi bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqdik. Ushbu tadqiqotimiz yangi katalizatorlarning xususiyatlari bilan birgalikda uning yuqori sifatli metilasetat ishlab chiqarishdagi ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot organik erituvchilarning kimyo sanoatidagi roli haqida ma’lumot beradi.*

Kalit so‘zlar. *Murakkab efirlar. Organik erituvchilar. Metilasetat. Katalizatorlar.*

Аннотация. *Сложные жизни являются важными соединениями в производстве органических растворителей. Новый катализатор начался как инструмент в производстве метибелянного размножения, разгрузки. Хотя катализаторы не полностью информируются о дальнейшем укреплении его качества, укреплении его качества, в то время как катализатор эффективен в производственном процессе. В этой статье мы рассмотрим несколько особенностей катализаторов, используемых при изготовлении метилики, широко используемых в качестве*

высококачественного органического решения. Мы ускорили свойства нового катализатора и изучили информацию и экспериментировали на основе этой информации. Мы также узнали подробную информацию о дальнейшем укреплении качества метитата. Новые катализаторы, которые мы рекомендуем, мы обнаружили, что метилат дает высокий уровень производственного процесса. Мы рассмотрели проблемы, связанные с распознаванием продукта, полученного на основе полученных результатов. Это исследование объясняет важность его высококачественного метилетата вместе с особенностями новых катализаторов. В то же время это исследование предоставляет информацию о роли органических растворителей в химической промышленности.

Ключевые слова. *Сложные самолеты. Органические растворители. Метилкастат. Катализаторы.*

Abstract. *Sophisticated lives are important compounds in the production of organic solvents. New catalyst began as a tool in the production of methyletical breeding, unloading. Although, catalysts are not fully informed of further strengthening its quality, strengthening its quality, while catalyst is effective in the production process. In this article, we will look at several features of catalysts used in the manufacture of methylicat as widely used as a high quality organic solution. We have accelerated the properties of a new catalyst and examined the information and experiminated on the basis of this information. We also learned detailed information about further strengthening the quality of methyletate. The new catalysts we recommend We found that the methyletate yields high in the production process. We have considered issues related to the recognition of the product obtained based on the results obtained. This study explains the importance of its high quality methyletate together with the features of new catalysts. At the same time, this study provides information on the role of organic solvents in the chemical industry.*

Keywords. *Complex aircraft. Organic solvents. Methylcastate. Catalysts.*

Kirish

Yangi katalizatorlar yaratish, organik erituvchi sifatida metilasetat ishlab chiqarishda muhim jarayonga aylandi. Metan asetatsiyasini metanol va sirka kislota yordamida ishlab chiqarish hamda turli katalizatorlar va usullardan foydalangan holda o‘rganilgan. Amberlyst™ 15 va Zeolit katalizatorlar reaktsiyani samarali katalizatsiya qilish uchun topildi, yuqori harorat va katalizator konsentratsiyalarida ko‘payishi (Şah Ismail Kirbaslar et al., 2001). Shu

sababli metilasetat ishlab chiqarishda katalizatorlar qo‘llash tobora qulay bo‘lib bormoqda, chunki katalizatorni qo‘llash metilasetatning sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi. Tadqiqotlar davomida ushbu jarayon bilan individual va jamoaviy ishlovchi soha vakillari paydo bo‘ldi. Plazma kataliz usuli (Xaydarov Feruz Anarboyevich. Safarov Mehriddin. Va boshq 2024), Ni katalizatorlari orqali ishlab chiqarish (J.Chem. Phys. 122, 2005), Reaktivda metilasetat gidrolizi (S.Sander, C.Flisch, E.Geysler…..2006) kabi atamalar ilmiy munozaraning tarkibiy qismi hisoblanadi. Katalizatorlar yordamida metilasetat ishlab chiqarish jarayoni endilikda yangilik emas, yuqorida keltirilgan atamalar uning tarkibiy qismi hisoblanadi. Metil asetat sintezi uchun katalizatorlar, kinetika va reaktiv distillatsiya. Ikki yangi kislotali kation-almashuvchi qatronlar – NKC-9 va D072 birinchi marta sirka kislotasining metanol bilan esterifikatsiyasini katalizlash uchun ishlab chiqilgan. Metil asetat sintezining kinetikasi 45–60°C harorat oralig‘ida, atmosferik bosim ostida, reaktivlarning molyar nisbati (metanol: sirka kislotasi) 0,8 dan 1,3 gacha bo‘lgan sharoitlarda, partiyali reaktorda o‘tkazilgan tajribalar asosida aniqlangan. (Cuncun Zuo, Langsheng Pan, Shasha Cao, Chunshan Li, Suojiang Zhang. Industrial & Engineering Chemistry Research 53 (26), 10540-10548, 2014). Metilasetat va tegishli birikmalarning katalitik sintezi turli xil yondashuvlar yordamida o‘rganildi. Metilasetat sintezining bir usuli past haroratda boshlanib, keyinchalik yuqori harorat sharoitida davom etadi. Bu jarayonda katalizator sifatida mineral asosli moddalar yoki qattiq kislotalar qo‘llaniladi. Shuningdek, reaksiya davomida trioksan (trioksan) birikmasi ishtirok etib, esterifikatsiya jarayonini tezlashtiradi va mahsulotning hosil bo‘lish samaradorligini oshiradi. (Wang va boshqalar., 2018) Boshqa bir yondashuv esa metanol va sirka kislotasining esterifikatsiyasini kataliz qilish uchun kislotali kation-almashuvchi qatronlardan foydalanadi, bunda reaksiyaning kinetikasi turli sharoitlarda o‘rganilgan (Zuo va boshqalar., 2014). Metilasetatning etilasetatga reduktiv karbonillanishi turli katalizatorlar yordamida tadqiq qilingan bo‘lib, ruteniy-kobalt birikmalari eng yaxshi natijalarni ko‘rsatgan (Kheradmand va boshqalar., 1982). Bundan tashqari, etiliden diatsetat sintezida metilasetatning bevosita karbonillanish jarayoni rodiy-palladiy asosli katalizatorlar, yodid ionlari va asosiy promotorlar ishtirokida amalga oshirilgan. Natijada, yuqori konversiya va mahsulotning yuqori hosildorligi ta’minlangan. (Kudo va boshqalar., 1985). Ushbu tadqiqotlar metilasetat va unga tegishli efirlarning sintezi uchun turli katalitik yondashuvlar va reaksiya sharoitlarini namoyon etib, ularning sanoatdagi potensial qo‘llanilishi haqida tushuncha beradi. Tabiiyki, katalizatorlar yaratilganidan beri ularning tuzilishi takomillashib, yuqori samaradorlik va selektivlikka ega yangi moddalar ishlab chiqilgan. Shu sababli, katalizatorlarni tayyorlash, ularning metilasetat sintezidagi roli, fizik-kimyoviy xossalari va

texnologik ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqotlar katalizatorlarning samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga yordam beradi. Yaratilgan katalizatorlar sulfat kislota va boshqa to‘ldiruvchi qo’shimchalar asosida tayyorlangan. Katalitik distillash jarayonning samaradorligini oshirishi mumkin, shu bois ustun ichki tuzilishining dizayni alohida e’tiborni talab qiladi. Yuqori ajratish samaradorligi, keng yuklash oralig‘i va samarali kataliz jarayonini ta’minlash uchun optimal sharoit yaratishi lozim. Ushbu ishda ko‘p yillik tajribalar asosida bosimning pasayishi, yuklash oralig‘i va ajratish samaradorligining asosiy xususiyatlari eksperimental ravishda aniqlanadi. Katalitik distillash jarayonlari murakkab bo‘lib, ularning samaradorligi konteynerni tushirish tezligi va ish sharoitlari kabi omillarga bog‘liq. Ushbu jarayonni tavsiflash uchun, samaradorlikning ushbu omillarga bog‘liq ravishda qanday o‘zgarishini ifodalovchi matematik korrelyatsiyalar qo‘llaniladi. Bu esa jarayonni optimallashtirish va ajratish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu model Aspen Custom Modeler muhitida joriy etilib, metilasetat sintezi bo‘yicha olingan eksperimental ma’lumotlar bilan solishtirildi. Model jarayonning umumiy dinamikasini to‘g‘ri aks ettiradi, biroq simulyatsiya natijalari va eksperimental ma’lumotlar o‘rtasida ba’zi farqlar mavjudligi kuzatildi. (Andrzej Gorak, Achim Hoffmann AIChE Journal 47 (5), 1067-1076, 2001). Yangi katalizatorlarning xossa-xususiyatlarini qay tarzda rivojlantirish mumkin.

Biz tadqiqotimizga metilasetat ishlab chiqarish jarayoni va unda ishlatiladigan katalizatorlarning xususiyatlarini nazariy jihatdan o‘rganib ushbu bilimlarga tayangan holda amaliy tajribalar olib borish jarayonlari orqali yondashdik. Nazariy ma’lumotlar asosida olib borilgan tajribalar metilasetat ishlab chiqarish jarayonida sulfat kislota va qo‘shimchalar asosida tayyorlangan katalizatorlar yordam berishini izohlaydi. Shuningdek, mazkur tadqiqot metilasetat ishlab chiqarish jarayonida vujudga keladigan muammolarni bartaraf etishga hissa qo‘shadi. Bundan tashqari, olingan katalizator ishlab chiqarishni nazorat qilish, katalizatorlarning xossa-xususiyatlarini yanada takomillashtirishga samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Metilasetat (CH_3COOCH_3) — organik erituvchi bo‘lib, kimyo sanoati, bo‘yoqlar, lentalar va plastmassa ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi. Mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida katalizatorlardan foydalanish, jarayon samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Katalizatorlar kimyoviy reaksiyalarning tezligini oshiradi va jarayonning mexanizmini o‘zgartiradi. Ular reaksiyaga kirishayotgan reagentlar bilan oraliq birikmalar hosil qilib, umumiy jarayonni tezlashtiradi. Metilasetat ishlab chiqarishda katalizatorlardan foydalanish jarayon samaradorligini oshirib, energiya sarfini kamaytiradi va ekologik toza

texnologiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul kimyoviy chiqindilar miqdorini qisqartirish orqali atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, katalizatorlarning qo‘llanilishi energiya tejamkorligini ta’minlab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish orqali iqtisodiy foyda keltiradi. Ularning samaradorligini oshirish va yangi katalizatorlarni ishlab chiqish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekistonlik olimlar ham katalizatorlar sohasida ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Masalan, prof. Dodaxo‘jayev A.T. kimyo sanoati uchun bir necha katalizatorlar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratdi va sanoatga joriy etdi. Umuman olganda, metilasetat ishlab chiqarishda katalizatorlardan foydalanish jarayonning samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Metilasetat (CH_3COOCH_3) sintezida turli katalizatorlar qo‘llaniladi, bu esa jarayonning samaradorligi va mahsulot sifatiga ta‘sir qiladi. Quyida ba’zi usullar va ularda ishlatiladigan katalizatorlar keltirilgan:

1. Esterifikatsiya usuli (metanol va sirka kislotasidan):

Kislota katalizatorlari:

Sulfat kislota (H_2SO_4): Ushbu kuchli kislota esterifikatsiya jarayonida samarali katalizator sifatida ishlatiladi, reaksiya tezligini oshiradi va yuqori konversiya darajasiga erishishni ta’minlaydi.

p-Toluolsulfon kislotasi (PTSA): Organik kislota esterifikatsiya reaksiyalarida samarali katalizator bo‘lib, reaksiya tezligini oshiradi va yuqori hosildorlikni ta’minlaydi..

Fosfor kislotasi (H_3PO_4): Ba’zi hollarda fosfor kislotasi ham katalizator sifatida qo'llaniladi.

Amberlist-15: Bu kislota ion almashinuvchi qatron bo‘lib, esterifikatsiya jarayonida katalizator sifatida qo‘llaniladi.

2. Karbonilatsiya usuli (metanol va karbon monooksiddan):

Metal-kompleks katalizatorlar:

Rodiy (Rh) yoki kobalt (Co) asosidagi katalizatorlar: Ushbu metallar asosidagi katalizatorlar karbonilatsiya jarayonida qo‘llaniladi.

Yodid ionlari (masalan, CH_3I): Yodid ionlari katalizatorlarni faollashtirishda yordam beradi.

3. Metanol va metil atsetat angidridi reaksiyasi:

Kislota katalizatorlari: Sulfat kislota yoki Lewis kislotalari (masalan, $AlCl_3$, $ZnCl_2$) katalizator sifatida ishlatiladi.

4. Heterojen katalizatorlar:

Fe/SBA-15 katalizatori temir bilan modifikatsiyalangan **SBA-15 mezog‘ovakli kremniy dioksidi (Fe/SBA-15)** katalizatori metilasetat (CH_3COOCH_3) sintezida samarali qo‘llaniladi. Katalizator tanlovi jarayonning ish sharoitlari, iqtisodiy

samaradorlik va ekologik talablarga javob berish darajasi asosida amalga oshiriladi. Metilasetat odatda **metanol va sirka kislotasi yoki sirka angidridi** reaksiyasi natijasida olinadi. Ushbu jarayon odatda kuchli kislota katalizatorlari, masalan, sulfat kislotasi (H_2SO_4), zeolitlar yoki qattiq kislota katalizatorlari ishtirokida amalga oshiriladi. Mahalliy katalizatorlardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar **Fe/SBA-15** kabi katalizatorlarning narxi, ekologik xavfsizligi va samaradorligi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday katalizatorlar nafaqat reaksiya selektivligini oshirish va energiya sarfini kamaytirish, balki ekologik jihatdan xavfsiz va barqaror texnologiyalarni rivojlantirish imkonini ham beradi.

Mahalliy katalizatorlar sifatida foydalanish mumkin bo‘lgan materiallar:

1. Tabiiy zeolitlar – O‘zbekistonda va boshqa mintaqalarda uchraydigan tabiiy zeolitlar sulfat yoki fosfat kislotasi bilan modifikatsiya qilingandan so‘ng, ularning kislotalik xususiyatlari oshib, samarali kislota katalizatori sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu jarayon zeolitlarning katalitik faolligini yaxshilaydi va ularni turli kimyoviy reaksiyalar, jumladan, esterifikatsiya va metil asetat sintezida qo‘llash imkonini beradi.
2. Bentonit va loy katalizatorlari – Bentonitli tuproqlar kislotali muhitda faollashtirilgandan so‘ng, ularning katalitik xususiyatlari yaxshilanib, samarali katalizator sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu modifikatsiya ularning yuzasi faolligini oshirib, turli kimyoviy jarayonlarda, jumladan, organik sintez va neft-kimyo sohalarida qo‘llash imkonini beradi.
3. Fosfor kislotalangan loylar – Fosfat kislotasi bilan ishlov berilgan mahalliy loy minerallari proton kislotasi manbai sifatida faoliyat ko‘rsatib, turli kimyoviy jarayonlarda, jumladan, kislota katalizatori sifatida qo‘llanilishi mumkin. Ushbu modifikatsiya ularning kislotalik xususiyatlarini oshirib, organik sintez va katalitik reaksiyalarning samaradorligini yaxshilaydi.
4. Kislotali ion almashuvchi qatronlar – Kislotali ion almashuvchi qatronlar qayta ishlanib, samaradorligi oshirilgan holda turli kimyoviy jarayonlarda qo‘llanilishi mumkin. Mahalliy ishlab chiqarish imkoniyatlarini o‘rganish esa ushbu materiallarning iqtisodiy jihatdan tejamkorligini ta’minlab, importga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishga yordam beradi.

Mahalliy katalizatorlardan foydalanishning afzalliklari:
Iqtisodiy tejamkorlik – Import qilingan katalizatorlarga nisbatan arzonroq bo‘lib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.
Ekologik xavfsizlik – Kamroq zararli chiqindilar hosil qilishi sababli atrof-muhitga ta’siri kamayadi.
Qayta ishlash imkoniyati – Regeneratsiya qilish orqali katalizatorning samaradorligi tiklanib, uzoq muddat foydalanish imkonini beradi.

Mahalliy katalizatorlarning samaradorligini oshirish uchun ularni modifikatsiyalash, faollashtirish va sintez jarayonlarini optimallashtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar O‘zbekiston va mintaqadagi kimyo sanoati rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shishi mumkin.

Xulosa. Katalizatorlar tayyorlashda ularning fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilash bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, ushbu jarayon metilasetat ishlab chiqarishda yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Innovatsion yondashuv asosida ishlab chiqilgan yangi katalizatorlar yuqori faollik, barqarorlik va selektivlikka ega bo‘lib, reaksiya jarayonining tezligi hamda hosildorligini oshirish imkonini beradi.

Bundan tashqari, mahalliy xomashyolardan tayyorlangan katalizatorlar iqtisodiy jihatdan tejamkor bo‘lib, xorijdan import qilinadigan katalizatorlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi va valyuta zaxiralarini tejashga yordam beradi. Katalizator tanlovi jarayonning texnologik sharoitlari, iqtisodiy samaradorligi va ekologik talablarga mosligi asosida amalga oshiriladi.

Metil asetat (CH_3COOCH_3) sintezida mahalliy katalizatorlardan foydalanish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlar ushbu katalizatorlarning **narxi, ekologik xavfsizligi va samaradorligi** nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Xususan, ekologik jihatdan barqaror va kam chiqindi hosil qiluvchi katalizatorlarni ishlab chiqish atrof-muhitni muhofaza qilish bilan birga, kimyo sanoatining innovatsion rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi.

Mahalliy ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijasida ishlab chiqarilgan katalizatorlarning keng joriy etilishi sanoat jarayonlarini optimallashtirib, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Studies on mild catalytic synthesis of methyl acrylate via one-step aldol reaction. Gang Wang, Chidchon Sararuk, Zeng-Xi Li, Chun-Shan Li, Hui Wang, Suo-Jiang Zhang. First published: 08 November 2017 **https://doi.org/10.1002/aic.16022** Citations: 21
2. Corpus ID: 236782680. OPTIMIZATION OF SYNTHESIS OF METHYL ACETATE FROM ACETIC ACID AND METHANOL USING MICROWAVE-ASSISTED ESTERIFICATIONH. Kusuma, A. Ansori, M. Mahfud. Published 2021Chemistry, Engineering.
3. Methyl acetate. **https://doi.org/10.1002/9783527809080.cataz10620 2020**.

4. Plazma kataliz usuli bilan metandan etilen olishda katalizator sirtlari va bosimning ta’siri. Xaydarov Feruz Anarboyevich, Safarov Faxriddin Mamasaid o’g’li, Samatov Jahongir Mardonovich va boshq. 2024-yil 7-may.
5. Catalysts, kinetics, and reactive distillation for methyl acetate synthesis. Cuncun Zuo, Langsheng Pan, Shasha Cao, Chunshan Li, Suojiang Zhang. Industrial & Engineering Chemistry Research 53 (26), 10540-10548, 2014.
6. Catalytic distillation in structured packings: methyl acetate synthesis. Andrzej Gorak, Achim Hoffmann. AIChE Journal 47 (5), 1067-1076, 2001.
7. Internet saytlari:
http://www.elibrary.ru/menu_info.asp
http://www.rusmet.ru
http://www.elibrary.ru/journ_main.asp?code=520100

RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARI KO'RSATISHDA FUQAROLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH

Ne’matova Charosxon Nusratovna
Toshkent davlat yuridik universisteti
Ommaviy huquq fakulteti
2-kurs talabasi
e-mail: nematovacharosxon1@gmail.com

Annotatsiya: *Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan birga davlat xizmatlarining ko‘rsatish usullari ham o‘zgarib bormoqda. Bugungi kunda fuqarolar uchun raqamli davlat xizmatlari – bu vaqtni tejash, qulaylik va tezlik kabi afzalliklarni taqdim etuvchi muhim vositaga aylangan. Biroq, raqamli xizmatlar bilan bog‘liq bo‘lgan huquqiy masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada raqamli davlat xizmatlari ko‘rsatishda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning zaruriyati va amalga oshirish usullari haqida so‘z yuritamiz.*

Kalit so’zlar: *raqamli davlat xizmati, electron hukumat, raqamli budjet, axborot va interaktiv davlat xizmatlari , GDPR, GLBA, COPPA*

PROTECTING CITIZENS' RIGHTS IN THE PROVISION OF DIGITAL PUBLIC SERVICES

Nematova Charoshon Nusratovna
Tashkent State University of Law
Faculty of Public Law
2nd year student

Abstract: *With the development of digital technologies, the methods of providing public services are also evolving. Today, digital public services for citizens have become an important tool that offers advantages such as time-saving, convenience, and speed. However, legal issues related to digital services are also of significant importance. This article examines the necessity and implementation methods of protecting citizens' rights in the provision of digital public services.*

Keywords: *digital public service, e-government, digital budget, information and interactive public services, GDPR, GLBA, COPPA*

KIRISH

Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning tobora kuchayib borishi bizga bir qator imkoniyatlar va muammolarni keltirib chiqarmoqda. Raqamli platformalar qulaylik va samaradorlikni ta’minlasa-da, ular ma'lumotlarning maxfiyligi, xavfsizligiligi bilan bog`liq muammolarni keltirib chiqaradi. Raqamli davlat xizmatlari orqali hozirgi kunda uyimizda o`tirgan holda ko`pchilik hujjat bilan bog`liq ishlarni bitiryapmiz. Bugungi kun uchun bu juda quvonarli holat.

Raqamli davlat ximzatlari haqida so`z borar ekan, avvalo, *davlat xizmatlari* atamasiga yuzlanamiz. **Davlat xizmati** bu ariza beruvchilarning so‘rovlariga ko‘ra amalga oshiriladigan, davlat organlarining vazifalarini bajarish bo‘yicha ular tomonidan ko‘rsatiladigan xizmat. Agar qonunchilikka muvofiq davlat xizmatlari ko‘rsatish funksiyalari boshqa tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan bo‘lsa, ular ham davlat xizmatini ko‘rsatishlari mumkin . Davlat xizmatlarida fuqarolar o`zlarining turli masaladagi muammolari bilan ularga murojaat qilishadi va yechim topishadi. Bunda murojaatchilar ma’lum bir joyga borishlari va hujjatlar tayyorlashlari va shunga o`xshash ortiqcha ovoragarchiliklarga yuzlanishlari mumkin. Biroq, hozirgi kunda ***elektron davlat xizmati*** bilan bu ishlarni shunchaki, uyda o`tirib, ortiqcha tashvishlarsiz hal qilish mumkin.

Elektron davlat xizmati — axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilgan holda ko‘rsatiladigan davlat xizmatidir.

Ha, elektron xizmatlardan foydalanish fuqarolar uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi. Avvalo, bu xizmatlar vaqtni tejashga yordam beradi, chunki fuqarolar davlat idoralari tomoniga borishlari shart emas va barcha jarayonlarni masofadan turib amalga oshirishlari mumkin. Shuningdek, elektron xizmatlar orqali pullik to‘lovlarni amalga oshirishda ham osonliklar mavjud. Masalan, onlayn to‘lov tizimlari orqali foydalanuvchilar tez va qulay tarzda to‘lovlarni bajarishi mumkin. Bu esa nafaqat vaqtni, balki mablag‘ni ham iqtisod qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, elektron xizmatlarning yana bir muhim jihati shundaki, ular ko‘pincha yanada shaffof va samarali bo‘ladi, bu esa fuqarolar orasida ishonchni oshiradi va davlat idoralarining faoliyatini yaxshilaydi. Shunday qilib, elektron xizmatlardan foydalanish nafaqat qulayliklar yaratadi, balki jamiyatning raqamli transformatsiyasini ham tezlashtiradi.

Material va metodlarlar

Ushbu tadqiqot raqamli davlat xizmatlarini ko`rsatish va unda fuqarolarning huquqlarini himoya qilishni kompleks o‘rganish maqsadida miqdoriy va sifatiy usullarni qo‘llagan holda olib borildi. Quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi:

Adabiyotlar tahlili: Raqamli davlat xizmatlari sohasidagi ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarga asoslangan holda mavzuga oid nazariy asoslar o‘rganildi. Google Scholar, JSTOR , Lex.uz, Cyberleninka.uz va HeinOnline kabi ma’lumotlar bazalaridan foydalanildi.

So‘rovnoma: Ushbu so`rovnoma orqali raqamli davlat xizmatlaridan fuqarolarning foydalanish darajasi, ularning afzalliklari va qiyinchiliklari haqida aniqlandi.

Hodisani o‘rganish (case study): Hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan raqamli xizmat platformalari turlari o`ganildi. Fuqarolarning qancha qismi ushbu xizmatlardan foydalanishi bo`yicha statistik ma’lumotlar to`plandi.

**Qonun hujjatlarini o`rganish**: raqamli davlat xizmatlari bilan bog`liq O`zbekiston Respublikasida hamda chet davlatlarida mavjud qonun va qonunosti hujjatlar o`rganib chiqildi.

Qiyosiy tahlil: Xorijiy davlatlardagi elektron xizmat ko`rsatish bilan yurtimizdagi xizmatlar taqqoslandi .

Tadqiqot jarayonida etika normalariga va ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga rioya qilindi. So`rovnoma jarayonida ishtirokchilardan yozma rozilik olindi va ularning shaxsiy ma'lumotlarini maxfiy saqlanishi aytildi, shuningdek ularning huquqlarini hurmat qilinishi ta’minlandi.

Ma'lumotlarni tahlil qilish uchun SPSS va NVivo dasturlaridan foydalanildi, bu esa miqdoriy va sifatiy ma'lumotlarni alohida ko'rib chiqishga imkon berdi. Miqdoriy ma'lumotlar bo'yicha statistik tahlil usullari, masalan, tavsifiy statistika, korrelyatsion va regression tahlil, natijalarni aniqroq tushunishga yordam berdi. Sifatiy ma'lumotlarning tematik tahlili esa tadqiqotning mazmunini chuqurroq o'rganishga imkon berdi. Material va metodlar shu zaylda to`plandi va tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Raqamli davlat xizmatlari — bu davlat tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar va ma'lumotlarning elektron shaklda, ya'ni internet orqali foydalanuvchilarga taqdim etilishi demakdir.

Elektron davlat xizmatlari ariza beruvchilarga qulaylik yaratish maqsadida davlat organlarining rasmiy veb-saytlari orqali va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida taqdim etiladi. Ushbu portal orqali foydalanuvchilar barcha kerakli xizmatlarni bir joyda topishlari va arizalarini elektron shaklda yuborishlari mumkin. Shuningdek, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatuvchi davlat organlari o‘z rasmiy veb-saytlarida elektron xizmatlar ko‘rsatish tartibi, shartlari va talablariga oid ma'lumotlarni joylashtirishi zarur. Bu esa ariza beruvchilarga to‘g‘ri va aniq ma'lumot olishlariga yordam beradi hamda jarayonni soddalashtiradi. Bundan tashqari, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali taqdim etilayotgan xizmatlar doimiy yangilanib boradi, bu esa fuqarolar uchun yanada qulaylik yaratadi. Elektron davlat xizmatlaridan foydalanish

jarayonida fuqarolar o‘z vaqtida va samarali tarzda kerakli yordamni olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Elektron davlat xizmatlari 2 turga bo`linadi. Bular:

1.Axborot davlat xizmati

2.Interaktiv davlat xizmati

Axborot davlat xizmati ariza beruvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan, davlat organining faoliyati to‘g‘risidagi axborotni e’lon qilish va boshqacha tarzda tarqatish yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Interaktiv davlat xizmati ariza beruvchiga ariza beruvchi va elektron davlat xizmati ko‘rsatuvchi davlat organi o‘rtasida ikki tomonlama elektron hamkorlik yo‘li bilan ko‘rsatiladigan elektron davlat xizmatidir.

Raqamli xizmatdan foydalanishda ko`p hollarda ariza berish yo`li bilan amalga oshiriladi. „Elektron hukumat to`g`risida”gi qonunda ariza beruvchilarning huquqlari haqida alohida to`xtalib o`tilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- elektron davlat xizmatlarini o‘z vaqtida va elektron davlat xizmatlarining tasdiqlangan reglamentlariga muvofiq olish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborot olish;
- elektron davlat xizmati ko‘rsatilishining borishi to‘g‘risida o‘zaro hamkorlikning turli shakllari (rasmiy veb-sayt, telefon, elektron pochta, tezkor aloqa va boshqalar) orqali axborot olish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat organlarining qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan bo‘ysunuv tartibida yuqori turuvchi organlarga yoki mansabdor shaxslarga yoxud sudga belgilangan tartibda shikoyat qilish;
- elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish sifatini baholashda ishtirok etish;
- elektron davlat xizmatlarini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish kabi huquqlar.

Hozirgi kunda O`zbekiston hududida bir necha raqamli davlat xizmatlari mavjud bo`lib, ular har bir inson uchun foydali platformalarga aylanib ulgurdi. Quyida O`zbekiston respublikasida mavjud elektron davlat xizmatlari haqida aytib o`tamiz:

- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali – **my.gov.uz**;
- Huquqiy maslahat – **https://advice.uz/oz**

– Ma’lumot o`rnida aytib o`tish joizki, Buyuk Britaniya davlatida "Citizens Advice" nomli portal o’tgan asrning o’ttizinchi yillarida tashkil etilgan bo’lib, u faoliyat shakli bo’yicha xayriya tashkiloti hisoblanadi va

fuqarolarga ijtimoiy-huquqiy masalalar bo’yicha bepul yuridik yordam ko’rsatadi.

- Elektron sud xizmatlari – https://my.sud.uz/
- Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portal – https://regulation.gov.uz/oz
- Talabalarga shartnoma asosida ko`rsatiladigan xizmatlar hisosbini yuritish axborot tizimi – https://kontrakt.edu.uz/
- Hukumat qarorlarini, farmonlarni va boshqa normativ hujjatlarni onlayn tarzda qidirish va ko'rish imkonini beruvchi portal – **e-qaror.uz**
- To'lovlar va moliyaviy xizmatlar uchun interaktiv platform – paynet.uz
- Ichki ishlar vazirligining Davlat yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasining rasmiy portali, bu erda yo'l harakati qoidalari, jarimalar va boshqa ma'lumotlarni olish mumkin – dps.gov.uz
- Davlat soliq qo'mitasining rasmiy portali, bu yerda soliq to'lovchilarga mo'ljallangan xizmatlar taqdim etiladi – **tax.gov.uz**
- Tibbiyot sohasidagi xizmatlar va ma'lumotlarni taqdim etuvchi portal – medportal.uz
- **Ta'lim sohasida interaktiv xizmatlar ko'rsatadigan portal –** maktab.edu.uz
- **O'zbekiston Respublikasi hukumatining ochiq ma'lumotlar portali. Bu ro'yxat to'liq emas va vaqt o'tishi bilan yangilanib turishi mumkin, shuning uchun rasmiy manbalarni tekshirish tavsiya etiladi –** open-portal.gov.uz va hokazo.

Ro`yxatni davom ettirsak juda ko`p sayt va portallar mavjud, lekin eng kerakli va zaruriylari haqida yuqorida berib o`tildi. Bu raqamli xizmatlardan insonlar uchun eng foydalisi deya ***yagona interaktiv davlat xizmatlari portali*****ni aytishimiz mumkin.**

Bugungi kunda aholimizning 77 foizi internet foydalanuvchilari hisoblanar ekan, bu o‘z navbatida onlayn xizmatlarga bo‘lgan talab ortganidan ham darak beradi. Joriy yilda my.gov.uz portalidagi xizmatlar soni 550 tadan oshdi. 7 milliondan ortiq aholi va tadbirkorlar davlat xizmatlaridan **my.gov.uz** portali va uning mobil ilovasi orqali foydalanishga o‘tdi.

Xususan, joriy yilda yangi ishga tushirilgan haydovchilik guvohnomasini yangilash (95 000 ta ariza), talabalar turar joyiga joylashish uchun ariza yuborish (55 000 ta ariza) kabi xizmatlardan jami 24 mln marotaba foydalanilgan.

Elektron xizmatlardan foydalanish orqali fuqarolarimiz, avvalo, qimmatli vaqtlarini tejashga, shuningdek, davlat idoralari tomonidan ko‘rsatilayotgan

pullik xizmatlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda o‘z mablag‘larini iqtisod qilishga erishadi.

Tahlillarga ko‘ra, my.gov.uz foydalanuvchilari 25-34 yosh oralig‘idagi insonlar ekanligi ayon bo‘ldi. Umumiy foydalanuvchilar sonida ularning ulushi 32 foizga teng. Shuningdek, iqtisodiy faol qatlam hisoblanuvchi 35-44 yoshli fuqarolarimizning elektron xizmatlardan foydalanish darajasi ham salmoqli – 23 foizni tashkil etmoqda.

Keyingi o`rinlarda **huquqiy maslahat beruvchi *Advice.uzni* aytishimiz mumkin. Bu portalni** yaratish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida"gi Farmonida belgilangan bo`lib, uning **asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

– fuqarolarga huquqiy masalalar bo‘yicha shu jumladan, onlayn maslahatlar va tushuntirishlar berish yo‘li bilan birlamchi bepul yuridik yordam ko‘rsatish;

– fuqarolarning huquqiy bilimlarini ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda oshirib borish ishlariga ko‘ngillilarni safarbar etish;

– fuqarolar tomonidan huquqiy maslahat berishga oid so‘rovlarni tahlil qilib borish, tahlil natijasiga ko‘ra huquqni qo‘llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

– aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion usullarni, xorijiy davlatlarning bu boradagi ijobiy tajribalarini tatbiq etish va boshqalar.

My.sud.uz – O'zbekiston Respublikasi sud tizimi uchun elektron xizmatlar portalidir. Ushbu portal orqali fuqarolar va yuridik shaxslar sud bilan bog'liq bir qator xizmatlardan foydalanishlari mumkin. Portalda quyidagi imkoniyatlar mavjud:

1. Fuqarolar o'z ishlarini va sud qarorlarini onlayn tarzda kuzatishi mumkin.
2. Sudga ariza yuborish va kerakli hujjatlarni taqdim etish imkoniyati.
3. Sud jarayonlari va ularning holati haqida yangiliklarni olish.
4. Sud to'lovlarini onlayn amalga oshirish imkoniyati.
5. Oliy sud rahbariyatlari qabuliga yozislish.
6. Ishlarni sud majlisida ko‘rib chiqishga tayinlangan sanasi va vaqti haqida onlayn tarzda xabardor bo‘lish.
7. Videokonferens aloqa tizimi orqali masofadan turib sud majlisida ishtirok etish va boshqalar.

Ushbu portal O'zbekiston sud tizimini raqamlashtirish bo'yicha muhim qadamdir va fuqarolarga qulaylik yaratishga qaratilgan.

Yuqoridagi boshqa raqamli xizmatlar ham aytib o`tganimdek muhim bo`lib, hgar birining alohida funksiyalari mavjud.

Muhokama

Raqamli davlat xizmatlarining foydali jihatlari mavjud bo`lib, ular qatorida ba’zi qiyinchiliklar va anglashilmovchiliklar ham yo`q emas.

<u>Raqamli davlat xizmatlarining afzallik tomonlari:</u>

- Raqamli xizmatlar jarayonlarni soddalashtiradi, qog‘ozbozlikni kamaytiradi, fuqarolar va hukumat uchun vaqt hamda mablag‘ni tejaydi.
- Fuqarolar xizmatlardan internet mavjud bo‘lgan har qanday joydan, kunning istalgan vaqtida foydalanishlari mumkin, bu esa davlat idoralariga shaxsan tashrif buyurish zaruratini kamaytiradi.
- Raqamli platformalar hukumat faoliyati, byudjet va qaror qabul qilish jarayonlari haqida real vaqt rejimidagi ma’lumotlarni taqdim etish orqali shaffoflikni oshiradi.
- Raqamli qaydlar va kuzatuv tizimlari hukumat faoliyatini nazorat qilish va baholashni osonlashtirib, hisobdorlikni oshirishi mumkin.
- Raqamli xizmatlar har bir kishining ehtiyojlari va afzalliklariga moslashtirilishi orqali yanada samarali va qulay foydalanish imkoniyatini yaratadi.

- Raqamli tizimlar inson aralashuvini kamaytirib va jarayonlarni avtomatlashtirish orqali korrupsiya imkoniyatlarini minimal darajaga tushirishi mumkin.

Raqamli davlat xizmatlarining ba’zi qiyinchilik va tushunmovchiliklari:

- Barcha fuqarolar texnologiyalardan teng foydalanish imkoniyatiga ega emas, bu esa ayrim kishilarning ortda qolishiga va raqamli xizmatlardan bahramand bo‘la olmasligiga olib keladi.
- Raqamli tizimlar kiberhujumlarga zaif bo‘lib, bu maxfiy ma’lumotlarning xavf ostiga tushishi va xizmatlarning ishdan chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin.
- Raqamli infratuzilmani joriy etish va uni saqlab turish murakkab va qimmatga tushishi mumkin, bu esa texnologiya va kadrlarni o‘qitishga katta mablag‘ sarflashni talab qiladi.
- Shaxsiy ma’lumotlarni raqamli tizimlarda to‘plash va saqlash maxfiylik va ma’lumotlarni himoya qilish borasida tashvish uyg‘otadi.
- Foydalanuvchilar texnik muammolar yoki tizim nosozliklariga duch kelishi mumkin, bu esa ularning g‘ashiga tegishi va noqulaylik tug‘dirishi mumkin.
- Texnologiyaga haddan tashqari bog‘lanib qolish elektr ta’minotining uzilishi yoki tizimning ishdan chiqishi kabi yangi zaifliklar va xavf-xatarlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Umuman olganda, raqamli davlat xizmatlari davlatning samaradorligi, shaffofligi va ommabopligini sezilarli darajada oshirish salohiyatiga ega. Biroq, muammolarni hal qilish va ushbu xizmatlarning barcha fuqarolar uchun inklyuziv, xavfsiz va qulay bo‘lishini ta’minlash juda muhimdir. Shu o`rinda fuqarolarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy va boshqa bir qator huquqlarini ta’minlash ham dolzarb masala hisoblanadi.

Raqamli davlat xizmatlarini ko`rsatishda fuqarolar huquqlarini bir necha usullar yordamida himoya qilish mumkin. Quyida ularni tartib bilan sanab o`tamiz:

- Ma’lumotlar bilan ishlashning barcha jihatlarini, jumladan, ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va almashishni qamrab oluvchi mustahkam ma’lumotlarni himoya qiluvchi qonunlarni joriy etish;
- Fuqarolar o‘z ma’lumotlaridan qanday foydalanilishi haqida to‘liq xabardor bo‘lishini va rozilik berish yoki rad etish huquqiga ega bo‘lishini ta’minlash;
- Faqat zarur ma’lumotlarni to‘plash va ularni saqlash muddatini cheklash;
- Ma’lumotlardan faqat ular yig‘ilgan aniq maqsad uchun foydalanish;

- Ma’lumotlarning buzilishi va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish uchun kuchli xavfsizlik choralarini (kuchli parollardan foydalanish) amalga oshirish;
- Ma’lumotlarni himoya qilish qoidalariga rioya etilishini ta’minlash uchun muntazam tekshiruvlar o‘tkazish;
- Barcha toifadagi insonlar uchun foydalanish oson bo‘lgan raqamli xizmatlarni loyihalashtirish;
- Turli xil odamlarga xizmat ko‘rsatish uchun xizmatlarni bir nechta tilda taqdim etish(O`zbekiston Respublikasida mavjud raqamli davlat xizmatlari asosan o`zbek, qozoq va rus tillarida olib boriladi);
- Kiberhujumlardan himoyalanish uchun kuchli kiberxavfsizlik choralarini ta’minlash;
- Ma’lumotlar bilan bog`liq noqulayliklar yuzaga kelgan taqdirda fuqarolarni tezkor va ochiq-oydin tarzda xabardor qilish;
- Fuqarolar raqamli davlat xizmatlar haqida fikr-mulohazalarini bildirishlari va duch keladigan muammolar haqida xabar berishlari uchun imkoniyat yaratish;
- Raqamli davlat xizmatlarida huquqlar himoyasiga rioya etilishini nazorat qilish vazifasi yuklangan mustaqil agentliklar yoki ombudsmanlarni tashkil etish;

Yuqorida sanab o`tilgan tavsiyalar orqali elektron davlat xizmatini ko`rsatishda har bir fuqaroning huquqlari ta’minladi.

O`zbekiston Respublikasida raqamli davlat xizmatlari, elektron hukumat, axborotlashtirish kabi masalalar bo`yicha fuqarolarning huquq va erkinligini ta’minlash maqsadida bir necha qonunchilik hujjatlari ishlan chiqilgan. Asosan, ,,*Elektron hukumat to`g`risida”*gi qonun , ,,*Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish, hamda soha , tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to`g`risida”* O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, ,,Interaktiv davlat xizmatlari ko`rsatishni hisobga olgan holda internet tarmog`ida O`zbekiston Respublikasining hukumat portali faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to`g`risida”gi Vazirlar Mahkamasi qarori, ,,*Kiberxavfsizlik to`g`risida*”gi qonun, ,,*Axborotlashtirish to`g`risida”*gi qonun, ,,Shaxsga doir ma’lumotlar to`g`risida”gi qonun va boshqa qonun hujjatlari mavjud.

Shuningdek, bu mavzuda chet davlatlarida ham bir qator konvensiya, reglament, akt va kelishuvlar mavjud. Xususan, ko`pchilik mamlakatlarga tanish bo`lgan *GDPR* (Yevropa Ittifoqining Umumiy ma 'lumotlarni himoya qilish reglamenti) 2018-yil yil kuchga kirgan bo`lib, fuqarolarining shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilishning eng zamonaviy va keng qamrovli mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, *HIPAA* (Health Insurance Portability and Accountability Act), *GLBA* (Gramm-Leach-Bliley Act), *COPPA* (Children's Online Privacy Protection Act) kabilar kiradi.

Ushbu qonun qonunchilik hujjatlarida aholining elektron davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun bir talay qulayliklar belgilab qo`yilgan. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 378-sonli yagona davlat interaktiv xizmatlari haqidagi qarorida jismoniy va yuridik shaxslarning elektron davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun zarur bo‘lgan arizalar shakllari, blankalar va boshqa hujjatlardan, shu jumladan elektron tarzda to‘ldirish uchun foydalanishini, shuningdek, elektron davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zarur bo‘lgan arizalar va boshqa hujjatlarni elektron tarzda qabul qilinishi kabi masalalar belgilab qo`yilgan.

*,,Elektron hukumat to`g`risida”g*i qonunda esa elektron davlat xizmatlari haqida bir qator normalar belgilab qo`yilgan. Masalan, elektron davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat organlari barcha ariza beruvchilarning elektron davlat xizmatlaridan teng ravishda foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratishi shart (7-modda). Bunda O`zbekistonda yashovchi har bir shaxs raqamli davlat xizmatlaridan teng foydalanishi mumkinligi haqida so`z bormoqda.

Raqamli davlat xizmatlaridan foydalanishda shaxsiy ma’lumotlar, davlat siri bilan bog`liq axborotlarning xavfsizligi ham ta’minlanadi. Bunda elektron davlat xizmatlari ko‘rsatuvchi davlat organlari shaxsga doir ma’lumotlar, shuningdek davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma’lumotlar muhofaza qilinishini va ulardan ruxsatsiz foydalanishning oldi olinishini ta’minlash yuzasidan zarur tashkiliy-texnik choralar ko‘radi.

Xulosalar : Raqamli davlat xizmatlari ko'rsatishda fuqarolar huquqlarini himoya qilish masalasi zamonaviy jamiyatda juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada keltirilgan fikrlar va tahlillar, raqamli xizmatlarni rivojlantirish jarayonida fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish zarurligini ko'rsatadi. Birinchidan, raqamli xizmatlar yanada qulay va tezkor bo'lishi bilan birga, shaffoflikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Fuqarolar o'z huquqlari haqida to'g'ri ma'lumotga ega bo'lishlari va davlat organlari bilan munosabatlarini osonlashtirishi kerak. Ikkinchidan, raqamli identifikatsiya va ma'lumotlar xavfsizligi masalalari alohida e'tiborga loyiqdir. Fuqarolar o'z shaxsiy ma'lumotlarining himoyasini talab qilish huquqiga ega bo'lishi lozim, shuning uchun davlat organlari bunday ma'lumotlarni qanday saqlashini va ishlatishini ochiq va shaffof ravishda tushuntirib berishlari zarur. Uchinchidan, raqamli xizmatlarni taqdim etish jarayonida fuqarolarni jalb etish va ularning fikrlarini hisobga olish muhimdir. Bu orqali davlat organlari xizmat sifatini oshirish va fuqarolar ishonchini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, raqamli davlat xizmatlarini ko'rsatishda fuqarolar huquqlarini himoya

qilish har bir mamlakatning rivojlanish strategiyasining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababli, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar nafaqat texnologik yangiliklar bilan bog‘liq, balki inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlashdagi ijtimoiy mas'uliyatni ham ifodalaydi. Raqamli transformatsiya jarayonida fuqarolarning manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yish orqali biz barqaror va adolatli jamiyat qurishga erisha olamiz.

NEW METHODS IN MEDICAL EDUCATION

Turakulov Vali Norkulovich

[1] Doctor of Philosophy (PhD), Emeritus Professor of Iryo Sosei University, DIRECTOR OF NAVOY BRANCH OF THE CENTER FOR TRAINING AND SPECIALIZATION OF SECONDARY MEDICAL AND PHARMACEUTICAL STAFF OF THE REPUBLIC, HEAD OF THE GENERAL MEDICAL SCIENCES DEPARTMENT OF NAVOY STATE UNIVERSITY OF SCIENCES

Nasullayev Fayzi Otabekovich

[2]He is a student of the Department of Pediatrics of the Medical Faculty of Navoi State University

Abstract: *The evolution of medical education necessitates integrating innovative pedagogical methods to enhance effectiveness and interactivity. Traditional educational approaches, such as lectures and practical sessions, must be augmented with modern technologies like simulation, virtual reality (VR), and problem-based learning (PBL). These methods create environments that mimic real-life medical scenarios, facilitating practical skill development. Simulation centers provide safe experiential learning, while VR technologies offer immersive educational experiences. PBL fosters independent thought and analytical skills essential for medical practice. Despite challenges in implementation, including financial costs and the need for instructor training, the benefits of these new methods in improving medical education outcomes are significant.*

Keywords

Medical Education
Simulation
Virtual Reality (VR)
Problem-Based Learning (PBL)
Interactive Learning
Educational Technology

1. Introduction

Educational processes in medicine must be more effective and interactive today. Traditional teaching methods (lectures and practical sessions) have played a crucial role in educating students, but today’s technological advancements call for enriching them with new pedagogical approaches. Methods ranging from simulation and virtual reality to problem-based learning (PBL) help create conditions closer to real medical practice for medical students.

2. New Methods and Their Advantages

New teaching methods significantly enrich the educational process for students and help develop practical skills. The following are some of the most effective methods:

Simulation and Virtual Reality:

Simulation centers are among the most important innovations in medical education. Through simulation, students can practice surgery, intensive care, or hospitalization techniques in a safe environment. These simulation centers are especially valuable for learning complex surgical procedures. Virtual reality (VR) technology allows students to experience medical procedures in life-like situations, enhancing their skills and memory. Simulation prepares students for real conditions and provides valuable hands-on experience.

Problem-Based Learning (PBL):

The PBL model encourages students to think independently and analyze problems. Students taught through this method learn to find their solutions to real-life situations. Through group discussions, they can test their knowledge and develop analytical and logical thinking skills essential for diagnosis and treatment processes.

Interactive and Online Learning:

During the COVID-19 pandemic, online education expanded widely and made a significant impact on medical education. Through online platforms and virtual labs, students gained the opportunity to study remotely. Today, platforms such as Zoom and Google Meet allow for interactive lessons, and students can connect with patients via telemedicine. Remote learning frees students from geographical boundaries, giving them the chance to attend scientific conferences and seminars worldwide.

3. Experience and Results

Numerous studies have been conducted worldwide to evaluate the effectiveness of new methods in medical education. For instance, an experiment conducted at Yale University in the U.S. showed that students trained using simulation and VR technologies achieved better practical skills than those taught

through traditional methods. Additionally, studies in Canada demonstrated that students who used the PBL method achieved higher results in independent decision-making and problem-solving during complex diagnostic processes.

4. Challenges in Implementing New Methods

There are certain challenges in implementing new methods. One of the main issues is financial cost. Establishing simulation centers and VR technologies requires significant investment. Additionally, both instructors and students need to be prepared to adapt to new methods. Instructors need to be proficient in using the technologies, and students must quickly embrace the new learning approaches.

5. Conclusion

In conclusion, new methods in medical education offer students a higher quality and more engaging educational experience. Methods like simulation, VR, and PBL play a key role in preparing highly skilled professionals in medicine, and it is essential to continue enhancing these methods in the future. At the same time, successfully implementing these innovative methods requires resources and qualified pedagogical skills that align with the new approaches.

REFERENCES

1. Cook, D. A., & Hatala, R. (2016). Technology-Enhanced Simulation for Health Professions Education: A Systematic Review and Meta-Analysis. Journal of the American Medical Association, 316(21), 2284-2291.
2. Prince, K. J. A., van der Vleuten, C. P. M., & Scherpbier, A. J. J. A. (2004). Didactic aspects of PBL: A review of the literature. Medical Teacher, 26(3), 217-227.
3. Lapkin, S., Levett-Jones, T., & Gilligan, C. (2010). A systematic review of the effectiveness of simulation-based learning in nursing education. Nurse Education Today, 30(6), 608-616.
4. Treadwell, J. R., et al. (2015). State of the Science: Simulation in Nursing Education. Nursing Education Perspectives, 36(6), 366-371.

TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN THE MODERN ERA

Shodmonova Dildora Davronovna
Guliston davlat universiteti
Filologiya fakulteti 1-bosqich talabasi
shodmonovadildora98@gmail.com

Annotation: *in the modern era, teaching foreign languages has gained exceptional significance due to globalization, technological advancements, and increased cross-cultural interactions. Effective language acquisition is crucial for education, international business, diplomacy, and personal development. This article explores various contemporary methods, technological tools, and pedagogical approaches in foreign language education. Furthermore, the role of artificial intelligence, online platforms, and gamification in language learning is discussed. A special focus is placed on Uzbekistan’s initiatives, government policies, and digital transformation in the language education sector. The article also highlights the challenges faced in implementing modern techniques and proposes potential solutions for enhancing language education effectiveness in Uzbekistan and beyond.*

Keywords: *foreign language teaching, modern methods, technology, Uzbekistan, globalization, digital education, artificial intelligence, online platforms, blended learning, communicative approach, task-based learning, gamification, teacher training, policy initiatives, linguistic diversity.*

In a highly competitive and constantly changing work environment, support from colleagues and mentors helps individuals manage professional challenges and reduces the risk of emotional burnout.

It is essential for organizations to create a favorable work atmosphere that fosters interpersonal relationships.

3.3. Social Support in Coping with Mental Disorders

Studies indicate that strong social connections reduce the risk of developing depressive and anxiety disorders (Cohen & Wills, 1985). People with support from family and friends handle psycho-emotional stress more effectively and are less likely to resort to unhealthy coping strategies such as substance abuse or social withdrawal.

Заключение: Социальное окружение играет ключевую роль в психологической поддержке личности в стрессовых условиях. Семья, друзья, коллеги и социальные институты обеспечивают эмоциональную, информационную и инструментальную поддержку, способствующую снижению тревожности и повышению стрессоустойчивости. В современных условиях важно развивать и укреплять социальные связи, создавая благоприятные условия для психологического благополучия каждого человека.

Conclusion: The social environment plays a crucial role in psychological support for individuals under stressful conditions. Family, friends, colleagues, and social institutions provide emotional, informational, and instrumental support, helping to reduce anxiety and increase stress resilience. In modern conditions, it is important to develop and strengthen social ties to create favorable conditions for the psychological well-being of every individual.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Бонанно, Г. А., Галеа, С., Буччарелли, А., & Влахов, Д. (2004). Что предсказывает психологическую устойчивость после катастрофы? Журнал консультативной и клинической психологии, 72(5), 671-682.

2. Боулби, Дж. (1988). Надежная база: Привязанность ребенка к родителям и здоровое развитие человека. Basic Books.

3. Коэн, С., & Уилс, Т. А. (1985). Стресс, социальная поддержка и буферная гипотеза. Психологический бюллетень, 98(2), 310-357.

4. Холт-Лунстад, Дж., Смит, Т. Б., & Лейтон, Дж. Б. (2010). Социальные отношения и риск смертности: метааналитический обзор. PLOS Medicine, 7(7), e1000316.

5. Маслач, К., & Лейтер, М. П. (2016). Эмоциональное выгорание: цена заботы. Harvard University Press.

6. Кобб, С. (1976). Социальная поддержка как модератор жизненного стресса. Психосоматическая медицина, 38(5), 300-314.

7. Лазарус, Р. С. (1999). Стресс и эмоции: новый синтез. Springer Publishing Company.

REFERENCES

1. Bonanno, G. A., Galea, S., Bucciarelli, A., & Vlahov, D. (2004). What predicts psychological resilience after disaster? Journal of Consulting and Clinical Psychology, 72(5), 671-682.

2. Bowlby, J. (1988). A Secure Base: Parent-Child Attachment and Healthy Human Development. Basic Books.

3. Cohen, S., & Wills, T. A. (1985). Stress, social support, and the buffering hypothesis. Psychological Bulletin, 98(2), 310-357.

4. Holt-Lunstad, J., Smith, T. B., & Layton, J. B. (2010). Social relationships and mortality risk: A meta-analytic review. PLOS Medicine, 7(7), e1000316.

5. Maslach, C., & Leiter, M. P. (2016). Burnout: The Cost of Caring. Harvard University Press.

6. Cobb, S. (1976). Social support as a moderator of life stress. Psychosomatic Medicine, 38(5), 300-314.

7. Lazarus, R. S. (1999). Stress and Emotion: A New Synthesis. Springer Publishing Company.

TEACHING PHRASES TO BOOST LEARNERS' SPEAKING SKILL

Mirzayeva Ma'suma Shuhratbek qizi
English teacher at Shahrikhan
District Specialized School, Andijan Region Agency for
Specialized Educational Institutions
Email: masumamirzayeva17@gmail.com

Abstract: *Speaking is one of the most essential skills in language learning, yet many learners struggle with fluency and confidence. Teaching commonly used phrases and expressions can significantly enhance speaking skills by providing learners with ready-made language structures. This article explores the importance of teaching phrases, effective strategies for incorporating them into lessons, and how they contribute to improved communication. A table of useful phrases categorized by context is also provided. Additionally, this article discusses the psychological and cognitive benefits of learning phrases and highlights ways to integrate them into different language proficiency levels.*

Keywords: *Speaking skills, language learning, communication, teaching phrases, fluency, conversational English, language acquisition*

Effective communication is a key objective in language learning. Many learners struggle with constructing sentences in real-time, leading to hesitation and a lack of confidence. Teaching useful phrases can bridge this gap, providing learners with a foundation for natural conversation. This approach not only enhances fluency but also helps learners understand cultural nuances and common expressions used in different situations. Moreover, phrases allow learners to focus on pronunciation, intonation, and speech rhythm, which are crucial for effective verbal communication.

Phrases and expressions play a crucial role in communication. Unlike individual words, phrases provide learners with meaningful chunks of language that can be used directly in conversations. Ready-made phrases reduce hesitation and allow learners to respond quickly. Learners understand how phrases function in different situations, promoting practical language use. Knowing useful phrases gives learners a sense of security in speaking. Also, memorizing phrases is often easier than learning single words in isolation. Learning phrases minimizes the need to construct sentences from scratch, allowing learners to focus on other aspects of communication, such as tone and meaning. Many phrases carry cultural connotations, helping learners understand local customs and etiquette.

To maximize the effectiveness of phrase-based learning, educators can adopt the following strategies:

1. Teach phrases within real-world contexts such as ordering food, making small talk, or asking for directions.
2. Regular use of phrases in conversations helps learners internalize them. Daily practice through activities like dialogues and pair work enhances retention.
3. Engaging in role-plays allows learners to practice phrases in dynamic interactions and develop situational awareness.
4. Videos, flashcards, and recordings help reinforce phrase learning by associating words with images and sounds.
5. Learners should adapt and personalize phrases to fit their own speaking style.
6. Language learning apps, online conversation platforms, and interactive quizzes can reinforce phrase acquisition.
7. Engaging learners in group discussions, debates, and storytelling helps them use phrases naturally in real-life interactions.
8. Start with commonly used expressions and gradually introduce idioms and colloquialisms to enhance conversational depth.

The following table presents useful phrases categorized by conversational context:

Context	Common Phrases
Greetings and Introductions	"Nice to meet you." "How have you been?" "It's a pleasure to meet you."
Asking for Information	"Can you tell me more about...?" "Do you know where...?" "Could you explain...?"
Expressing Opinions	"I believe that..." "In my opinion..." "As far as I'm concerned..."
Making Requests	"Could you please...?" "Would you mind...?" "I’d appreciate it if..."
Agreeing and Disagreeing	"I totally agree." "I see your point, but..." "That’s a good point, however..."
Apologizing and Excusing	"I’m sorry for..." "Please forgive me for..." "It was my mistake."
Ending Conversations	"It was nice talking to you." "See you later!" "Let’s catch up soon."

Expressing Gratitude	"Thank you so much!" "I really appreciate it." "I’m grateful for..."
Making Suggestions	"Why don’t we...?" "Have you considered...?" "I think it would be a good idea to..."
Offering Help	"Do you need any help?" "Let me know if you need anything." "I’d be happy to assist you."

Learning phrases offers significant psychological and cognitive advantages that aid language acquisition and communication. It reduces speaking anxiety by providing learners with familiar structures they can rely on in conversations, which fosters confidence and reduces hesitation. Practicing phrases repeatedly enhances automaticity, allowing learners to respond naturally without overthinking their sentences. Furthermore, recognizing and using common phrases strengthens listening comprehension, as learners become more adept at identifying patterns in spoken language. The process of phrase acquisition also supports grammar learning by exposing learners to correct sentence structures in meaningful contexts, allowing them to internalize grammatical rules subconsciously rather than through explicit instruction. Additionally, phrase-based learning contributes to cognitive efficiency by minimizing the mental effort required to construct sentences from scratch, allowing learners to focus on pronunciation, intonation, and effective expression of ideas.

Conclusion: Teaching phrases is an effective method for improving learners' speaking skills, helping them communicate naturally and confidently. By incorporating real-life scenarios, role-plays, and interactive exercises, educators can facilitate a more engaging and practical learning experience. Encouraging learners to use and personalize phrases ensures long-term retention and fluency in spoken communication. Moreover, integrating phrases at various proficiency levels and leveraging multimedia resources further enhances the learning experience. By focusing on phrase-based teaching, language educators can empower learners to navigate real-world conversations with ease. Additionally, a phrase-centered approach provides a more practical and holistic way to acquire a new language, bridging the gap between theoretical knowledge and practical use. As learners build confidence in using phrases, they develop stronger linguistic intuition and the ability to adapt to various conversational contexts. This ultimately fosters a more immersive and enriching language learning journey, equipping learners with the necessary tools to engage effectively in diverse communicative situations.

REFERENCES

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Nation, I. S. P. (2013). Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge University Press.
3. Thornbury, S. (2005). How to Teach Speaking. Pearson Education.
4. Ur, P. (2012). A Course in Language Teaching: Practice and Theory. Cambridge University Press.
5. Lewis, M. (1993). The Lexical Approach: The State of ELT and a Way Forward. Language Teaching Publications.
6. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.

6-SINF TABIIY FAN DARSLIGIDAGI “TURLI SHAKLGA EGA BO‘LGAN JISMLARNING ZICHLIGINI ANIQLASH” AMALIY MASHG‘ULOTINI O‘TKAZISHDA ZAMONAVIY USULLARDAN FOYDALANISH

Axunjanova Shirmonoy Isroiljonovna
Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi fizika va astronomiya fani metodisti

Annotatsiya: *ushbu maqolada “Turli shaklga ega bo‘lgan jismlarning zichligini aniqlash “ amaliy mashg‘ulotini zamonaviy usullardan foydalanib tashkil etish, jamoalarda ishlash ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *menzurka, zichlik, hajm, po‘kak, modda massasi.*

Аннотатция*:В данной статье даны рекомендации о том, как организовать практическое занятие «Определение плотности предметов разной формы» с использованием современных методов, как развивать навыки командной работы.*

Ключевые слова*: стакан, плотность, объем, кусок, масса вещества.*

Abstract: *This article provides recommendations on how to organize a practical lesson “Determining the density of objects of different shapes” using modern methods, how to develop teamwork skills.*

Key words: *glass, density, volume, piece, mass of substance.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712 sonli farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida ,O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlar qatoriga kirishga erishish hamda ta’lim tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.[1] Tabiiy yo‘nalishdagi fanlar savodxonligini oshirishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati juda katta. Amaliy mashg‘ulotlar - bu o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan bir yoki bir nechta amaliy ishlarni bajarishga qaratilgan o‘quv jarayonini tashkil etish shakli. Bu atama laboratoriya ishi va mashqlar kabi tushunchalarni o‘z ichiga olgan tayanch tushuncha sifatida ishlatiladi. Amaliy mashg‘ulotlar o‘qituvchi va o‘quvchilar tomonidan o‘quv fanining ayrim nazariy qoidalarini batafsil ko‘rib chiqishni tashkil etadigan va o‘quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan vazifalarga muvofiq individual ravishda amalga oshirish orqali ularni amaliy qo‘llash va ko'nikmalarini shakllantiradigan o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turlaridan biri. Amaliy topshiriqlarning asosiy didaktik maqsadi o‘quvchilarning ma‘ruza va mustaqil ish jarayonida olgan ilmiy bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va batafsil bayon qilish va o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini oshirishdan iborat.[2] Shu bilan birga Singapur ta’lim tajribasiga tayangan holda amaliy mashg‘ulotlarni tashkillash o‘quvchilarda kuzatish, tadqiq qilish, taqqoslash, ma’lumotlarni tahlil qilish, xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirshga yordam beradi.

6-sinf tabiiy fan darsligidagi “Turli shaklga ega bo‘lgan jismlarning zichligini aniqlash”amaliy mashg‘ulotini qanday tashkil etsak o‘quvchilarda yuqorida sanab o‘tilgan ko‘nikmalarni shakllantirish mumkinligini 5E modeli bo‘yicha ko‘rib chiqaylik

1-bosqich: **Jalb qilish.(5 daqiqa)**

Suvga po‘kakni tashlasak, po‘kak suvda suzadimi yoki cho‘kadimi? Suvning zichligi 1g/sm^3, po‘kakning zichligi 0,24 g/sm^3. O‘quvchilar suvning zichligi va po‘kakning zichligini solishtirib savolga javob topadilar.Bu yerda ular oldingi darsdagi tuxum va mandarin tajribasini eslaydilar.[3]

2-bosqich:Guruhlarda ishlash. (15 daqiqa) O‘quvchilarni 2 ta jamoaga ajratiladi, jamoalarga topshiriq beriladi va ular moddalarning massasi va hajmini o‘lchab, zichliklarni hisoblashni 2 xil usuli bilan tanishadilar.

1-jamoaga videonamoyishi beriladi, o‘quvchilar videoda kuzatgan tajribani o‘rganadilar va aniq shaklga ega bo‘lmagan jismni zichligini aniqlashni o‘rganadilar, amaliy mashg‘ulot jadvalini yaratadilar va zichlik tushunchasi bo‘yicha bilimlariini mustahkamlaydilar, shu bilan birga fizik terminlarni ingliz tilidagi tarjimalarini o‘rganadilar. [4]

2-jamoaga ham videonamoyishi beriladi, o‘quvchilar videoda kuzatgan tajribani o‘rganadilar va aniq shaklga ega bo‘lgan jismni zichligini aniqlashni o‘rganadilar, amaliy mashg‘ulot jadvalini yaratadilar va zichlik tushunchasi bo‘yicha bilimlariini mustahkamlaydilar, shu bilan birga fizik terminlarni ingliz tilidagi tarjimalarini o‘rganadilar. [5]

3-bosqich: Tushuntirish. (10 daqiqa) O‘quvchilarga savollar beriladi.

1-Jamoaga:

1)Sizga menzurka, metall kalit, suv berilgan. Kalitni hajmini qanday aniqlaysiz?

2) Uy sharoitida menzurka sifatida qanday buyumdan foydalansa bo‘ladi?

3) Metall kalitni massasi qanday aniqlanadi?

4) Metall kalitni zichligini qanday aniqlaysiz?

5) Metall kalit qanday moddadan tayyorlanganini aniqlasa bo‘ladimi?

2-jamoaga:

1)Sizga qurilish materiali uchun kerakli bo‘lgan 1 dona g‘isht berilgan.Shu g‘ishtni hajmini qanday aniqlaysiz?

2) G‘ishtning massasini qanday aniqlaysiz?

3) G‘ishtni zichligini qanday aniqlaysiz?

4) G‘ishtni zichligini suv zichligi bilan solishtiring.

5) G‘isht suvda cho‘kadimi?

1-guruh yaratgan jadvali ko‘rinishi quyidagi 1-jadval bilan solishtiriladi:[3]

Jism	m,(g)	V_1,(sm^3)	V_2(sm^3)	V,(sm^3)	ρ,(g/sm^3)
Shaklga ega bo‘lmagan jism					

2-guruhni yaratgan jadvali quyidagi 2-jadval bilan solishtiriladi:[3]

Jism	m,(g)	a, (sm)	b, (sm)	c, (sm)	V,(sm^3)	ρ,(g/sm^3)

Brusok						

4-bosqich: Formativ baholash. (10 daqiqa) O‘quvchilarga guruhda ishlash,guruhning a’zosi ekanligini anglash,vaqtni boshqarish kabilarni o‘rgatish.

Guruhlar amaliy mashg‘ulot uchun kerakli jihozlar bilan tanishadilar,jihozlar bilan ishlash ko‘nikmasini xosil qiladilar, ishni bajarish tartibi, jadvallarni shakllantirishni o‘rganadilar, jism zichligini tajribada aniqlashni o‘rganib, nazariy bilimlarini mustaxkamlaydilar va shu bo‘yicha berigan savollar javobiga qarab baholanadilar.

Uyga vazifa: (5 daqiqa) Uyda menzurka sifatida foydalansa bo‘ladigan chaqaloqlarning suv idishidan foydalanib aniq shaklga ega bo‘lmagan jismning zichligini aniqlash topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar amaliy mashg‘ulotning maqsadi,kerakli jihozlar,ishni bajarish tartibini shakllantiradilar va jadval yaratadilar.

Xulosa: xulosa qilib aytganda tabiiy fanlarni o‘qitishni samarali tashkil etishda amaliy topshiriqlarni ahamiyati juda katta. Amaliy topshiriq orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarini esga oladilar ,fizik kattaliklarni nazariy formulalarini amalda qo‘llashni, asbob-uskunalar bilan ishlashni o‘rganadilar,ma’lumotlar va jadvallar bilan ishlash ko‘nikmasini yaratadilar , modda zichligi bo‘yicha bilimlarini mustaxkamlaydilar,bu taklif qilinayotgan tavsiyada shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga urg‘u berilgan.

KERAKLI ADABIYOTLAR

1.Ismailov A A,Tog‘ayeva G,Akbarova S. Xalqaro tadqiqotlarda o‘quvchilarning tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonligini baholash. –T. “Sharq” nashriyoti 2019.-6-bet

2. https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-ta-lim-jarayonida-amaliy-mashg-ulotlarni-tashkil-etish-ahamiyati/viewer

3.Suyarov K.T. va boshqalar. 6-sinf uchun Tabiiy fanlar darsligi.-T. 2022.-29-30-bet

4. **https://www.google.com/search**?

5. https://youtu.be/rOs3acfnLww

DEFEKTOLOGIYANING RIVOJLANISHIGA HISSA QO'SHGAN OLIMLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Qo'chqorova Gulnoza
Axborot texnologiyalari va menejment unverseteti Maxsus pedagogika Defektalogiya yo'nalishi fakulteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada defektalogiya yo'nalishi qachon kelib chiqqanni va qaysi olima ayollar asarlar yozgani haqida ma'lumot berildi.*

Kalit so'zlari: *Defektalogiya, Surdopedagogika, logopediya, dotsent, pedagogika, psixologiya, lorpatalogiya, S. Sh. Aytmetova, va boshqalar*

Mamlakatda avj olib ketgan yuqumli kasalliklar , ochlik, tozallikka rioya qilmaslik, Har xil shikastlanishlar va boshqa bir qancha sabablar keltirib chiqargan bolalardagi nuqsonlik yuqori darajada edi. 1929-yilda O'zbekiston Respublikasi markaziy ijroiya qo'mitasi raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tashabbusi bilan nuqsonli bolalar uchun Toshkentda alohida maktab childi. Maxsus maktablar uchun oliy ma'lumotli defektologlar tayyorlash ishi Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib 1967-yilda boshlangan edi.

Toshkentdagi Nizomiy nomli pedagogika institutining pedagogika va psixologiya fakulteti qoshida ,hozir esa boshlang'ich ta'lim va Defektalogiya fakulteti sifatida faoliyat ko'rsatib kelmoqda . Defektalogiya fakulteti tarixga nazar solsak dastlab 4 yillik kunduzgi bo'lim tashkil etilib ,1968-1969 o'quv yilidan kechki bo'lim ham faoliyat ko'rsata boshladi. 1973-yildan boshlab esa Kar va zaif eshtuvchilar maktablari uchun surdopedagoglar tayyorlash boshlandi. O'zbekiston Respublikasining defektalogiya sohasidagi birinchi olimasi pedagogika fanlari nomzodi, dotsent S. Sh. Aytmetovadir. Aytmetova defektalogiya fakultetining mustaqil fakultet sifatida tashkil etilishida va dastlabki defektolog mutaxassislarni yetishtirib berishda katta xizmat qildi. 1984-yildan defektalogiya fakulteti mustaqil faoliyat ko'rsata boshladi. Fakultetini S. Sh. Aytmetova bir yil boshqargan .1986-yilidan fakultetini pedagogika fanlari doktori professor L. R. Mo'minova boshqara boshladi. 1988-yil mustaqil defektalogiya fakultetining sirtqi bo'limi tashkil etilib ,Unga V. S. Rahmonova boshchilik qilgan. L. R . Mo'minova defektalogiya fakultetini boshqargan. 1986-1999 yillar ilmiy sohada eng jadal suratlarda rivojlangan davr bo'ldi. L. R. Mo'minova defektalogiya fakultetini boshqarish davrida ikki kafedraning ilmiy salohiyatini oshirishga ulkan hissa qo'shdi. Shu davrda L. R. Mo'minova yetuk mutaxassislarni yetishtirib chiqishda o'ziga xos maktab yaratdi. M. Yu. Ayupova, P. M. Po'latova , H. M. Po'latova, U. Yu. Fayziyeva, N. X. Dadaxo'jayeva , D.

M. Nurkeldiyeva, M. P. Hamidova, Sh. Amirsaidova , Z. Ahmedova, L. Nurmuhamedova , F. A. Mirboboyeva, Ya. Chicherina va boshqalar. L. R. Mo'minova defektalogiya faniga oid 100 ga yaqin ilmiy maqolalar , o'quv metodik qo'llanmalar ,metodik tavsiyalar va darsliklar yaratgan. Yana bir olimamiz K. Mamedov ham defektalogiya fakultetining ravnaq topishida o'z hissalarini qo'shganlardan hisoblanadi. K. Mamedov yordamchi maktab o'quvchilari psixologiyasini o'qitish uslubiyatini o'zbek tilida ishlab chiqdi va oligofrenopsixologiya fanidan bir qator o'quv qo'llanmalari yozdi. "Aqli zaif o'quvchilar psixologiyasi ", "Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar psixologiyasi " , " A. Soatov, P. M. Po'latova bilan hammualliflikda " Oligofrenopedagogika asoslari ", o'quv metodik qo'llanmalarni yaratdi. Surdopedagogika va klinik asoslari kafedrasini tibbiyot fanlari doktori M. G. Mirzakarimova boshqardi . M. G. Mirzakarimova eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar (lorpatalogiya),aqli zaif bolalar klinikasi va boshqa tibbiyotga oid fanlarni tayyorlashga o'zbek tilida talabalarga yetkazishda va respublikamizda defektolog kadrlarni tayyorlashda o'z hissalarini qo'shgan zahmatkash olima ayollardan biridir. Ulardan so'ng R. M. Qoriyeva boshqargan bu kafedrada ham I. A. Alimova, N. Sh. Bekmurovdov, X. M. Gaynutdinov va boshqalar surdopedagogika fanining rivojlanganlanishida dastlabki qadamlarni qo'yishgan . Oligofrenopedagkgika va logopediya kafedrasini pedagogika fanlari nomzodi dotsent A. I. Soatov boshqaradi. A. I. Soatov birinchi marta o'zbek tilida " Yordamchi maktab o'quvchilariga matematika o'qitish metodikasi " o'quv qo'llanmasini yaratgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 11-noyabrdagi 433-son qarori bilan nogironlar ijtimoiy tiklanishning 1996-2000 yilgacha mo'ljallangan Davlat dasturi qabul qilindi. Ayni shu vaqtda maqsad bilan "Sog'lom avlod " ,"Ulug'bek " , "Bolalik" ,"Ekosan" van shu kabi jamg'armalar tashkil etildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A, "Barkamol avlod orzusi" T. "Sharq" . 1999y.
2. Mamedov K. Q, Soatov M. I, Po'latova P. M
3. Mo'minova I. R. Oilada nogiron va yordamga muhtoj bolalar haqida. Toshkent. 1990 yil
4. Rahmonova V. S. Defektalogiya va logopediya asoslari. T. O'q. 1991yil.

TASVIRIY VA AMALIY SAN’AT DARSLARIDA BO’YOQLARNING KIMYOVIY TARKIBI VA XOSSALARI HAQIDAGI BILIM VA KO’NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

D.E.Omonov
O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi
kafedrasi professori

РАЗВИТИЕ ЗНАНИЙ И НАВЫКОВ В ХИМИЧЕСКИХ СТРУКТУРАХ И СВОЙСТВАХ КРАСОК НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА

Ключевые слова: *цвет, знакомство, искусство, изобразительное искусство, гуашь, темпера, акварель, масленная краска.*

DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE AND SKILLS IN CHEMICAL STRUCTURES AND PROPERTIES OF PAINTS IN PAINTING ART LESSONS

Key words*:* *color, acquaintance, art, fine arts, gouache, tempera, watercolor, oil paint.*

Аннотация: *Объяснение химического состава и свойств красок в классах визуальных искусств, объяснение взаимозависимости науки и науки о химии, играет важную роль в формировании понятий о химическом составе и свойствах красителей.*

Annotatsion: *Explaining the chemical composition and properties of paints in visual arts classes, explaining the interdependency between the science and the science of chemistry, plays an important role in forming the concepts about the chemical composition and properties of dyes.*

Ajdodlarimiz bizga rang va uning inson hayotidagi o‘rni, shifobaxshligi, tarbiyaviy, falsafiy va ruhiy tomonlari haqida juda ko‘p ma’naviyat xazinalari qoldirib ketganlar. Afsuski, bu ma’naviy merosdan to‘liq foydalana olmayapmiz. Chunonchi, ta’lim va tarbiyada, tibbiyot, texnika, qishloq xo‘jaligi, iqtisod va boshqa sohalarda bu masalalarga yetarli darajada urg‘u berilmayapti. Xolbuki,

jahonning rivojlangan mamlakatlarida ranglarning inson hayotidagi o‘rniga juda katta ahamiyat berilmoqda. Ma’lumki, ta’lim tizimida rangshunos fani o‘rgatiladi. Lekin, hozirgi zamon talabiga javob beradigan darslik o‘quv-qo‘llanma, elektron versiya va boshqalar yetarli emas. Rangshunoslik fanining o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari deyarli olib borilmagan.

Har bir rang bir odam ma’no anglatadi. “Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo‘lsa, nima ma’noni anglatadi. “Nima bois tabiat yashil rangda yaratilgan? Buni sababi nimada? Agar tabiat qizil yoki sariq rangli bo‘lsa, nima ma’noni anglatgan bular edi? Qaysi ranglar inson kayfiyatini ko‘taradi? Qay biri salbiy yoki ijobiy ta’sir ko‘rsatadi? Inson yoki hayvonlarning ranglari orqali ular salomatligini aniqlasa bo‘ladimi?”. [1.160 b] Dunyo cheksiz sir-sinoatlardan iboratdir. Uni bamisoli musavvirning “Qora kvadrat” asariga ramziy ma’noda o‘xshatsa bo‘ladi. Zero, “kvadrat” – uning adabiy yaratilganligini, to‘rt tomoni – cheksizlik timsolini anglatsa, “qora rang” esa mavxumlik dunyo sir-sinoatining barchasini anglab bo‘lmas sir ekanligidan dalolat beradi. Insoniyat naqadar shu sirlarni bilishga harakat qilmasin, biroq uning tafakkuri ojizlik qilishi, tabiiydir.

Tasviriy san’at darslarida bo’yoqlarning kimyoviy tarkibi va xossalari haqida ma’lumotlar berish o’tiladigan fan bilan kimyo fani o’rtasidagi uzviy bo’liqlikni tushuntirish, ularda bo’yoqlarning kimyoviy tarkibi va xossalari haqida tushunchalarni shakllantirishda muhim o’rinni egallaydi.

Tasviriy san’atda ishlatiladigan bo’yoqlar akvarel, guash, tempera va moyli bo’yoqlarga bo’linadi. [1.160 b]

Akvarel bo’yoqlar - suvda tez eruvchanlik xususiyatiga ega bo’lib, undan foydalanish orqali qog’oz yuzasida plyonka qoplamasi vujudga keladi. Bunga asosiy sabab akvarel bo’yoqlari tarkibida suvda eruvchi kamedi (gummiarabik, gilos elimi) mavjudligi. Akvarel bo’yoqlarni asosan qog’oz yuzasga ishlatish mumkin.

Guash bo’yoqlari - bu bo’yoqarni suvda eruvchi xossaga ega dekstrin moddasi bilan tayyorlanadi. Bu bo’yoqlar akvarel bo’yoqlariga nisbatan quyuq bolib, uni asosan qog’ozga, karton qog’ozga va matolarga ishlatish mumkin.

Tempera - buning tarkibi suvda eruvchi tuxum sarig’i, gummiarabik, (yoki gilos elimi) yoki kazein va moydan tayyorlangan suvli eritma. Bu bo’yoqning boshqa bo’yoqlardan farqi shundaki bu bo’yoq yuzaga ishlatilgandan so’ng ikkinchi bor uni eritish mumkin emas. Bu bo’yoqlardan ko’p xollarda daraxt po’sti (papemashe) ga rang tasvirda ishlanadi, egiluvchanligi bo’lmagani uchun xolst yuzasiga ishlatish to’g’ri bo’lmaydi.

Moyli bo’yoqlar - rafinatsiya qilinib tozalanib, yong’oq yoki kungaboqar moylari bilan tayyorlanadi. Yuzaga (maxsus polotno) ishlatilgandan so’ng u

jiddiy o’zgarishi mumkin. Bu bo’yoqlardan asosan grunt berish hamda yog’och materiallarini bo’yashda foydalaniladi.

Agar biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektr ranglari tartibida qizil, zarg‘aldoq, sariq, yashil, havo rang, zangori ranglarga bo‘yab chiqib, o‘z o‘qi, ya’ni ventilyator o‘qiga o‘rnatib o‘z o‘qi atrofida tez aylantirsak umumiy ko‘rinishdagi kul rang tusni kuzatamiz. Yana xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar – qizil, sariq va zangori ranglarni aylantirganimizda esa yanada yorug‘roq bo‘lgan och kul rang hosil bo‘ladi. Shu yetti xil rangni palitrada aralashtirib ko‘rsak qoramtir tusdagi ko‘rimsiz aralashma hosil bo‘ladi.

Axromatik ranglarning xromatik ranglardan farqi shuki, ular tanlamay yutish va qaytarish xossalariga ega. Axromatik ranglardan boshqa barcha ranglar, ya’ni biror rang tusiga ega bo‘lgan ranglar xromatik ranglarga kiradi.

Har bir xromatik rang uchta xossaga: rang tusiga, rang yorqinligiga (ya’ni kam yoki ko‘p yorqinligiga), rang kuyinganligiga (ya’ni rang quyuqligiga) ega bo‘ladi.

Spektrni sinchiklab kuzatsak uning eng chekkasidagi qizil va binafsha ranglari orasida o‘xshashlik alomatini sezamiz. Ikkala rang bir-biriga qo‘shilsa, ularning oralig‘ida qirmizi ranglar hosil bo‘ladi.

Ranglar doirasida rang tuslari juda ko‘p bo‘lishi mumkin, lekin bizning ko‘zlarimiz 150 taga yaqinini ajratishga qodir.

Sovuq ranglarga esa muz, suv, osmonning rangini eslatuvchi ko‘kish rang, zangori, binafsha, havo rang, to‘q yashil, ko‘kish qizil ranglari kiradi. Tabiatdagi mavjud ranglarni yana o‘z navbatida iliq va sovuq ranglarga ajratish mumkin. Iliq ranglarga quyoshni, alangani, qizigan temirning taftini eslatuvchi sariq, zarg‘aldoq, qizil, sarg‘ish yashil kabi ranglar kirsa.

Dunyo cheksiz sir-sanoatlardan iborat. Ularni o‘rganish uchun cheksiz inson umri kerak bo‘ladi. Ajdodlarimiz tabiat tomonidan yaratilgan barcha ne’matlarning sirli olamini, sabablarini o‘rganishga harakat qilganlar va shunday xulosaga kelganlarki, dunyoda hech bir narsa sababsiz yaratilmagan, Chunonchi “rang” atamasi to‘rtta harfdan iborat bo‘lsa-da, uning ma’nosiga va sirli olamini o‘rganishiga insonlarning umri yetmaydi. Rangni ilmiy o‘rganish uchun “Rangshunoslik” fani yuzaga kelgan.

Ko‘z qorachig‘i kattalashadi, yurak o‘rishi o‘zgaradi, bu holat kishilarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir etadi. Buning aksini olaylik har bahorda lola sayliga chiqqaningizda, toza havodan tashqari, qir-adirlarda turli rangdagi gullarni, maysalarni, musaffo osmonni, tog‘ chuqqisidagi oppoq qorlarni ko‘rib, ruhingiz ko‘tariladi, hayotga va tabiatga bo‘lgan muhabbatingiz yanada oshadi. Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Komoliddin Behzod, Firdavsiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonda mashhur ajdodlarimiz rang, uning turlari, nomlari, ramziy ma’nolari, inson sog‘lig‘iga ta’siri va boshqalar haqida

juda ko‘p yozganlar, ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. [4.386 b] Chunonchi: Abu Rayhon Beruniy o‘zining “Kitob al Javohir-ma’rifat al Javohir” (Mineralogiya) asarida ranglarning 200 dan ortiq nomlarini sanab o‘tgan va bu ranglarning kelib chiqishi to‘g‘risida yozib qoldirgan. Sharqda olimlar, shoirlar, musavvirlar, naqqoshlar, xattotlar ranglarning yuzdan ortiq turini ajrata olganlar hamda ularning nomini, hattoki, har bir rangning ramziy ma’nosini bilganlar. Ulardan bizgacha yetib kelgan ba’zi namunalar bilan tanishib chiqamiz: avlon, rahuvon, bargi karam, binafsha, bug‘doy rang, buz gulgun, jigar rang, zangori, za’faron, zumrad, qahrabo, kul rang, ko‘k lojuvard, lola rang, malla, moviy, mosh rang, nafarmon, oq, pistamagiz, pistaqi pushti, sariq, savsar samo rang, sur, feruza, uchoq, kesak qizil, qirmizi, qora, qora mag‘iz, qoracha qo‘ng‘ir, havo rang anordona, aqiq, bayzo gul, barg rang, baqa tuni, bika, burul, gulnor, gulobi, dani farang, jigari, jiyron, jo‘ja, ziynovi, zar, zarchava, zarg‘aldoq, kaptar bo‘yin, ko‘kimtir, lilovi, limurang, maykaylik mikori, novvot rang, nilobi, nimtatir, nim pushti, norgul, olov rang, olmatakor, oq upa suvi, sabzi rang, samak kesaksiyo, sir, sovot, surma rang, tilla rang, tupori to‘liq, tutiyoyi va boshqalar. Afsuski, yillar, asrlar o‘tishi bilan asta-sekin ranglarning nomi, turlari va ramziy ma’nosi hamda ularning tili yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoldi.

Bu bo’yoqlardan tashqari dekorativ bo’yoqlar, nur tarqatuvchi va issiqlikka sezgir bo’yoqlar mavjud. Dekorativ bo’yoqlar asosan grunt qatlami uchun ishlatiladi. [2.48 b]

Nur tarqatuvchi bo’yoqlar tarkibida nur tarqatish xususiyatiga ega bo’lgan lyuminafor xuxusiyatini namoyon qiladigan moddalar mavjud bo’lib, bu bo’yoqlardan yorug’lik kam bo’lgan manbalar, inshootlar va turli xil reklama yozuvlarida, soat va raqamlarda ishlatiladi.

Issiqlikka sezgir bo’yoqlarning ikki, yani tarkibi o’zgarmas va o’zgaruvchan turi mavjud. O’zgarmas bo’yoqlarning ishci temperatura 100^0C bo’lib, u sovigandan so’ng avvalgi holatiga qaytadi. Bo’yoq qizish natijasida kristallanish qavatini yo’qotadi, 2-4 soat o’tib sovigandan so’ng xavodan namligini yutib yana o’z xoliga qaytadi. O’zgaruvchan bo’yoqlarda ishchi temperatura 950^0C gacha bo’lib, vaqt o’tib sovigach avvalgi rang xolatiga qaytmaydi. Masalan; $NiNH_4PO_4$ $6H_2O$ (*Nikel (II) ammoniy fosfat geksa gidriti*) 120^0 da och yashil rangdan kul rang yashil tusga kiradi, $CONH_4PO_4$ H_2O (*kobalt (II) ammoniy fosfat mono gidriti*) 140^0 da yorqin qizil rangdan to’q ko’k rang tusiga kiradi, $Cd(OH)_2$ (*Kadmiy (II) gidroksidi*) 200^0 da oq rang sariq rang tusiga kiradi, $CuCO_3$ (*Mis (II) karbonat*) 400^0 da och yashil rangdan to’q jigarrang tusiga kiradi. [5.40 b]

Xulosa: Rang inson xayotida cheksiz ahamiyatga ega. Shuning uchun asrlar davomida olimlar tomonidan ranglar haqida juda ko‘p ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va olib borilmoqda. Hozirda xattoki bir qancha davlatlarda maxsus rang

institutlari va ilmiy labaratoriyalar ishlab kelmoqda. Ayniqsa, Yaponiyaning Tokio-shahridagi rang instituti dunyoga mashxur. Dunyoning taniqli olimlari tomonidan rang orqali ramziy ma’noda gapirish; ranglar vositasida insonlarni davolash; tarbiyalash; ranglar jilqasi orqali falsafiy fikr berish; rang orqali insonning ichki dunyosini bilish; qishloq xo‘jalik mahsulotlari unumdorligini oshirish; insonlarning ma’naviyatini shakllantirish va boshqa masalalar o‘rganilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Bulatov S. Rangshunoslik. – T. O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti. 2009. – 160 b.
2. M. Nabiyev "Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi" T-1995-48б
3. EgamovX. Bo’yoqlar bilan ishlash. –T. O’qituvchi. 1981. -56 b.
4. Bulatov S . O’zbek xalq amaliy bezak san’ati. –T.Mehnat. 1991. – 386 b.
5. M. Nabiyev Rangshunoslik. –T. O’qituvchi. 1985. -40 b.
6. Shavqiyev.E. Talabalarda rangshunoslikka oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. (Metodik qo‘llanma) - T. Tafakkur bo‘stoni.2012.- 7. I.U.Izbosarov, D.E.Omonov, S.Abduvohidova., Stages of Working Thematic Composition in Fine Arts Lessons Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress (JARSP) Volume: 01 Issue: 04 | 2022 ISSN: 2751-7551 http://innosci.org 112 | Page
8. D. E. Omonov, M.S.Sidikova, Sh.X.Egamova, F.O.Jahonova., Conceptual bases of production of teaching technologies in lectures and practical classes of engineering graphics international journal of progressive sciences and technologies. (IJPSAT) ISSN: 2509-0119. © 2021 International Journals of Sciences and High Technologies http://ijpsat.ijsht-journals.org Vol. 29 No. 2 November 2021, pp.84-87

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA CHIDAMLI VA YENGIL HAMDA SIFATLI BO'LGAN QURILISH MATERIALLARNI INNAVATSION TEXNOLOGIYASINI YARATISH

Maxkamov Baxrom
Toshkent kimyo texnologiya instituti yangi yer filiali kimyoviy texnalogiyasi kafedrasi katta o‘qituvchisi
Ibrohimov Sardorbek
Toshkent kimyo texnologiya instituti yangi yer filiali kimyoviy texnalogiyasi kafedrasi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada har qanday qurilish obyektining asosi bo‘lgan qurilish materiallaridan zamonaviy texnologiyalar asosida samarali foydalanish hamda yengil va sifatli bo’lgan qurilish materiallaridan kengroq foydalanish to’g’risida chuqur mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so’zlar: *obyekt, zamonaviy qurilish materiallari, sanoat, «Qurilish materiallari va metallar texnologiyasi», «Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish» , "O‘zsanoat qurilish materillari" uyushmasi.*

Abstract: *This article provides in-depth considerations on the effective use of building materials, which are the basis of any construction object, based on modern technologies, and the wider use of lightweight and high-quality building materials.*

Keywords: *object, modern building materials, industry, "Technology of building materials and metals", "Use of hydraulic structures and pumping stations", "Uzsanoat qurilish materillari" association.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается эффективное использование строительных материалов, составляющих основу любого строительного объекта, на основе современных технологий, а также более широкое использование легких и качественных строительных материалов.*

Ключевые слова: *объект, современные строительные материалы, промышленность, «Технология строительных материалов и металлов», «Эксплуатация гидротехнических сооружений и насосных станций», объединение «Узсаноат стройматериалы».*

Kirish

O‘zbekiston respublikasi mustaqilligini mustaxkamlashda va iqtisodiy bazasini yanada rivojlantirishda xar qanday qurilish obyektining asosi bo‘lgan qurilish materiallaridan zamonaviy texnologiyalar asosida samarali foydalanish muxim ahamiyatga ega. Chunki mamlakatimizda sanoat, jamoat, uy-joy, qishloq va suv xo‘jaligi qurilishining kun sayin o‘sib borishi qurilish materiallariga bo‘lgan extiyojni yanada oshirmoqda. Ushbu vazifani ijobiy xal etish uchun birinchi navbatda samarali qurilish materiallari ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur. Qurilish materiallari ishlab chiqarishda ikkilamchi xom ashyolar, boshqa tarmoqlarning chiqindilaridan keng foydalanish, qurilish materiallarining turlarini ko‘paytirish, sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridir. Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishida inson omilining ham muxim o‘rni bor, shu sababli bilimli, ishbilarmon va qobiliyatli kadrlarga bo‘lgan extiyoj ham oshib bormoqda. Qurilish va inshootlardan foydalanish soxalari bo‘yicha mutaxasisslar, jumladan «Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish» yo‘nalishi bo‘yicha tayanch oliy ma’lumotiga ega bo‘lgan bakalavrlar qurilish materiallari va metallar texnologiyasi sohasi bo‘yicha zarur bilimlarni egallashlari hamda qurilish materiallari sanoatining yangiliklaridan xabardor bo‘lishlari lozim. «Qurilish materiallari va metallar texnologiyasi» kursi «Gidrotexnika inshootlari va nasos stansiyalaridan foydalanish» ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha o‘qitiladigan umumkasbiy o‘quv fanlaridan biri hisoblanib, u shartli ravishda 2 qismga bo‘linib o‘rganiladi:

1. Qurilish materiallari;
2. Metallar texnologiyasi.

1.2. Qurilish materiallarining turlari Bino va inshootlarning vazifasi hamda ulardan foydalanish sharoitlaridagi farqlar tufayli qurilish materiallariga qo‘yiladigan talablar va qurilish materiallarining turlari juda turli-tumandir. Qurilish materiallari kelib chiqishiga qarab tabiiy va sun’iy bo‘ladi. Qurilish materiallarini o‘rganishni osonlashtirish uchun ularni ishlab chiqarish texnologiyasi va xom ashyo turiga ko‘ra quyidagi guruqlarga ajratish qabul qilingan: -tabiiy tosh materiallar; -keramik materiallar; -bog‘lovchi moddalar; -metallar; -yog‘och materiallar; -polimer materialalr; -betonlar va temirbetonlar; -kuydirilmasdan olinadigan sun’iy tosh materiallar; -pardozlash materiallari; -suv o‘tkazmaydigan materiallar -issiq-sovuqni o‘tkazmaydigan materiallar

Ma’lumki, ba’zi hollarda nisbatan arzon qurilish materiallarining transport xarajatlari ularning tannarxidan ham oshib ketishi mumkin. qurilish xarajatlarini kamaytirish uchun iloji boricha qurilish obyektiga yaqin joyda qazib olinadigan yoki ishlab chiqariladigan maqalliy materiallardan foydalanish lozim. Qum,

shag‘al, chaqiqtosh, oxak, tabiiy toshlar, g‘ishtlar shunday maxalliy materiallar turiga kiradi.

Qurilish materiallarining asosiy xossalari

Qurilish materialalrining asosiy xossalarini 3 guruhga bo‘lish mumkin: 1. Fizik xossalari (haqiqiy va o‘rtacha zichligi hamda g‘ovakligi) 2. Mexanik xossalari (mustahkamligi, qattiqligi, ishqala-nish ta’siridagi yemirilishga qarshiligi, elastikligi, plastikligi va mo‘rtligi) 3. Suv va sovuq ta’siri bilan bog‘liq xossalari (namlik, suv shimuvchanlik, gigroskopiklik, suv o‘tkazuvchanlik, sovuqqa chidamlilik).

Qurilish materiallarining fizikaviy holat ko‘rsatkichlari Qurilish materiali tarkibidagi qattiq moddalar kristall, amorf yoki shishasimon tuzilishga ega bo‘lishi mumkin. 6 Kristall tuzilishli materiallarning xossalari turli yo‘nalishlarda har xil (anizotrop), amorf tuzilishli materiallarniki esa bir xil (izotrop) bo‘ladi. Shishasimon tuzilishli materiallarning xossalari oraliq holat bilan tavsiflanadi.

Shuningdek hozirgi kunda Respublikamizda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha barqaror o‘sish suratlarini ta’minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o‘zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Tarmoqni jadal rivojlantirish va diversifikatsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mahalliy mineral xom ashyo resurslarini qayta ishlashga investitsiyalarni jalb qilish va qurilish materiallarini eksport qilish hajmlarini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

a) 2019 — 2025-yillarda mahalliy xom ashyo geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasini kengaytirish prognoz ko‘rsatkichlari hamda 2019 — 2025-yillarda diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish materiallari ishlab chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari quyidagilarni nazarda tutgan holda:

geologiya-qidiruv ishlarini olib borish, qazib olish va qayta ishlash asosida qurilish industriyasining xom ashyo bazasi hajmlarini ohaktosh bo‘yicha — 13,1 mln tonnaga, gips toshi bo‘yicha — 1,8 mln tonnaga, loysimon komponentlar, g‘isht xom ashyosi, kvars qumi bo‘yicha — 1 mln tonnaga, ko‘chgan tog‘ jinslari (bazalt) bo‘yicha — 0,1 mln tonnaga, tosh-shag‘al materiallar bo‘yicha — 5,6 mln metr kubga;

ishlab chiqarish hajmlarini oboylar bo‘yicha — 47 barobardan ortiq hajmga, yig‘ilgan parket panellari va plitalari bo‘yicha — 19 barobarga, yog‘och qirindili plitalar hamda yog‘och va boshqa yog‘ochbop materiallardan tayyorlangan

plitalar bo‘yicha — 15 barobarga,gazbeton bloklari bo‘yicha — 7 barobarga, lak-bo‘yoq materiallari hamda energiya va issiqlikni tejovchi float-texnologiya asosida ishlab chiqarilgan arxitektura-qurilish oynasi bo‘yicha — 4 barobarga, bazaltdan tayyorlanadigan kompozit armatura bo‘yicha — 3 barobarga va sement bo‘yicha — 2 barobarga oshirish;

b) xalqaro moliyaviy institutlar va xorijiy banklarning kreditlarini jalb qilish orqali moliyalashtiriladigan, 2019 — 2021-yillarda qurilish materiallari sanoati sohasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalarning yig‘ma ko‘rsatkichlari hamda 2019 — 2021-yillarda qurilish materiallari sanoati sohasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar ro‘yxati yaratilgan.

v) 2019 — 2020-yillarda qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar (keyingi o‘rinlarda — Kompleks chora-tadbirlar) muvofiq tasdiqlansin.

Yurtimizda bunyodkorlik ishlari ko‘lami kengayib borgani sari yangi innovatsion va sifatli qurilish materiallariga bo‘lgan talabidan kelib chiqib, qurilish materiallari sanoati sohasida olib borilayotgan tub islohotlar natijasida yangi turdagi innovatsion, eksportbop va import o‘rnini bosuvchi qurilish materiallaridan gulqog‘oz, suyuq gulqog‘oz, zoloblok, gazoblok, penoblok, polistrolblok, kompozit (asbestsiz) shifer, o‘tga chidamli g‘isht, yumshoq tom yopqich materiallari, issiqlik izolyatsiyalash, bazaltdan armatura, bazaltdan tola, geomembrana, geosetka, geokompozitlar mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan o‘zlashtirildi va ishlab chiqarilmoqda.

Sifatli va xavfsiz yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarishga joriy qilish maqsadida qurilish materiallarini ishlab chiqarish bo‘yicha 2019 yilda 340 ta va 2020 yilda 626 ta xalqaro standartlar qabul qilindi.

2024-yilda qurilish materiallari sohasida jami 37,9 trln so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarish kutilmoqda. Bu haqda AOKAda Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi, "O‘zsanoatqurilishmaterillari" uyushmasi, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi rahbariyati ishtirokida o'tkazilgan matbuot anjumanida ma’lumot berildi.

Qayd etilishicha, 2024-yilda umumiy qiymati 2,2 mlrd dollarlik bo‘lgan jami 540 ta loyiha amalga oshiriladi. Shuningdek, 1,1 mlrd dollarlik qurilish materiallari eksport qilinadi.

Bu yil I choragida 152,9 mln dollarlik eksport amalga oshirildi. Xususan, 17,5 mln dollar PVX profillar va trubalar, 8,2 mln dollar alyumin profillar, 12,2 mln dollar keramik plitka va keramika mahsulotlari, 9,6 mln dollar quruq qurilish aralashmalari va syementdan bog‘lovchi materiallar, 16,3 mln dollar oboy kabi qurilish materiallarining eksporti amalga oshirildi.

Ushbu davrda qurilish materiallari eksporti geografiyasi an’anaviy hisoblangan bozorlar ya’ni Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikistondan tashqari Ozarbayjon, Turkiya, Kanada, Ruminiya davlatlari hisobiga kengaytirildi.

"O‘zsanoatqurilishmaterillari" uyushmasi tasarrufidagi 50 ta qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarida Sifat menejment tizimi (ISO 9001) joriy etildi.

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi instituti hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi bilan hamkorlikda “Yong‘inga chidamli qurilish materiallari yaratishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong‘in xavfsizligi instituti hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi bilan hamkorlikda “Yong‘inga chidamli qurilish materiallari yaratishning dolzarb muammolari va yechimlari” mavzuida respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi.

Mamlakatimizda yong‘in xavfsizligini ta’minlashda mahalliylashtirish dasturi asosida yangi, zamonaviy, yong‘inga chidamli qurilish materiallari, konstruksiyalar va buyumlarni ishlab chiqarish ham muhim ahamiyatga ega.

Xususan, yong‘inlarning aksariyati yong‘in xavfi yuqori sanalgan qurilish materiallarining termik parchalanishi natijasida sodir bo‘lmoqda. Bunday holatlarning oldini olish uchun yong‘inga xavfsiz qurilish xom ashyolarini yaratish yuzasidan olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni yanada jadallashtirish hamda samarali natijalarni hayotga keng tatbiq etish lozim.

